

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
“AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI**



MUHANDISLIK DASTURLARI

fanidan o‘quv uslubiy majmua

Bilim sohasi:	300 000 – Ishlab chiqarish texnik soha
Ta‘lim sohasi:	310 000 – Muhandislik ishi
Ta‘lim yo‘nalishi:	5 311 000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish
	5310900 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti (sanoat)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI
“AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI**



**MUHANDISLIK
DASTURLARI**
fanidan

**O‘QUV USLUBIY
MAJMUA**

Navoiy davlat konchilik instituti ilmiy kengashining 2020 yil “28” avgustdagi 1 – sonli Kengashida tasdiqlangan “Muhandislik dasturlari” fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O‘rinov Sherali Raufovich – “Avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasini dotsenti, NDKI

Taqrizchilar:

Eshmurodov Z.O. – texnika fanlari nomzodi, dosent, NDKI

Po‘latov Vohid – Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo‘limi boshlig‘i, NKMK


O‘quv-uslubiy majmua “Avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasining yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№1 Bayonnoma, “07” iyul 2020 y.).


Kafedra mudiri:  **O.A. Jumayev**

O‘quv-uslubiy majmua NDKI Energo-mexanika fakultetining yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№8 Bayonnoma, “10” iyul 2020 y.)

Fakulteti dekani:  **A.I. Karshibayev**

O‘quv-uslubiy majmua NDKI o‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan (№1 Bayonnoma, “29” avgust 2020 y.)

O‘quv-uslubiy kengash kotibasi:  **M.J. Normatova**

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i:  **I.A. Karimov**

MUNDARIJA

O'QUV MATERIALLARI	7
MA'RUZALAR	8
1-ma'ruza. Kirish. Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan dasturlar haqida qisqacha ma'lumot. Mantiqiy elementlar va ularning qurilishi.....	9
2 – ma'ruza. AutoCAD dasturi. Umumiy tushunchalar.....	17
3–ma'ruza. Matlab dasturiy paketi. Matlab dasturida arifmetik ifodalarni kiritish. Matlab dasturlash elementlari va ular bilan ishlash	38
4 – ma'ruza. Matlab dasturida funksiyalar grafiklarini qurish. M-fayllar	53
5 – ma'ruza. Matlab dasturiy paketidagi qism dasturlar. Simulink qism dasturidagi elementlar	61
6 - ma'ruza. SCADA sistemasi. SCADA sistemalari to'g'risida umumiy ma'lumot.	89
7-ma'ruza. SCADA sistemasining TRACE MODE dasturiy paketi	106
8-mar'uza. Trenajer sistemalari. Trenajer sistemalari haqida umumiy tushuncha. Experion PKS dasturi haqida umumiy tushuncha. UniSim dasturi haqida umumiy tushuncha	116
9-mar'uza. SIMATIC S7 dasturlanadigan kontrolyorlari. Umumiy tushunchalar.....	134
AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	191
1 - AMALIY MASHG'ULOT. MANTIQIY ELEMENTLAR USTIDA AMALLAR BAJARISHNI O'RGANISH	191
2 - AMALIY MASHG'ULOT. MATLAB DASTURIDAGI ISHCHI OYNALARDA AMALLAR BAJARISHNI, SIMULINK QISM DASTURIDAGI MAXSUS BLOKLAR BILAN ISHLASHNI VA ANIMATSION JARAYONLARDAGI KONSTRUKTIV PARAMETRLARNING TA'SIRINI O'RGANISH	194
3-AMALIY MASHG'ULOT. AUTOCAD LOYIHALASHTIRISHNI AVTOMATLASHTIRILGAN PAKETINI O'RGANISH. ISHCHI MUHITNI YARATISH. SXEMA VA CHIZMALARNI O'RGANISH UCHUN BUYRUQLARNI O'RGANISH. O'LCHAM VA YOZUVLARNI TUSHIRISH. TURLI XIL AVTOMATLASHTIRISH VOSITALARINING TEXNIK RASMLARINI RANGLI BAJARISH. UCH O'LCHAMLI OBYEKTLAR BILAN ISHLASH FUNKSIYALARI	209
4-AMALIY MASHG'ULOT. SCADA SISTEMASINING ISHCHI BLOKLARI BILAN TANISHISH.....	221
5-AMALIY MASHG'ULOT. EXPERION SISTEMASINING ISHCHI BLOKLARI BILAN TANISHISH. TRENAJER SISTEMASINI ISHGA TUSHIRISH KETMA KETLIGINI VA TRENAJER SISTEMASIDA BAHOLASH ALGORITMINI TUZISHINI O'RGANISH.....	224
6-AMALIY MASHG'ULOT. SIMATIC S7 DASTURLANADIGAN KONTROLLERLARNING ASOSIY BLOKLARI BILAN TANISHISH.....	235
TAJRIBA MASHG'ULOT MATERIALLARI	238
1-TAJRIBA ISHI. MANTIQIY ELEMENTLAR ASOSIDA CHINLIK JADVALI VA MANTIQIY SXEMA TUZISHNI O'RGANISH.....	238
2-TAJRIBA ISHI. MATLAB DASTURIY PAKETIDAGI ISHCHI OYNADA AMALLAR BAJARISH. MATLAB DASTURIY PAKETIDA MASSIVLAR BILAN ISHLASH. MATLAB DASTURIY PAKETIDA GRAFIKLAR QURISHNI O'RGANISH. SIMULINK QISM DASTURIDA ODDIY MODELLAR QURISH, STRUKTUR SXEMALAR TUZISH, SISTEMALARNING VAQT XARAKTERISTIKALARINI TADQIQ QILISHNI O'RGANISH, MAXSUS BLOKLARDAN FOYDALANGAN HOLDA AMALLAR BAJARISH. MATLAB DASTURIY PAKETIDA ANIMATSION ROSTLASH KONTURLARINI QURISH	240

3-TAJRIBA ISHI. AUTOCAD TIZIMI BILAN TANISHISH. AUTOCAD BUYRUQLARI BILAN TANISHISH. KO‘RINISHLARNI VA CHIZMALARNI SOZLASH. AUTO CADNING ASOSIY CHIZMA CHIZISH BUYRUQLARI BILAN TANISHISH. LOYIHADA SIMVOLLAR VA SHTRIXLARNI QO‘SHISH. YOZUVLAR VA O‘LCHAMLARNI QO‘SHISH. VARAQLAR KOMPONOVKASI VA BOSMAGA CHIQRISH. OBYEKTЛАRNI QURISH VA TAHRIRLASH. AVTOMATLASHTIRISHDA FOYDALANILADIGAN FUNKSIONAL SXEMALARDAGI SODDA BOSHQARUV KONTURLARINI QURISH	269
4-TAJRIBA ISHI. SCADA SISTEMASIDAGI JARAYONLARNI TEKSHIRISH. TRACE MODE DASTURIY PAKETIDA MNEMOSXEMALAR TUZISH, PROYEKT VA KANALLAR YARATISH.....	282
5-TAJRIBA ISHI. EXPERION SISTEMASIDA IMITATSION MODELLAR QURISH. UNISIM DASTURIY PAKETIDA STATIK OBYEKTЛАRNI QURISH. TRENAJER SISTEMASIDAGI ISSIQLIK ALMASHTIRISH JARAYONINI TEKSHIRISH VA ULARDA MASHQ JARAYONLARI. TRENAJER SISTEMASIDA NASOSLAR VA KLAPANLARNI TEKSHIRISH VA ULARDA MASHQ JARAYONLARINI O‘RGANISH	293
6-TAJRIBA ISHI. STEP7 DASTURIY PAKETIDA MNEMOSXEMALAR TUZISH. ...	304
MUSTAQIL TA‘LIM	311
Mustaqil ish mavzulari	311
Mustaqil ishlash uchun masalalar to‘plami.....	312
GLOSSARIY	317
ILOVALAR.....	321
NAMUNAVIY DASTUR.....	321
ISHCHI DASTUR.....	331
ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI.....	341
1-ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI	344
2-ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI	344
TARQATMA MATERIALLAR.....	348

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**



MUHANDISLIK DASTURLARI
fanidan

O`QUV MATERIALLARI

Navoiy – 2018

MA'RUZALAR

1-MA'RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.	Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 65-70 nafar
2.	O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
3.	Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Zamonaviy EHMlarning dasturiy ta'minoti. 2. Amaliy dasturlar paketi. 3. Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan paketlarning sinflanishi.
4.	<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi klassifikatsiyasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.	
5.	<i>Pedagogik vazifalar:</i> - AQP klassifikatsiyasi, avtomatlashtirilgan ish joyi, loyihalash obekti, loyihalashni avtomatlashtirish darajasi bilan tanishtirish va tushuntirish; izohlash va tasavvur hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: ➤ AQP klassifikatsiyasining asosiy belgilarini aytib beradi. ➤ Loyihalash obekti asosiy tushunchalarini bayon qiladi. ➤ Texnikaviy ta'minot strukturasiidagi darajalar haqida aytib beradi. ➤ AQPning boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'siri printsiplarini ta'riflaydi
6.	O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma'ruza, blits-so'rov, klaster, BBB texnikasi
7.	O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
8.	O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
9.	O'qitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

1-MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. <ul style="list-style-type: none"> • AQP klassifikatsiyasining asosiy belgilarini bayon qiling. • Loyihalash obekti asosiy tushunchalarini bayon qiling. • Texnikaviy ta'minot strukturasiidagi darajalar haqida aytib bering. • AQPning boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'siri printsiplarini ta'riflang. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. 2.3. AQP klassifikatsiyasi to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir birini takrorlamay atamalarni aytadi. Oylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: AQP klassifikatsiyasiga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

1-ma'ruza.

Kirish. Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan dasturlar haqida qisqacha ma'lumot. Mantiqiy elementlar va ularning qurilishi.

Reja:

- 1. Kirish**
- 2. Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan muxandislik dasturlari.**
 - 2.1. ALT**
 - 2.2. SCADA tizimlari.**
 - 2.3. Trenajor tizimlar**
 - 2.4. MATLAB**
- 3. Mantiqiy elementlar haqida umumiy tushunchalar.**
- 4. Teng kuchli formulalar va teng kuchli almashtirishlar.**

1. Kirish

Zamonaviy ishlab chiqarishning rivojlantirish strategiyasi avvalo texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni sezilarli darajada o'sishini talab qiladi. Dastlab texnologik jarayonlar to'laligicha inson tomonidan boshqarilgan. Texnologik jarayonlarni murakkablashib borishi natijasida insonlar imkoniyati chegaralovchi faktor sifatida nomoyon bo'lib boshladi.

Avtomatlashtirish bu – texnik vositalar, boshqarish usullari va tizimlarini qo'llagan xolda ishlab chiqarishdagi to'g'ridan to'g'ri inson ishtirokini ozod qilish deganidir. Ishlab chiqarishni va samaradorlikni oshirish, maxsulot sifatini va inson mehnat faoliyati sharoitlarini yaxshilash avtomatlashtirishning maqsadi hisoblanadi.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish insonni almashtirgan xolda, boshqarish va nazorat qilish funktsiya bajaruvchi turli xildagi boshqarish nazorat tizimlarini yaratishdan iborat.

Inson o'z aqli, bilimi, ko'nikmasi va tajribasidan foydalangan xolda o'zi uchun aqliy va jismoniy mehnatni bajaradigan mashinalar yaratadi. Bevosita inson ishtirokini birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridan ya'ni texnologik jarayonlardan ozod qilish muxim.

Istalgan inson mehnatini samaradorligini oshirishni avtomatlashtirish ta'minlaydi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish inson ishtirokini minimallashtiradigan texnologiyani yaratish demakdir, aniq qilib aytganda u ishchilar sonini kamaytirish, jarayonlarni samaradorligini oshirish, mehnat sharoitini va maxsulot sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar kompleksini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalarini jadal suratlar bilan rivojlanishi avtomatlashtirish soxasiga xam katta turtki berdi. YA'ni bu soxada ishlab chiqarishda samaradorlikni va avtomatlashtirishni ta'minlaydigan ko'plab dasturlar paydo bo'ldi.

2. Avtomatlashtirishda qo'llaniladigan muxandislik dasturlari.

Umumiy qilib qaraganda sanoatda avtomatlashtirish uchun qo'llaniladigan uch turdagi dasturlar mavjud. Avtomatik tizimlar va avtomatlashtirilgan boshqarishni loyixalash uchun qo'llaniladigan tizimlar, texnologik jarayonlarni modellashtirish va alohida qismlarini dasturlashga mo'ljallangan dasturiy paketlar va tizimlar xamda SCADA sistemalar. Lekin yildan yilga dasturiy paketlar intensiv integratsiyasi natijasida yuqoridagi bo'linish shartli hisoblanadi.

2.1. ALT

Ishlab chiqarish tizimida asosiy funktsiya bu jarayonni loyixalash hisoblanadi. Maxsulot sifati va uning dizayni uning iqtisodiy muvofiqiyati va maxsulotning umumiy ahamiyatini aniqlovchi asosiy faktordir. Agar maxsulot dizaynini yanada yaxshilash imkoni mavjud bo'lsa maxsulot sifatidan qat'iy nazar u tanazzulga uchraydi. Aksincha maxsulot dizayni yaxshi va uning tannarxi past bo'lsa bu maxsulot muvofiqiyatini ta'minlaydi. Demak ishlab chiqarish jarayonlarini loyixalash sanoatda juda katta ahamiyatga ega. Shunday qilib dizayn va ishlab chiqarish bir biridan ajralgan bo'lishi mumkin emas, ular bir biri bilan funktsional, texnologik va iqtisodiy bog'langan va u avtomatlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi. (Mikell P. Groover. Automation, Production Systems 755 bet).

Bugungi kunda loyixa tashkilotlariga kompyuterlashtirish jadal suratlar bilan kirib kelmoqda. Bu loyixa ishini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarmoqda, bunda loyixalash tezligi va sifati o'sib

bormoqda, ilgari soddalashtirilgan muxandislik masalalari batafsil ko'rib chiqilmoqda. Bular umumtexnik dasturlar ichidagi yoki mustaqil bo'lgan maxsuslashtirilgan dasturlardan samarali foydalanish natijasida amalga oshirilmoqda. Loyixa ishlarini avtomatlashtirish bo'yicha yaratiladigan dasturiy maxsulotlar va texnik vositalarning umumiy nomga ega bu ALT.

ALT (inglizchadan CAD, Computer-Aided Design) – dasturiy vositasi ishlab chiqarish ob'ektlarini (yoki qurilish) loyixalash, shuningdek konstruktorlik yoki texnologik xujjatlarni loyixalash uchun mo'ljallangan.

Ko'p funksiyali ALT tizimlari komponentlari odatda uchta asosiy CAD, CAM, CAE bloklariga sinflanadi. CAD (Computer Aided Design) bloki modullari asosan grafik ishlarni bajarishga mo'ljallangan, SAM (Computer Aided Manufacturing) bloki – ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash masalalarini yechish uchun, SAYE (Computer Aided Engineering) modullari – muxandislik xisob kitob, taxlil va loyixa yechimlarini tekshirishga mo'ljallangan.

Turli bosqichdagi ALTlarning kup sonli dasturlari mavjud. Shulardan «ochik» (kengayishga imkon beruvchi), ya'ni SAD bazaviy grafik modullarni tashkil etishga karatilgan tizimlar keng tarkalgan. Xisoblarni va texnologik yechimlarni amalga oshirishga muljallangan modullar esa maxsus dasturlashga ixtisoslashgan foydalanuvchilar tomonidan ishlab chikiladi. Kurilish loyixalarida keng tarkalgan bunday kushimcha modullar, CAD sistemalarisiz xam aloxida kullanilishi mumkin. Sababi bu modullarning uzlari yirik dasturiy majmua bulib, tor doiradagi masalalarni yechish uchun maxsus ular uchun aloxida uzlariga tegishli bulgan ilovalar ishlab chikiladi.

Mashinasozdik, ishlab chikarish, kurilish va axborot vositalari bozorida eng yirik dasturiy ta'minot provayderlaridan biri Autodesk, Inc kompaniyasidir. 1982 yildan buyon Autodesk kompaniyasi tomonidan konstruktor, muxandis va arxitektorlar uchun rakamli modellarni ishlab chikishning keng spektrdagi yechimlari ishlab chikildi. Autodesk texnologiyalari yordamida ishlab chikilayotgan konstruksiyani loyixalashning boshlangich bosqichlaridan boshlab taxlil kilib kurish uni vizualizasiyalash xamda bu narsalarni ekranda kuribgina kolmay balki sinab kurish xam mumkin.

Uzbekistonda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish soxasida AutoCAD, KOMPAS, OrCAD, Proteus, WorkBench kabi ALTlar keng kullaniladi.

2.2. SCADA tizimlari.

Hozirgi kunda kuppina sanoat tarmoklarining avtomatlashtirilgan boshkaruvida SCADA (Supervisory Control And Data Acquisition— dispetcherlik boshkaruvi va ma'lumotlarni yigish) tizimlari keng kullaniladi. Bunda SCADA tizimlari - jarayonlarni boshkarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimi yoki vizuallashtirishning ajralmas bir bulagi bulib koldi. 20 asrning boshlarida keng tarkalgan avtomatlashtirilgan biror bir obektni SCADA tizimlarisiz bugungi kunda tasavvur kilib bulmaydi. Ikkilamchi kurilmalardan iborat yirik shkaf kuttilar bugungi kundi biz uchun tarix bulib koldi, ularning urnini avtomatlashtirilgan ishchi urinlari egallagan. SCADA tizimlarini joriy etish – yirik obektlarda ma'lumotlarni va texnologik axborotni tugridan tugri ARM dispetcherlik peltiga uzatish imkonini beradi, bu narsa uz urnida ikkilamchi kurilma ekspluatasiyasining arzonlashuviga olib keladi. Yangi texnologiyalar bozorida SCADA tizimlarining juda kup turlarini uchratishimiz mumkin, lekin shunga karamay ularning aksariyati bir xil funksiyaga ega, ya'ni TJ va ICHAdagi asosiy bir xil talablarni bajarishdan iborat. Bu narsa avtomatlashtirilgin tizimlarni ishlab chikishdagi asosiy vazifalarning deyarli bir xilligi bilan xarakterlanadi. Avtomatlashtirish buyicha mukammal loyixani bajarish imkonini beruvchi asosiy funksiyalarni aniklab olamiz.

1. texnologik jarayonni kurish va yasash imkonini beruvchi grafik interfeysiz xech bir SCADA tizimi ishlay olmaydi. Texnologik jarayonning grafik kismi - texnologik obektlarning fizik parametrlarini xisoblash vositalarini, shuningde TJ obektlarining detallashgan yoki soddalashtirilgan tasvirlarini kurish imkonini beruvchi kismiga aytiladi. Bundan tashkari, unda tugmachalar, indikatorlar, rakamli indikatorlar, rostlovchi kurilmalar va boshka ikkilamchi asoblarni tasvirlash imokni bor. Boshka ishlab chikaruvchilarning mnemosxema elementlari, dinamik obektlar kabi tasvir va video kutubxonalarini grafik axborotlarini SCADA tizimining grafiklar oinasiga chiqarish imkonini beradi.

2. SCADA tizimlari TOdagi sodir bo'ladigan o'lchashlar, vaziyatlar yoki avariya xolatlari bo'yicha arxivlar yaratib borish bilan birgalikda sodir bo'lgan axborotlar o'zgarishini vaqtinchalik oinada ko'rsatib boradi.

3. Texnologik jarayonlarni boshkarish, matematik xisob kitoblarni bajarish algoritmlarini tuzishdagi soddalashtirilgan dasturlash tili mavjud.

4. Datchiklar, kontrollerning ikkilamchi qurilmalari kabi TJ ABSning quyi va pastki bosqichlarida joylashgan, SCADA tizimi bilan ishlaydigan qurilmalar va jixozlarning drayverlari mavjud.

5. Boshqa yuqori darajadagi dasturlash tillarini (Visual C++, VBA, VB) bilan ishlashi mumkin.

6. Fayl va komponentlarga ruxsatsiz kirishni ximoyalash SCADA sistemasining muxim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kundagi keng tarqalgan SCADA tizimlari:

- TRACE MODE (SOFTLOGIC-SCADA/HMI-MES-EAM-HRM maxsulotlarini uzida birlashtirgan va ishlab chikarish jarayonlarini boshkarish uchun muljallangan integrallashgan birinchi tizim),

- SIMATIC WinCC (markazlashgan nazorat va ma'lumotlarni yig'uvchi TJ ABSni boshqarishni yuqori bosqichini ishlab chiqishga mo'ljallangan muxitdir. SIMATIC WinCC (Windows Control Center) bu – turli vazifalarni bajarishga muljallangan boshqarish tizimlari va avtomatlashtirish bosqichlari tashkil etish uchun keng funksional imkoniyatlarga ega va Windows operasion tizimi boshqaruvi ostida ishlovchi odam-mashina interfeysining kompyuterli tizimidir),

- Citect SCADA (vizuallashtirishning to'liq funksional tizimi va monitoringi, ma'lumotlarni yig'ish va boshkarish uchun muljallangan dasturiy vosita),

- InTouch SCADA tizimi (DSN (tarqoq boshqarish tizimlari) va boshqa TJ ABSlarni yaratish uchun qo'llaniladigan texnologik jarayonlarni sanoat avtomatikasi va dispetcherli nazorat uchun vizuallashtirishni va boshqarishni ta'minlaydigan dastur) va boshkalar.

2.3. Trenajer tizimlar

So'ngi o'n yilliklarda butun dunyoda yuqori samaradorlikka ega va ishonchli bulgan ma'lumotlarni yigish tizimlari shungdek dispetcherlik boshkaruvi tizimlaridagi muammolarni bartaraf etishga bulgan kizikish tobora ortib bormokda. Bu narsa bir tomondan - avtomatlashtirilgan tizimlarni kullash imkoniyatlarining kengayishi, dasturiy ta'minot va telekommunikasiya, xisoblash texnikalaridagi bir kator rivojlanayotgan soxalar bilan boglik balsa. Ikkinchi tomondan axborot texnologiyalarining rivojlanishi, avtomatlashtirish darajasining kutarilishi boshkarish tizimida inson va kurilma orasidagi odam - operator orasidan ba'zi nokulayliklarni keltirib chikarmokda. Tekshiruvlar natijasida shu narsa ma'lum buldiki agar 1960 yillarda inson, sanoat va transportdagi avariya xolatlari alokadorligi 20 % kuzatilgan balsa 1990 yilga kelib bu narsa 80 % tashkil etmokda. Yangi texnologiyalarni takomillashtirish va elektron kurilmalar va mashinalar sifatini yanada oshirish bilan bu kursatkichlar yanada kutarilishi mumkin.

Mana shunday xolatlarni inobatga olib bugungi kunda SCADA tizimlarining yanada takomillashgan UnisimDesign, Experion paketlari bilan ishlovchi kompyuter trenajorlari keng kullanilmokda.

Masalan. UnisimDesign, Experion dasturiy ta'minoti korxonona iktisodiy faoliyati kursatkichlarni yaxshilash xamda korxonona ishining samardorligini kutarish imkonini beradi. UnisimDesign, Experion dasturiy ta'minot tizimini ishlab chikishda modellashtirishning mavjud texnologiyalari orasida enga samaralilari tanlab olingan. UnisimDesign, Experion da korxonaning butun ish faoliyati davomida samarali ishlashi uchun bloklar tuplami mavjud. Bu dasturda avtonom xolatda ya'ni texnologik jarayonning statik modelini yaratish, operatorlarni ukitish, tizimdagi nosozliklarni bartaraf etish bilan birgalikda interaktiv – iktisodiy faoliyatini rejalashtirish, optimalashtirish va boshkarish imkoniyatlar mavjud.

2.4. MATLAB

Zamonaviy kompyuter matematikasi matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun Eureka, Gauss, Derive, Mathcad, Mathematica, Maple va boshqa dasturiy tizimlar va dasturlarning to'plamlarini taklif qiladi. Ular orasida MATLAB imkoniyatlari va maxsuldorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

MATLAB – bu vaqt sinovidan o'tgan matematik hisoblarni avtomatlashtirish tizimlaridan biridir. U matritsaviy amallarni qo'llashga asoslangan tizimning nomi MATrix LABoratory matritsaviy laboratoriyada o'z aksini topgan.

Matritsalar murakkab matematik hisoblarda, jumladan, chiziqli algebra masalalarini yechishda va dinamik tizimlar hamda ob'ektlarni modellashtirishda keng qo'llaniladi. Ular dinamik tizimlar va ob'ektlarning holat tenglamalarini avtomatik ravishda tuzish va yechishning asosi bo'lib hisoblanadi. Bunga MATLABning kengaytmasi Simulink misol bo'lishi mumkin.

MATLAB ixtisoslashtirilgan matritsaviy tizim chegaralaridan chiqib universal integrallashgan kompyuterda modellashtirish tizimiga aylandi. «Integrallashgan» so'zi bu tizimda qulay ifodalar va izohlar tahrirchisi, hisoblagich, grafik dasturiy protsessor va boshqalar o'zaro birlashtirilganligini bildiradi.

MATLAB tizimining vazifasi har xil turdagi masalalarni yechishda foydalanuvchilarni an'anaviy dasturlash tillariga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan va imkoniyatlari keng dasturlash tili bilan ta'minlashdir. Uning dasturlash tillari bilan integrallashuvi dasturning kengayuvchanligiga olib keldi.

MATLAB asosan matematik hisoblashlar, algoritmlarni yaratish, modellashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, tadqiq qilish va vizuallashtirish, ilmiy va injenerlik grafikasi, ilovalarni ishlab chiqish va boshqalar.

MATLAB kengayuvchi tizim, uni har xil turdagi masalalarni yechishga oson moslashtirish mumkin. Uning eng katta afzalligi tabiiy yo'l bilan kengayishi va bu kengayish m-fayllar ko'rinishida amalga oshirishidir. Boshqacha aytganda, tizimning kengayishlari kompyuterning doimiy xotirasida saqlanadi va MATLABning birlashtirilgan (ichki) funksiyalari va protseduralari kabi kerakli vaqtda foydalanish uchun chaqiriladi.

3. Mantiqiy elementlar haqida umumiy tushunchalar.

Zamonaviy hisoblash texnikasida axborotni raqamli qayta ishlash usuli muhim rol o'ynaydi. Raqamli yarim o'tkazgichli IMSlar hisoblash texnikasi qurilmalari va tizimining negiz elementi hisoblanadi. Hisoblash mashinalari tomonidan qayta ishlanayotgan berilganlar, natija va boshqa axborotlar faqat ikki qiymat oladigan (ikkilik sanoq tizimi) elektr signallari ko'rinishida ifodalanadi.

Analog axborotni raqamli ko'rinishga aylantirish uchun uni *kvantlaydilar*, ya'ni vaqt bo'yicha uzluksiz signal uning ma'lum nuqtalardagi diskret qiymatlari bilan almashtiriladi. So'ngra berilgan signal oxirgi diskret qiymatiga mos ravishda raqam beriladi. Signal diskret darajalarini raqamlar ketma – ketligi bilan almashtirish jarayoni *kodlash* deb ataladi. Olingan raqamlar ketma – ketligi *signal kodi* deb ataladi.

Ikkilik sanoq tizimida biror son ikki raqam: 0 va 1 orqali ifodalanadi. Raqamlarni ifodalash uchun raqamli tizimlarda tok yoki kuchlanish kabi elektr kattalikni ikki holatdagi signalini qabul qilishga moslashgan elektron sxema bo'lishi talab qilinadi. Kattalikning biri – 0 ga, ikkinchisi – 1 ga mos kelishi kerak. Ikki elektr holatga ega bo'lgan elektr sxemalarni yaratishning nisbatan soddaligi shunga olib keldiki, hozirgi zamonaviy raqamli texnika mana shu ikkilik ifodalash tizimiga asoslangan.

Raqamli qurilmalar ishlash algoritmini ifodalash uchun bul' algebrasi yoki mantiq algebrasi qo'llaniladi. Mantiq algebrasi doirasida raqamli sxema kirish, chiqish va ichki qismlariga mos ravishda bul' o'zgaruvchilari o'rnatiladi va ular faqat ikki qiymat qabul qilishi mumkin:

$$X=0 \text{ agar } X \neq 1; \quad X=1 \text{ agar } X \neq 0.$$

Bul' algebrasi asosiy amallari bo'lib mantiqiy qo'shuv, ko'paytiruv va inkor amallari hisoblanadi.

Mantiqiy qo'shuv. Bu amal YokI amali yoki diz'yunksiya deb ataladi. Ikki o'zgaruvchini mantiqiy qo'shish postulatlarini 1 – jadvalda keltirilgan.

Bunday jadvallar *haqiqiylik jadvallari* deb ataladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu amal ixtiyoriy o'zgaruvchilar soniga mo'ljallangan. Amal bajarilayotgan o'zgaruvchilar soni, uning belgisidan oldin

turgan raqam bilan ko'rsatiladi. Demak, 1 – jadvalda 2YokI amali bajarilgan. Mantiqiy qo'shuv YokI amalini bajaruvchi element (elektron sxema) shartli belgisi 1 *a* – rasmda keltirilgan.

1 - jadval

X1	X2	Y=X1+X2
0	0	0
0	1	1
1	0	1
1	1	1

Mantiqiy qo'paytiruv. Bu amal HAM amali yoki kon'yunksiya deb ataladi. Mantiqiy ko'paytiruv postulatlarini 9.2 – jadvalda keltirilgan. Mantiqiy HAM amalini bajaruvchi element shartli belgisi 9.1 *b* – rasmda ifodalangan.


2 - jadval

X1	X2	Y=X1·X2
0	0	0
0	1	0
1	0	0
1	1	1

Mantiqiy inkor. Inkor amali inversiya yoki to'ldirish deb ataladi. Inkor postulatlarini 3 – jadvalda keltirilgan. Inversiya amalini bajaruvchi mantiqiy element shartli belgisi 1 *v* – rasmda keltirilgan.

3– jadval

X	Y
0	1
1	0



1 – rasm.


Elementar mantiqiy HAM, YokI, EMAS amallarini bajaradigan mantiqiy elementlardan foydalanib ancha murakkab amallarni bajaradigan elementlar va ularga mos keluvchi elektron sxemalar yaratish mumkin.

Turli amallarni bajaradigan elementlar IMSlar ko'rinishida ko'plab ishlab chiqariladi. Mantiqiy IMSlar seriyalarga birlashadilar. Har bir seriya asosida ma'lum bir mantiqiy amalni bajaruvchi elektr sxemadan tashkil topgan negiz element yotadi, masalan HAM-EMAS mantiqiy amali (Sheffer elementi) yoki YokI-EMAS mantiqiy amali (Pirs elementi). Raqamli integral mikrosxemalar yaratishda turli murakkab mantiqiy amallarni bajaradigan sxemalarni yasashda faqat bitta HAM-EMAS, yoki YokI-EMAS mantiqiy elementidan foydalanish talab qilinishi bilan ham ajralib turadi.

Asosiy qism: mantiqiy element yoki mantiqiy operatsiyalarni birinchi bo'lib fanga ingliz matematigi Djordj Bul' kiritdi. Bu mantiqiy amallar qo'shish ko'paytirish av inkor amallaridan iborat. Mantiqiy amallarning avtomatlashtirishdagi ahamiyati juda katta hisoblanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonalarini avtomatlashtirish negizida asosan shu uch amal qo'llaniladi. Mantiqiy elementlar faqat ikkilik sanoq sistemasida ishlash imkoniga ega bo'lib unda "0 yolg'on" va "1 rost" hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan amallar quyidagi ko'rinishga ega:

Qo'shish amali.



Elektr sxemasi




Qo'shish amalida kirish signalining ixtiyoriy biri “rost” yoki ikkita kirish ham “rost” bo'lganda chiqish signali ham “rost” bo'ladi.

Ko'paytirish amali.


*

Elektr sxemasi



Ko'paytirish amalida kirish signalining ixtiyoriy biri “yolg'on” bo'lganda chiqish signali ham “yolg'on” bo'ladi, faqat ikkala kirish ham “rost” bo'lganda chiqish “rost” bo'ladi.

Inkor amali.



Bu amal kirish signalini teskarisiga aylantirib berik xususiyatiga ega, “rost” bo'lganda “yolg'on” yoki aksincha.

4. Teng kuchli formulalar va teng kuchli almashtirishlar

Mulohazalar algebrasining ixtiyoriy formulasi o'zining rostlik jadvali bilan xarakterlanadi.

1-misol. $A \rightarrow B \wedge \neg C$ formulaga ushbu rostlik jadvali mos keladi.

A	B	C	$\neg C$	$B \wedge \neg C$	$A \rightarrow B \wedge \neg C$
R	R	R	Yo	Yo	Yo
R	R	Yo	R	R	R
R	Yo	R	Yo	Yo	Yo
R	Yo	Yo	R	Yo	Yo
Yo	R	R	Yo	Yo	R
Yo	R	Yo	R	R	R
Yo	Yo	R	Yo	Yo	R
Yo	Yo	Yo	R	Yo	R

Ta'rif. Agar mulohazalar algebrasining $F_1(A_1 A_2, \dots, A_n)$ va $F_2(A_1 A_2, \dots, A_n)$ formulalari propozisional o'zgaruvchilar mos qiymatlarining barcha naborlarida bir xil qiymat qabul qilsalar, bu formulalarni teng kuchli formulalar deyiladi.

$F_1(A_1A_2, \dots, A_n)$ va $F_2(A_1A_2, \dots, A_n)$ formulalarni teng kuchli ekanligini $F_1(A_1A_2, \dots, A_n) \equiv F_2(A_1A_2, \dots, A_n)$ ko'rinishda yoziladi.

Ta'rifga ko'ra 1- va 2- misollardagi formulalar teng kuchlidir, ya'ni $A \rightarrow B \wedge \neg C \equiv (\neg A \vee B) \wedge \neg(A \wedge C)$.

Mantiqiy amallarning ta'rifidan foydalanib ba'zi teng kuchliliklarni bevosita isbotlash mumkin, masalan;

$$A \wedge B \equiv B \wedge A, \quad A \vee B \equiv B \vee A, \quad \neg \neg A \equiv A, \quad \neg A \wedge A \equiv Y_0, \quad \neg A \vee A \equiv R$$

munosabatlar o'rinlidir.

Ta'rifga ko'ra, formulalarning teng kuchli ekanligini aniqlashning umumiy usuli quyidagicha; Har bir formula uchun rostlik jadvali tuziladi, propozisional o'zgaruvchilarning bir xil naborlarida formulalarning qabul qiladigan qiymatlari solishtiriladi, agar naborlarning barcha mos kombinasiyalarida formulalarning qiymatlari bir xil bo'lsa, bu formulalar teng kuchli bo'ladi.

Quyidagi tengkuchliliklar, mulohazalar logikasining asosiy teng kuchliliklari hisoblanadilar.

1. $A \wedge B \equiv B \wedge A$ /kon'yunksiyaning o'rin almashuvchanligi/.
2. $A \vee B \equiv B \vee A$ /diz'yunksiyaning o'rin almashuvchanligi/.
3. $A \wedge (B \wedge C) \equiv (A \wedge B) \wedge C$ /kon'yunksiyaning assosiativligi/.
4. $A \vee (B \vee C) \equiv (A \vee B) \vee C$ /diz'yunksiyaning assosiativligi/.
5. $A \vee (B \wedge C) \equiv (A \vee B) \wedge (A \vee C)$ /diz'yunksiyaning kon'yunksiyaga nisbatan distributivligi/.
6. $A \wedge (B \vee C) \equiv (A \wedge B) \vee (A \wedge C)$ /kon'yunksiyaning diz'yunksiyaga nisbatan distributivligi/.
7. $A \wedge A \equiv A$ /kon'yunksiyaning idempotentligi/.
8. $A \vee A \equiv A$ /diz'yunksiyaning idempotentligi/.
9. $A \wedge R \equiv A$.
10. $A \vee R \equiv R$.
11. $A \wedge Y_0 \equiv Y_0$.
12. $A \vee Y_0 \equiv A$.
13. $A \wedge \neg A \equiv Y_0$.
14. $A \vee \neg A \equiv R$.
15. $\neg(A \wedge B) \equiv \neg A \vee \neg B$ /de Morgan tengkuchliliklari/.
16. $\neg(A \vee B) \equiv \neg A \wedge \neg B$ /de Morgan tengkuchliliklari/.
17. $A \rightarrow B \equiv \neg A \vee B$ /implikasiyaning inkor va kon'yunksiya bilan ifodalanishi/.
18. $\neg \neg A \equiv A$ /qo'sh inkor tengkuchlilikligi/.
19. $A \leftrightarrow B \equiv (A \rightarrow B) \wedge (B \rightarrow A)$.

Ko'rilgan teng kuchliliklarning har birining o'rinli ekanligini rostlik jadvalarini tuzish yordamida isbotlash mumkin. Bu teng kuchliliklar yordamida, berilgan formulaga teng kuchli formulalarni hosil qilish, berilgan formulalarning teng kuchlilikini aniqlash, formulalarni soddaroq ko'rinishga keltirish, hamda berilgan formulani aynan rost, aynan yolg'on, bajariluvchi ekanligini aniqlash mumkin.

Biz mulohazalar algebrasida formula tushunchasini kiritishda mulohazalar to'plamidan olingan har qanday elementar mulohazaga biror propozisional o'zgaruvchini mos qo'ygan edik. Shu munosabat bilan avval ta'riflarini keltirganimiz, aynan rost, aynan yolg'on va bajariluvchi mulohazalarni, formula tushunchasini qo'llab, mos ravishda aynan rost formula, aynan yolg'on formula, bajariluvchi formula tushunchalari bilan bir xil tushunchalar deb qaraymiz. Shuningdek, formula tushunchasi yordamida ta'riflaganimizda teng kuchli formulalar tushunchasini ham teng

kuchli mulohazalar tushunchasi bilan bir xil deb hisoblaymiz. Umuman mulohazalar algebrasida mulohazalar algebrasining formulasi deganda qandaydir mulohazani nazarda tutamiz.

Har qanday mulohazaga biror formula mos kelishi va formulalar uchun ko'rib chiqilgan teng kuchliliklarni hisobga olib, mulohazalar uchun ham teng kuchliliklarni qo'llash mumkin, ya'ni mulohazani boshqa biror teng kuchli mulohazaga almashtirish, berilgan mulohazalarni teng kuchlilikini aniqlash, murakkab mulohazani aynan rost yoki aynan yolg'on ekanligini aniqlash mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Avtomatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Avtomatlashtirishda kullaniladigan kandy dasturlarni bilasiz?
4. SCADA tizimlari deb kandy tizimlarga aytiladi?
5. CAD tizimlarining vazifalari?
6. Kaysi dasturiy paket sanoatlashgan avtomatlashtirishdagi xar kandy murakkablik darajasiga ega tizimni sintezlash, taxlil kilish va modellashtirish imkonini beradi?
7. Mantiqiy elementlar haqida umumiy tushunchalar bering.
8. Teng kuchli formulalar va teng kuchli almashtirishlarni bayon qiling.
9. Chinlik jadvallari holatlarni bayon qiling.
10. Mantiqiy elementlarni kombinatsion sxemalarda qandy tasvirlanadi.

2 – ma’ruza. AutoCAD dasturi. Umumiy tushunchalar

Reja:

1. AutoCAD tizimi haqida umumiy ma’lumotlar.
2. Foydalanuvchi interfeysi. Uskunalar paneli.
3. AutoCADda chizmalarni boshqarish.
4. AutoCAD tizimida chizmalar chizish usullari.
5. Chizma parametrlarini rostdash.
6. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida sodda chizmalar yaratish.
7. Ob’yektlarni ajratish.
8. Ob’yektlar xossalarini o’zgartirish.
9. Muharrirlash komandalari.
10. Ob’yektlar forma(shakl)larini o’zgartirish komandalari.

1. AutoCAD tizimi haqida umumiy ma’lumotlar.

Bugungi kunda juda ko’plab kompyuter grafik dasturlari mavjud bo’lib, ularni qaysi sohada qollanilishi bilan bir biridan farqlanadi. Har bir soha mutaxassisleri o’z faoliyatlari uchun qulay bo’lgan grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyat chegaralari ham ma’lum bir sohaga yo’naltirilgan bo’ladi. Demak, grafik dasturni tanlashda avvalom bor uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo’llashdan oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni o’zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Shunisi bilan ham grafik dasturlar murakkablashib boradi.

AutoCAD - AQSh Autodesk kompaniyasining avtomatik loyihalash paketi bo’lib, kompyuterli modellashtirish va loyihalash ishlarini sifatli bajarishda, foydalanuvchiga texnikaviy chizmalarni tez va malakali, yuqori darajali aniqlikda ishlab chiqishda, hamda bir vaqtda qog’ozga chiqarish imkoniyatini beradigan tizimdir.

AutoCAD dasturi 1982 yilda yaratilgan bo’lib, u dastlab faqat MS DOS tizimi uchun ishlab chiqilgan edi. 2000 yildan boshlab grafik yasashlarni avtomatlashtirish asosida loyihalash dasturlari mukammal yaratila boshlandi va hozirgi vaqtda Autodesk kompaniyasi AutoCAD tizimini faqat Microsoft Windows uchun ishlab chiqmoqda. Loyihalash ishlarini avtomatlashtirish deganda nimani tushunish kerak? Avvalo grafik yasashlarni grafik dasturlarning imkoniyatlari asosida avtomatik aniq bajarish tushuniladi. Zamonaviy AutoCAD (Auto Computer-Aided Design – komp`yuter yordamida avtomatik loyihalash) tizimi interfeysi komp`yuterning eng zamonaviy vositalari va texnologiyalarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratilganligi bois chizma va sxemalarni, loyihalash masalalarini yuqori sifatda bajarilishini kafolatlaydi. AutoCAD dasturining yaratilganligiga 35 yildan oshgan bo’lsada, avtomatik loyihalash dasturlari orasida hanuzgacha yetakchi o’rinni egallab kelmoqda. Chunki AutoCAD dasturi mukammal va ommabop dastur bo’lib, u har qanday turdagi sxema va chizmalarni yaratishni yuqori aniqlikda va sifatli bajaradi. Shuningdek, mazkur dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to’la amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli, millionlab mutaxassislar, olimlar, muhandis – texniklar va talabalar loyihalash ishlarini avtomatlashtirish sohalarida AutoCAD tizimidan foydalanishlari ommalashib bormoqda.

AutoCAD 2006 dasturi o’rnatiladigan kompyuter ma’lum bir minimal talablarga javob berishi, parametrlarga ega bo’lishi lozim. Ushbu talablarga quyidagilar kiradi:

1. Operatsion sistema.

- WINDOWS XP Professional (sp1 yoki 2)
- WINDOWS XP Home (sp1 yoki 2)
- WINDOWS XP Tablet PC
- WINDOWS 2000 (sp4)

2. Web – brauzer

- Microsoft Internet Explorer 6.0 (sp1 yoki yanada yangi paket)

Izoh: dastur o’rnatilgandan so’ng rasmiylashtirish uchun zarur.

3. Processor

- Pentium IV yoki undan yuqori 1.5 GGts


4. OZU (operativ xotira)
 - 512 MB (tavsiya etiladi)
5. Video
 - 1024X768 VGA, ranglar palitrasi True Color (minimum)
6. Qattiq disk (vinchester)
 - 1 GB o'ringa ega bo'lishi
7. Ko'rsatish qurilmasi
 - Sichqoncha «Trecbol» yoki boshqalar
8. CD – ROM
 - Dasturni o'rnatish uchun, qaysi model bo'lishidan qat'iy nazar zarur

Ushbu ma`ruzada loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning grafik dasturi AutoCAD tizimining imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz.

2. Foydalanuvchi interfeysi. Uskunalar paneli.

AutoCAD ishga tushirilgandan so'ng dastlab, chizma bajarish uchun dastur parametrlari o'rnatilishi lozim. Ushbu parametrlar o'qituvchi tomoidan o'rnatilib, talaba bevosita chizma topshiriqlarini bajara oladigan holatga keltiriladi.

Ish stoli quyidagi tartibda jixozlanishi mumkin:



1-rasm. AutoCAD dasturning bosh oynasi ya'ni loyihalash muhiti.


Ushbu loyihalash muhitining tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

1. Muharrirlanayotgan chizma (fayl) nomi ko'rsatilgan sarlavha;
2. Asosiy menuyu;
3. Asboblarning standart paneli;
4. "Obyektning xususiyati" paneli;
5. "Chizish" paneli;
6. "O'zgartirish" paneli;


7. Muloqotlar paneli (buyruqlar satri);
8. Holatlar satri;
9. Asosiy ishchi maydon;
10. Chizmadagi joriy holatni ko'rsatuvchi kursor (sichqoncha) holati.

AutoCAD 2004 tizimini interfeysi rostdanuvchan bo'lib, uning ko'rinish 1-rasmdagidan farq qilishi mumkin.

AutoCAD ning asosiy menyusiga quyidagilar kiradi:

AutoCAD 2004 tizimi interfeysining birinchi satrida  sarlavha chiqariladi, bu yerda 'Drawing1' muharrirlanayotgan chizma (fayl) nomi, '.dwg' esa fayl kengaytmasidir.

AutoCAD 2004 tizimi interfeysining ikkinchi satrida iyerarxik menyu satri joylashgan (3-rasm) u quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:




1.3-rasm.

1. "Fayl" – fayllar bilan ishlash menyusini;
2. "Redaktirovat" – Windows stolidagi grafik maydon qismlarini taxir qilish menyusini;
3. "Vid" – Ekran ko'rsatgichlarini boshqarishda kerakli asboblarning paneli va boshqa buyruqlarni o'rnatadi;
4. "Vstavka" – ilovadagi va tashqi obektlarni bloklarga qoyishni ta'minlash;
5. "Format" – rang va chiziq turlari, matn holatini va o'lchamini boshqarish, o'lchamlar birligini o'rnatish, chizma chegaralarini aniqlash kabi buyruqlar menyusini;
6. "Instrumenti" – ekranda foydalanishda tizimlarni boshqarish buyruqlari menyusini. Ular yordamida muloqot darchasidan foydalanib, chizma ko'rsatgichini o'rnatish kabi buyruqlar bajariladi;
7. "Risovat" – turli shakllar chizish va hajmini o'zgartirish kabi buyruqlarni bajaradi;
8. "Razmer" – o'lcham ko'rsatgichlarini boshqarish va ularni qoyish buyruqlari ochiladi;
9. "Izmenit" – chizma elementlarini o'zgartirish – chizmani va undagi yozuvlarni tarir qilish buyruqlari ochiladi;
10. "Express" – servis xizmati ko'satish;
11. "Okno" - bir vaqtda foydalanishda bo'lgan axborotlarni fayldan faylga o'tib ularni ochadi;
12. "Spravka" – AutoCAD 2004 dasturi haqida yangi foydalanuvchilar uchun to'liq ma'lumot berilgan.

Standart asboblarning paneli.

Standart asboblarning paneli asosiy menyu ostida joylashgan (4-rasm). Asboblarning standart panelida ko'p ishlatiladigan menyu buyruqlarining chaqirish uchun maxsus tugmachalar joylashtirilgan.




1.4-rasm.

1. "Noviy" - yangi list ochish buyrug' tugmasi;
2. "Otkrit (Ctrl+O)" – mavjud faylni ochish buyrug'i;

3. “Soxranit (Ctrl+S)” - faylni hotirada saqlash buyrug’i;
4. “Pechat (Ctrl+P)” – chizmani qog’ozga chiqarish tugmasi;
5. “Nastroyki pechati”- chizmani chop qilishga tayyorlash;
6. “Publikovat”- DWF formatida chop qilish;
7. “Pomestit v bufer (Ctrl+X)”- chizmadan belgilab olinganlarni – elementlarni buferga kesib olish;
8. “Kopirovat v bufer (Ctrl+C)”- tanlab olingan elementlarni buferga nusxasini olish;
9. “Vstavit iz bufera (Ctrl+V)”- buferdagi nusxani belgilangan o’ringa qoyish;
10. “Uchitivat svoystva”- ob’ekt haqidagi ma’lumotlarni inobatga olish;
11. “Otmenit deystviye”- oxirgi amalni bekor qilish;
12. “Povtorit deystviye”- oxirgi bekor qilingan amalni qayta tiklash;;
13. “Panorama realnogo vremeni”- foydalanuvchiga model fazosini-chizmani qulay joyga siljitish;
14. “Masshtab realnogo vremeni”- ayni vaqtda ko’rinishlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish;
15. “Masshtab okna”- ekran masshtabi;
16. “Prejnyy masshtab”- dastlabki masshtabga qaytish;
17. “Svoystva (Ctrl+1)”- xossalar;
18. “Dizayn-sentr (Ctrl+ 2)”- dizayn – markaz;
19. “Palitri instrumentov (Ctrl+3)”- uskunalar palitrasi;
20. “Spravka”- ma’lumotnoma;
21. “Menedjer stiley teksta”- matn stillari boshqaruvchisi;
22. “Upravleniya stilyami”-stillar bilan boshqarish;
23. “Menedjer stiley razmera”-o’lcham stillari menedjeri;
24. “Stili razmerov”- o’lchamlar stillari;


IV. “Svoystva obyekt”- “Obyektning xususiyati” paneli(5-rasm)



1.5-rasm.

1. “Menedjer svoystv sloya”- qatlam xossalari menedjeri;
2. “Sozdat sloy”- ekranda qatlam yaratish;
3. “Sdelat sloy obyektu tekushim”-ob’ekt qatlamini joriy qatlamga aylantirish;
4. “Predidushiy sloy”- dastlabki (oldingi) qatlam;
5. “Sveta”- tasvirdagi chiziq'larga rang berish;
6. “Tipi liney”- tasvirdagi chiziq'larga tip berish;
7. “Tolshina linii”- tasvirdagi chiziq'larga yo’g’onlik berish;

V. “Risovaniya”- “Chizish” paneli(6-rasm)




1.6-rasm.

1. “Liniya”- chiziq (kesma) chizish tugmasi;
2. “Liniya konstruksii”- to’g’ri chiziq chizish tugmasi;
3. “Poliliniya”- ko’p chiziq chizish tugmasi;
4. “Poligon”- ko’p burchak chizish tugmasi;
5. “Pryamougolnik”- to’rtburchak chizish tugmasi;
6. “Duga”- yoy chizish tugmasi;
7. “Okrujnost”- doira chizish tugmasi;

8. “Region”- soha chizish tugmasi;
9. “Splayn”- egri chiziq chizish tugmasi;
10. “Ellips”- ellips chizish tugmasi;
11. “Ellipsoidnaya duga”- ellipsoid yoy chizish tugmasi;
12. “Vstavit blok”- blokni qoyish tugmasi;
13. “Sdelat blok”- blok yaratish tugmasi;
14. “Tochka”- nuqta qoyish tugmasi;
15. “Shtrix”- kesin va qirqim yuzalarini shtrixlash tugmasi;
16. “Oblast”- 3D ob’ektiga soha ochish tugmasi;
17. “Mnogostrokoviy tekst”- ko’p satrli yozuvlar bajarish tugmasi.

VI. “Izmenit”- “O’zgartirish” paneli (7-rasm)



1.7-rasm.


1. “Steret”- tanlangan ob’ektni o’chirish tugmasi;
2. “Kopirovat obyekt”- ob’ektdan nusxa olib ko’chirish tugmasi;
3. “Otrajeniye”- ob’ektga simmetrik tasvir yasash tugmasi;
4. “Sdvig”- tanlangan ob’ektni siljitish tugmasi;
5. “Massiv”- ob’ektning tasvirini ko’paytirib tasvirlash tugmasi;
6. “Peremestit”- tanlangan ob’ektni ko’chirish tugmasi;
7. “Vrashat”- ob’ektni biror burchakka aylantirish (burash) tugmasi;
8. “Masshtab”- ob’ektning tasvirlarini va o’lchamlarini o’zgartirish tugmasi;
9. “Rastyajeniye”- tanlangan ob’ektni uzaytirish tugmasi;
10. “Obrezka”- ob’ektning ortiqcha qismini kesib tashlash buyrug’ining tugmasi;
11. “Rasshireniye”- tanlangan ob’ektni kengaytirish tugmasi;
12. “Prervat v tochke”- ob’ektni nuqtada uzish tugmasi;
13. “Prervat”- ob’ektni nuqtalar oralig’ida uzish tugmasi;
14. “Faska”- burchak hosil qilib kesishuvchi chiziqning burchagi faskasini olish tugmasi;
15. “Obod”- ob’ektlardagi burchaklarni aylana yoyi yordamida yumoloqlash tugmasi;
16. “Vzorvat(Razorvat)”- ob’ektlarni birlashtiruv qismlarini uzib olib yo’qotish tugmasi.

AutoCAD tizimida grafik dasturlarning elementlarini ularga mos bo’lgan tayyor buyruqlar paketidan foydalanib berilgan o’lchamlarini komp’yuterga kiritib, bevosita muloqotlar ketma-ketligi asosida tasvirlar bajariladi. Bunday buyruqlar tarkibiga loyihalash ishlarini avtomatlashtirish uchun qo’shimcha buyruqlar ham kiritiladi.


3. AutoCADda chizmalarni boshqarish.

Yangi chizmalar yaratishdan oldin mavjud chizmalarni xotiraga yuklash, ushbu chizmani boshqa nom bilan saqlash va AutoCADda ishni yakunlash bilan tanishamiz.

Mavjud chizmani ochish uchun quyidagi usullardan biri qo’llanadi:

- Standart uskunalar panelidagi  (Open-Otkrit) tugmani bosish yordamida;
- File menyu bo’limining Open (File-Open) komandasi yordamida;
- Buyruqlar oynasiga Open komandasini kiritish orqali;
- Ctrl va O klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+O) bosish orqali.

Natijada Select File (Vibor fayla) muloqat oynasi ochiladi (1-rasm).




2.1-rasm.


Ochilgan muloqat oynasidan tegishli fayl tanlanadi, uni xotiraga yuklamasdan oldin chizmaning ko'rinishini oynaning (Prosmotr) qismida ko'zdan kechirish mumkin, buning uchun tanlangan fayl ustida kursor tugmasini bosish etarli.

Tanlangan faylni xotiraga yuklash uchun fayl nomi ustida kusorni ikki marta bosiladi yoki faylni ajratib keyin Open tugmasi bosiladi, natijada tanlangan chizma ekranda namayon bo'ladi.

Chizmani saqlashning bir nechta usullari mavjud:

- Standart uskunalar panelidagi  (Save-Soxranit) tugmani bosish yordamida;
- File menyu bo'limining Save (File- Save) komandasi yordamida;
- Buyruqlar oynasiga Save komandasini kiritish orqali;
- Ctrl va S klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+S) bosish orqali.

Faylni saqlashda sistema chizmani avtomatik ravishda DrawingN nom bilan saqlaydi, bu erda N joriy ish seansidagi chizma nomeri. Chizmani boshqa biror nom bilan saqlash uchun Menyu bo'limining Save Drawing As (Soxraneniye cherteja) bandini tanlaymiz, natijada faylni saqlash muloqat oynasi ochiladi (2-rasm).



2.2-rasm.

File name (Imya fayla) satriga chizma uchun tanlangan nomni kiritamiz va Save (Soxranit) tugmasini bosamiz, natijada fayl tashqi xotirada saqlanadi.

AutoCAD dasturidan chiqishning quyidagi usullari mavjud:


- File- Exit (Fayl-Vixod);
- Alt+F4 yoki Ctrl +Q;
- Komandalar oynasiga QUIT (Pokinut) yoki EXIT (VIXOD) buyruqlari yordamida;
- AutoCAD dasturining tizimli tugmasini yopish orqali.

4. AutoCAD tizimida chizmalar yaratish usullari.


2.1. Shablon yordamida chizma yaratish.

AutoCAD dasturida har qanday chizma shablon (template) asosida yaratiladi. Chizma tayyorlash jarayonida ushbu shablonlardan foydalanish mumkin, bu loyihalash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Yangi chizma yaratishning bir nechta usullari mavjud:

- Standart uskunalarning panelidagi  (New-Sozdat) tugmani bosish yordamida;
- File menyu bo'limining New (File- New) komandasi yordamida;
- Buyruqlar oynasiga New (Sozdat) komandasini kiritish orqali;
- Ctrl va N klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+N) bosish orqali.

Natijada Select template (Vibor shablona) muloqat oynasi ochiladi(3-rasm).




2.3-rasm.

Yangi chizma yaratish uchun taqdim etilgan shablonlar royxatidan keraklisi tanlab olinadi va chizma sohasiga yuklandi.

5. Chizma parametrlarini rostdash.

3.1. Yangi qatlamlar yaratish.

AutoCADda yaratiladigan chizmalar qatlamlar ko'inishida amalga oshiriladi. Har bir qatlam umumiy chizmani bir qismini tashkil qiladi. Qatlamlar tizimini yaratish/rostdash uchun Format\Layer(Format/Sloy...) komandasi va Layer & Linetype Properties(Menedjer Svoystv Sloya) muloqat oynasidan foydalaniladi(4-rasm).



2.4-rasm.

Muloqat oynasida quyidagi komandalardan foydalanish imkoniyati mavjud:

- New(Noviy) – yangi qatlam yaratish;
- Delete(Udalit) _ mavjud qatlamni yo'qotish.

Yangi qatlam yaratilayotganda yoki muloqat panelining Details(Podrobnosti) blokida mavjud bo'gan parametrlarni o'zgartirishda quyidagilarni ko'rsatish zarur:

- qatlam nomini(Name-Imya);
- qatlamning joriy rangi (Color-Svet);

- qatlam chizig'ining joriy tipi(Linetype-Tip Linii);
- qatlam xarakteristikasi.


Details blokida qatlamning quyidagi xarakteristikasi ko'rsatiladi:

- qatlam qo'shilgan(On); qatlam ko'rinmas holatda(o'chrilgan);
- muzlatilgan-zamorojen (Freeze in all viewports); muzlatilgan qatlam ko'rinmas holatda va undan foydalanish mumkin emas ya'ni uni taxrirlab bo'lmaydi;
- qatlam yopilgan(Lock); yopilgan qatlam ko'rinarli holatda lekin uni taxrirlab bo'lmaydi.

Qatlam bir-biriga bog'lik bo'lmagan holda qo'shilish/o'chrilish, taxrirlanisi mumkin. Tayin vaqtda faqat bitta qatlam-joriy qatlam bilan ishlash mumkin. Joriy qatlamni rostlash (nastroyka) jarayonida tanlash mumkin. Buning uchun muloqat panelining Current tugmasidan foydalaniladi.


Tahrirlash bosqichida qatlam xarakteristikalarini o'zgartirish uchun ob'ektlarning xossalar satridan foydalaniladi. Hossalar satrida qatlamlar ro'xati joylashgan bo'lib, bunda joriy qatlam rang bilan ajralib turadi. Kerakli qatlamni joriy qatlam qilish uchun uni kursor yordamida tanlash kerak.

3.2. Ob'ektning joriy rangini rostlash.




2.5-rasm.

3.3. Chiziqning joriy tipini rostlash.




2.6-rasm.

3.4. Chiziqning joriy qalinligini rostlash.



2.7-rasm.

3.5. O'lchov birligini roslash.




2.8-rasm.

6. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida soda chizmalar yaratish.


4.1. Ekranda AutoCAD dasturida biror kesma chizish buyrug'i quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1. "Liniya"- kesma chizish tugmasi yuklangach, muloqotlar darchasida "Boshlang'ich nuqtani kiriting" so'rovi paydo bo'ladi (9-rasm).



2.9-rasm.


Unga javoban kesmani dastlabki nuqtasining (x1,y1) koordinatalarini terib yoki "Sichqon" yordamida kursor nishoni bilan ixtiyoriy (x1i,y1i) koordinatalar kiritiladi. Shunda navbatdagi, "Keyingi nuqtani kiriting" so'rovi paydo bo'ladi (_10-rasm).



2.10-rasm

2. Bu so'rovga ham dastlabki nuqtaning koordinatalarini kiritgan kabi, (x_2, y_2) yoki (x_{2i}, y_{2i}) koordinatalari kiritiladi va ekranda kesma paydo bo'ladi (11-rasm).

Muloqotlar darchasida yana ikkinchi to'g'ri chiziqni chizish uchun navbatdagi nuqtasini kiritishni so'raydi. Bunday nuqtalarni ketma-ket kiritib, ko'plab kesmalarni hosil qilish mumkin. Kesma chizish buyrug'dan chiqish uchun "Enter" yoki "Esc" tugmasini ketma-ket ikki marta yuklash kerak.




2.11-rasm

Ikkinchi va uchunchi kesmalarni o'tkazgach, keyingi so'rovda, qavs ichida "Close"- "Zamkni" – "Birlashtir" yoki "Undo"- "Otmeni" – "Bekor qil" qo'shimcha buyruqlari paydo bo'ladi (12-rasm).

"Close"- "Zamkni" – "Birlashtir" so'zining bosh harfini "C" ni terib, "Enter" yuklansa, oxirgi kesma uchi birinchi kesmaning boshlang'ich nuqtasi bilan birlashib qoladi. "Undo"- "Otmeni" – "Bekor qil" so'zining bosh harfini "U"ni terib, "Enter" bilan qayd etilsa, oxirgi chizilgan kesma ekrandan yo'qoladi. Bunday amallarni ketma-ket bajarib, bir buyruqda chizilgan kesmalarni birin – ketin ekrandan o'chrish ham mumkin.

Ekranda tasvirlangan chizmalarni va kesmalarni yo'qotish uchun ularni bitta-bitta kursor bilan "Sichqon" yordamida ajratib olinadi va "Delete" yoki "Enter" tugmasi bosiladi.



2.12-rasm

Agar ekranda chiziqlar ko'p bo'lsa, kursorni ekranning biror burchagiga keltirib, "Sichqon"ni chap tugmasi bosilib, uni ikkinchi qarama-qarshi burchagiga diagonal chiziq boylab suriladi. Natijada kattalashib boruvchi to'g'ri to'rtburchak paydo bo'ladi. "Sichqon" tugmasini ikkinchi maratoba yuklab, barcha chiziqlar yoki tasvirlar ajratiladi, ular shtrix chiziqlar ko'rinishida, ko'k rangda tasvirlanib qoladi.


"Enter" yoki "Delete" tugmasi bosilib, barcha chiziqlar ekrandan yo'qotiladi. Bunda hosil bo'ladigan ajratish to'g'ri to'rtburchaklari o'ng tomondan boshlansa, ular shtrix chiziq bilan

tasvirlanib, uning sohasiga biror uchi kirib qolgan chiziqlarni ham ekrandan yo'qotish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar u chap tomondan ochilsa, to'g'ri to'rtburchak tutash chiziqlar bilan tasvirlanib, u faqat shu to'rtburchak sohasida hamma nuqtalari bilan joylashgan chiziqlarnigina ekrandan yo'qatadi.

4.2. Ekranda kesmani yangi vaziyatga keltirish amali va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo'ladi


1. Kesma ajratiladi: kursorning "+" nishoni "Sichqon" yordamida kesmaga keltiriladi va yuklanadi.
2. Kursorni kesmaning biror uchidagi kvadrat nishoncha bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chiriladi va qayd etiladi (13-rasm). Natijada kesma yangi vaziyatga kelib qoladi.
3. Agar kesma o'rtasida joylashgan kvadrat nishonni kursor bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chirilib qayd etilsa, kesmsning yangi vaziyati, dastlabki berilgan vaziyatga parallel holda tasvirlanib qoladi.




2.13-rasm


4.3. Kesmaga rang berish buyrug'i va foydalanish algoritmi quyidagich bo'ladi

1. Kesma ajratiladi:

2.  Birinchi "ByLayer" (po sloyu) rang tugmasi yuklanadi: Shunda standart ranglar royxatini taklif qiluvchi darcha paydo bo'ladi (14-rasm). Agar ulardan bo'lak boshqa rang tanlash kerak bo'lsa, "Drugoye" tugmasi yuklanadi va boshqa ranglarni o'ziga jamlagan "Rang tanlash" darchasi paydo bo'lib, unda jamlangan turli xildagi ranglar taklif qilinadi (15-rasm).



2.14-rasm





2.15-rasm

Bu darchadan tanlangan rangni kursor yordamida yuklanadi va ketma-ket ikkita marta "Ok" tugmasi yuklanib, uni standart ranglar royxatiga o'tkaziladi. Shunda "ByLayer" o'rni yangi rang nomerini yozuvi paydo bo'ladi.

So'ngra "Esc" tugmasini ikki marta ketma-ket yuklansa, kesma chizig'i yangi rangda tasvirlanib qoladi. Agar rang tugmasidagi yozuv yangi rang yozuvi bilan qoldirilsa, keyingi chiziladigan kesmalar va chiziqlar tanlangan rangda chiziladi. Bu rangdan chiqish uchun u yuklanadi va ranglar royxatidan "ByLayer" tugmasi yuklanadi.


4.4. Kesmani chiziq turlariga muvofiq chizish buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

1.  Ikkinchi “ByLayer” (Tipi linii) chiziq turlari tugmasi yuklanadi. Bu buyruqdagi chiziq turlarini royxati taklif etiladi (16-rasm). Agar chiziqlarning boshqa turlari kerak bo’lsa, ro’xatning eng pastida joylashgan “Drugoye” tugmasi yuklanadi.



2.16-rasm

Shunda ekranda “Chiziq turini menedjeri”ning darchasi paydo bo’ladi. Undagi yuqori o’ng tomonda joylashgan “Zagruzit” qushimcha buyrug’i yuklanadi. Natijada darcha o’rtasida kompyuterga kiritilgan chiziq turlarining nomi va tasviri taklif etiladi (17-rasm).





2.17-rasm

2. Undan istalgan chiziq turini, masalan, “DoshdOOT” yoki “Doshdoot2” sichqon bilan yuklanadi va “Ok” tugmasi bosiladi. Shunda derazani dastlabgi ko’rinishi paydo bo’ladi va yana undagi “Ok” tugmasi yuklanadi.
3. Kesma ajratiladi.
4. “ByLayer” – chiziq turlari tugmasi yuklanadi va royxatdan chiziq turi tanlanib yuklanadi va ekrandagi ajratilgan kesma tanlangan chiziq turida chizilib qoladi.

4.5.Chiziqni yo’g’onlashtirish algoritmi buiyrug’i va undan foydalanish algoritmi

- Kesma ajratiladi;

-  Uchinchi “ByLayer” (po sloyu) chiziq yo’g’onligi – “Veslin” tugmasi yuklanadi: kompyuterga kiritilgan yog’onliklar royxatining darchasi paydo bo’ladi (18-rasm) ulardan birortasi tanlab yuklnadi;



2.18-rasm


- Ekranda chiziqning yo’g’onligini aniqlash uchun holatlarni boshqarish qatoridagi “Veslin” tugmasi yuklanadi.

Shunda kesma chizig’i tanlab olingan yo’g’onlikda tasvirlanib qoladi. Agar tanlab olingan yo’g’onlik qiymati uchinchi “ByLayer” so’zi o’rnida yozilgan bo’lsa keyingi, chiziladigan chiziqlar yo’g’onligi tanlab olingan yo’g’onlikda chiziladi.

Bu yo’g’onlikdan chiqish uchun tanlab olingan yo’g’onlik yuklanadi va royxatdan “ByLayer” so’zi yuklanadi. Natijada ekrandagi chiziqlar kompyuterda o’rnatilgan standart yo’g’onlikga o’tib qoladi.

7. Ob’ektlarni ajratish.

Muharrirlash komandalari mavjud ob’yektlarning forma(shakl)larini, joylashish holatini, rangini, chiziq tipi kabi va boshqa xarakteristikalarini o’zgartirishga mo’ljallangan. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo’lish mumkin: nisbatan soda bo’lgan muharrirlash komandalari (nusxa olish, o’ektni burish, ob’ektni bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish va h.k.z.) va ob’ektlar ustida murakkam o’zgartirishlar bajaradigan (chiziqlarni tutashtirish-sopryajenie, tirajirovanie va boshqalar) komandalar. Muharrirlash komandalari O’zgartirish (Izmenit) menyusida jamlangan \Modify\.



4.1-rasm

1. “Steret”- tanlangan ob’ektni o’chirish tugmasi;
2. “Kopirovat obyekt”- ob’ektdan nusxa olib ko’chirish tugmasi;
3. “Otrajeniye”- ob’ektga simmetrik tasvir yasash tugmasi;
4. “Sdvig”- tanlangan ob’ektni siljitish tugmasi;
5. “Massiv”- ob’ektning tasvirini ko’paytirib tasvirlash tugmasi;
6. “Peremestit”- tanlangan ob’ektni ko’chirish tugmasi;
7. “Vrashat”- ob’ektni biror burchakka aylantirish (burash) tugmasi;
8. “Masshtab”- ob’ektning tasvirlarini va o’lchamlarini o’zgartirish tugmasi;
9. “Rastyajeniye”- tanlangan ob’ektni uzaytirish tugmasi;
10. “Obrezka”- ob’ektning ortiqcha qismini kesib tashlash buyrug’ining tugmasi;
11. “Rasshireniye”- tanlangan ob’ektni kengaytirish tugmasi;
12. “Prervat v tochke”- ob’ektni nuqtada uzish tugmasi;
13. “Prervat”- ob’ektni nuqtalar oralig’ida uzish tugmasi;
14. “Faska”- burchak hosil qilib kesishuvchi chiziqlarning burchagi faskasini olish tugmasi;
15. “Obod”- ob’ektlardagi burchaklarni aylana yoyi yordamida yumoloqlash tugmasi;

16. “Vzorvat(Razorvat)”- ob’ektlarni birlashtiruv qismlarini uzib olib yo’qotish tugmasi

Muharrirlash komandalarini ishga tushirishning nisbatan qulay usuli bu Modify (O’zgartirish/Izmenit) uskunalar paneli hisoblanadi.

6. Ob’ektlar xossalarini o’zgartirish.

Ob’ektlarni ajratish uchun barcha boshqa komandalar nafaol bo’lish kerak. Videlyat obyektini mojnoga togda, kogda ni odna drugaya komanda ne aktivna. AutoCAD ob’ektlarni ajratish pejimida yoki pejimida emasligini komandalar satrini holatidan aniqlash mumkin. Komanda satrida faqat buyruqlarni kiritish taklifi bo’lish kerak(Command:).

Ajratish uchun ob’ekt konturida sichqoncha chap tugmasini bosish kerak. Ikkinchi va undan keyingi ob’ektlar ham shunday tarzda ajratiladi. Bunda oldin ajratilgan ob’ektlardan, ajratilganlik holati bekor qilinmaydi.

Bundan tashqari ob’ektlar guruhini ramkaga olish orqali ham bajarish mumkin. Drugoy sposob videleniya gruppi obyektov - eto videleniye ramkoy. Dlya etogo neobxodimo v rejime videleniya ukazat mishyu koordinati dvux uglov pryamougolnika. Vse obyekt, polnostyu popavshiye v ramku, budut videleni.

Ob’ektlardan ajratilganlikni bekor qilish ESC tugmasini bosish orqali bajariladi.

Diqqat! Agar muharrirlash komandasi ishga tushirilgan bo’lsayu, biroq ajratilgan ob’ektlar bo’lmasa, u holda AutoCAD oldin kerakli ob’ektlarni ajratishni taklif qiladi. Bunday xolda komanda ENTER tugmasini bosgandan keyin o’z ishini boshlaydi.

Sichqoncha yordamida ob’ektlarni tezkor o’zgartirish.

Muharrirlashning eng muhim komandalarida biri, ob’ektlarni yo’qotish komandasini hisoblanadi. Ajratilgan ob’ekt DELETE tugmasini bosish bilan yo’qatiladi. DELETE tugmasi \Modify\Erase komandasini vazifasini bajaruvchi tezkor klavisha hisoblanadi.

Ekranda tasvirlangan chizmalarni va kesmalarni yo’qotish uchun ularni bitta-bitta kursor bilan “Sichqon” yordamida ajratib olinadi va “Delete” yoki “Enter” tugmasi bosiladi.


Agar ekranda chiziqlar ko’p bo’lsa, kursorni ekranning biror burchagiga keltirib, “Sichqon”ni chap tugmasi bosilib, uni ikkinchi qarama-qarshi burchagiga diagonal chiziq boylab suriladi. Natijada kattalashtirib boruvchi to’gri to’rtburchak paydo bo’ladi. “Sichqon” tugmasini ikkinchi maratoba yuklab, barcha chiziqlar yoki tasvirlar ajratiladi, ular shtrix chiziqlar ko’rinishida, ko’k rangda tasvirlanib qoladi.

“Enter” yoki “Delete” tugmasi bosilib, barcha chiziqlar ekrandan yo’qotiladi. Bunda hosil bo’ladigan ajratish to’gri to’rtburchaklari o’ng tomondan boshlansa, ular shtrix chiziq bilan tasvirlanib, uning sohasiga biror uchi kirib qolgan chiziqlarni ham ekrandan yo’qotish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Agar u chap tomondan ochilsa, to’gri to’rtburchak tutash chiziqlar bilan tasvirlanib, u faqat shu to’rtburchak sohasida hamma nuqtalari bilan joylashgan chiziqlarnigina ekrandan yo’qatadi.

Ob’ekt ajratilgandan keyin sichqoncha yordamida uning shaklini o’zgartirish mumkin. Buning uchun ob’ekt(kesma) ajratiladi: ya’ni, kursorning “+” nishoni “Sichqon” yordamida kesmaga keltiriladi va yuklanadi. Kursorni kesmaning(ob’ekt konturi) biror uchidagi kvadrat nishoncha bilan bog’lab, istalgan joyga ko’chiriladi va qayd etiladi (4.2-rasm). Natijada kesma(ob’ekt konturi) yangi vaziyatga kelib qoladi.


Agar kesma(ob’ekt konturi) o’rtasida joylashgan kvadrat nishonni kursor bilan bog’lab, istalgan joyga ko’chirilib qayd etilsa, kesmasining yangi vaziyati, dastlabki berilgan vaziyatga parallel holda tasvirlanib qoladi.



4.2-rasm.

Amalda yuqorida bajarilgan amallar \Modify\Stretch komandalarni ishga tushishiga olib keladi. Bitta ajratilgan ob'ekt uchun \Modify\Move komandalar bajariladi. Demak ob'ekt holatini ob'ekt konturidagi markaziy markerni sichqoncha bilan ushlab sudrash orqali o'zgartiriladi.

Chizmadagi har qanday ob'ektning parametrlarini \Modify\Properties komandalari yordamida o'zgartirish mumkin:



4.3-rasm.

1. "Menedjer svoystv sloya"- qatlam xossalari menedjeri;
2. "Sozdat sloy"- ekranda qatlam yaratish;
3. "Sdelat sloy obyekt tekushim"-ob'ekt qatlamini joriy qatlamga aylantirish;
4. "Predidushiy sloy"- dastlabki (oldingi) qatlam;
5. "Sveta"- tasvirdagi chiziq'larga rang berish;
6. "Tipi liney"- tasvirdagi chiziq'larga tip berish;
7. "Tolshina linii"- tasvirdagi chiziq'larga yo'g'onlik berish;

Modify muloqat panelida, ajratilgan ob'ektning barcha asosiy parametrlari o'zgartirish uchun imkoniyat mavjud. Har bir ob'ekt tipi uchun muloqat paneli ko'rinishi individual bo'ladi. Misol tariqasida Modify Text paneli ko'rinishini ko'rib chiqamiz (4.4-rasm).


Properties bloki chizmadagi ixtiyoriy ob'ektlarni xossalarni muharrirlashda bir xil tipli bo'ladi. Bu erda ob'ektning rangi (Color), qatlami (Layer), chiziq'lar tipi (Linetype) o'zgaradi, shuningdek chiziq'larning qalinligi (Thickness) va chiziqning umumiy masshtab koeffitsienti o'zgaradi (Linetype scale).

Text blokida matn satrini muharrirlash mumkin. Bundan tashqari, matn stilini rostdashda o'rnatilgan diyarli barcha parametrlarni o'zgartirish imkoniyati mavjud: jumladan, qo'llanilayotgan stilni (Style), balandligini (Height), enini (Width factor), simvollar og'ishini (Obliquing), satr burilishini (Rotation), tekislash turini (Justify) va boshqalar.



4.4-rasm.

Origin bloki ham barcha ob'ektlarning xossalarini muharrirlashda tipik hisoblanadi. Bu yerda ob'ektning joylashish nuqtalari koordinatalari ko'rsatiladi. Nuqta koordinatalarini klaviatura yordamida (maydon X, Y, Z) yoki sichqoncha yordamida, Pick Point tugmani bosish orqali kiritish mumkin. 4.5-rasmda kesma parametrlarini muharrirlashga mo'ljallangan Modify Line muloqat paneli ko'rsatilgan. Uni Modify Text muloqat panelidan farqi kesma uchi koordinatasi bilan ishlashga mo'ljallangan To Point blokidir(4.4-rasm).



4.5-rasm

9. Muharrirlash komandalari;

Muharrirlash komandasini muharrirlashga mo'ljallangan ob'ektni ajratishdan oldin yoki keyin ham ishga tushirish mumkin. Shunga ko'ra muharrirlash qadamlari ketma-ketliga turlicha bo'ladi. Quyida ob'ekt ajratilmagan hol uchun muharrirlash komandalar tavsifi keltirilgan. Agar oldindan ob'ekt ajratilgan bo'lsa, u xolda komandalarni bajarilishi vaqtida ob'ektni tanlash bosqichi qatnashmaydi.

Quyidagi muharrirlash komandalaridan foydalanish mumkin:

1. Ob'ektlarni o'chirish

\Modify\Erase

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

O'chiriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi; ENTER(Delete) tugmasi bosiladi.

2. Ob'ektdan nusxa olish

\Modify\Copy

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Nusxa olinadigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi; ENTER tugmasi bosiladi.

<Base point or displacement\Multiple>

oldin tayanch nuqtani koordinatasi ko'rsatiladi, so'ngra uning yangi o'rni ko'rsatiladi; M – to'lamiy nusxalash rejimi.

Izoh: to'plamiy nusxa olishda bir yo'la ob'ektning bir nechta nusxasi olinadi, ish ENTER tugmani bosish bilan yakunlanadi.

3. Ko'zgu li akslantirish

\Modify\Mirror

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Ko'zgu li akslanishi quriladigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi;

ENTER tugmani bosish bilan yakunlanadi.

First point of mirror line

birinchi nuqtani koordinatasi ko'rsatilsin,

Second point

unga nisbatan ko'zgu li akslanadigan chiziqning ikkinchi nuqtasini koordinatasi ko'rsatilsin.

Delete old objects? <N>

Y – agar original ob'ekt o'chirilsa; N – agar ob'ekt o'chirilmasa.

4. O'xshash ob'ektni chizish

\Modify\Offset

Komanda satridagi so'rov:

Command: Offset distance or Through

o'xshash ob'ekt uchun siljish(smasheniye) ko'rsatiladi (odatda klaviatura orqali);

Select object to offset

original sifatida faqat bitta ob'ekt tanlanadi; agar ob'ekt tanlangan bo'lmasa, u xolda

ENTER bosiladi, komanda o'z ishini yakunlaydi.

Side of offset?

sichqon yordamida originalga nisbatan o'xshash ob'ektlar quriladigan yo'nalish ko'rsatiladi.

5. Ob'ektlarni ko'chirish

\Modify\Move

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

K'chiriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi;

ENTER tugmasi bosiladi.

Base point or displacement

oldin tayanch nuqtani koordinatalari ko'rsatiladi;

Second point of displacement

tayanch nuqtani yangi joydagi koordinatalari ko'rsatiladi.

6. Ob'ektlarni burish

\Modify\Rotate

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Buriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi;

ENTER tugmasi bosiladi.

Base point

tayanch nuqtaning koordinatalari ko'rsatiladi -burilish markazi ko'rsatiladi;

<Rotation angle>\Reference

burilish burchagi ko'rsatiladi(graduslarda); R – havoladan foydalanib burilish.

7. Masshtabni o'zgartirish

\Modify\Scale

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Masshtablanadigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi; ENTER tugmasi bosiladi.

Base point tayanch nuqtaning holati ko'rsatiladi.

<Scale factor>\Reference masshtab koeffitsienti ko'rsatiladi (1 sootvetstvuet 100%); R – qiyosiy masshtablashtirish.

10. Ob'ektlar forma(shakl)larini o'zgartirish komandalari.

\Modify, menyuda mujassamlashgan komandalar guruhi ob'ertladni ng forma va o'lchamlarini murakkab o'zgartirishga mo'ljallangan. Ushbu komandalarni bajarishda taxrirlanadigan ob'ektlarni oldindan tanlash shart emas.

Quyidagi komandalaridan foydalanish mumkin:

1. Ko'paytirish(Tirajirovaniye)

\Modify\Array

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Ko'paytiriladigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi; ENTER bosiladi.

Rectangular or Polar array (<R>/P)

R – to'g'riburchakli to'r boyicha ko'paytirish pejimini tanlash; P – aylana konturi boyicha ko'paytirish pejimini tanlash.

To'g'riburchakli to'r boyicha joylashtirish rejimi tanlanganda, quyidagi amallar bajariladi:

Number of rows

to'g'riburchakli to'rni satrlar soni ko'rsatiladi,

Number of columns

to'g'riburchakli to'rni ustunlar soni ko'rsatiladi,

Unit cell or distance between rows

to'r satrlari orasidagi masofa, quyidan yuqoriga yunalish musbat hisoblanadi,

Distance between columns


to'r ustunlari orasidagi masofa, chapdan o'ngga yunalish musbat hisoblanadi.

Aylana boylab joylashtirish rejimini tanlanganda quyidagi amallar bajariladi:


Base\<Specify center point of array> aylanani markaziy nuqtasi ko'rsatiladi,
 Number of items originalni ham hisobga olganda tirajdagi elementlar soni,
 Angle to fill <360> tirajlanayotgan ob'ektlar bilan to'ldirish uchun yoy burchagi ko'rsatiladi;
 burchak ngraduslarda beriladi.

Rotate objects as they are copied? Y - burish bajariladi; N – burish bajarilmaydi.

Izoh: ajratilgan ob'ektlarni ko'paytirish (tirajirovaniye) tanlangan kontur boyicha bajariladi (to'g'riburchakli to'r yoki aylana boyicha). 4.6 -rasmda aylanalarni to'g'riburchakli to'r boyicha va to'rtburchaklarni aylana yoyi boyicha ko'paytirish amallari natijalari keltirilgan.



4.6-rasm



4.7-rasm.

2. Ob'ektning biror qismini berilgan chegara boyicha qirqish

\Modify\Trim

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select cutting edges

"kesuvchi" ob'ekt tanlanadi va ENTER tugmasi bosiladi.

Select object to trim

"kesiluvchi" ob'ekt tanlanadi va ENTER tugmasi bosiladi.

Izoh: ob'ekt bir vaqtning o'zida kesuvchi hamda kesiluvchi bo'lishi mumkin.

4.7.-rasmda Trim amalini bajarilish natijasi keltirilgan.

3. Ob'ektni tarkibiy qismlarga ajratish

\Modify\Break

Komanda satridagi so'rov:

4. Command: Select object

Qisamlarga bo'lish uchun ob'ekt tanlash; ob'ekt tanlangan nuqta, uzish nuqtasi hisoblanadi.

Enter second point (or F for first point)

ikkinchi nuqtaning koordinatasini kiritish zarur; agar birinchi va ikkinchi nuqtalarni koordinatalari ustma – ust tushmasa, ob'ektning nuqtalar orasida yotgan qismi olib tashlanadi(4.8-rasm); F – birinchi uzilish nuqtani tanlashni takrorlash.

Ko'rsatilgan chegaragacha ob'ektni cho'zish

\Modify\Extend

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select boundary edge

vibor obyekt, do granitsi kotorogo neobxodimo vityanut drugoy obyekt.

Select object to extend

vibor toy chasti obyekt, kotoraya doljna bit vityanuta. Komanda zavershayetsya povtornim najatiyem ENTER.

Izoh: komandu udobno ispolzovat dlya tochnogo sopryajeniya obyektov. Na ris. 4.9 priveden rezultat primeneniya komandi.



5. Faskalarni yo'qotish (ikkita kesishuvchi kesmalarni kesish)

\Modify\Chamfer

Komanda satridagi so'rov:

Command: Polyline\Distance\Angle\Trim\<Select first line>

birinchi chiziqni ko'rsatish; D – birinchi va ikkinchi chiziqlar faskalar uzunligi ; P – poliliniyani kesish burchaklari.

Second line

ikkinchi chiziqni ko'rsating.

Agar D variant tanlangan bo'lsa:

Enter first chamfer distance

birinchi chiziq bo'cha faska uzunligi beriladi,

Enter second chamfer distance

ikkinchi chiziq bo'cha faska uzunligi beriladi.

Agar P variant tanlangan bo'lsa:

Select 2D polyline

sichqon bilan poliliniya tanlanadi.

Izoh: komandalar odatda ikki bosqichda bajariladi. Birinchi ishga tushganda faskalar o'lchamlari qoyiladi. Ikkinchi ishga marta tushirilganda burchaklardan faskalar olib tashlanadi. Poliliniyalar oldindan \Draw\Polyline komanda bilan yaratiladi. 4.10-rasmda Chamfer komanda ishi natijalari keltirilgan.

6. Bir ob'ektdan boshqasiga silliq o'tishni (skrugleniya) bajarish \Modify\Fillet

Komanda satridagi so'rov:

Command: Polyline\Radius\:\Select first object

silliq o'tishni bajarish uchun birinchi ob'ektni ko'rsatish; R – dumoloqlanish radiusini ko'rsatish; P – poliliniyani dumoloqlanishi.

Select second object

silliq o'tishni bajarish uchun ikkinchi ob'ektni ko'rsatish.

Agar R variant tanlangan bo'lsa:

Enter fillet radius

dumoloqlanish radiusi beriladi.

Agar P variant tanlangan bo'lsa:

Select 2D polyline

burchaklarni dumoloqlash uchun sichqon bilan poliliniya tanlanadi.

Izoh: Ushbu komanda ham ikki bosqichda bajariladi. Birinchi marta ishga tushirilganda dumoloqlanish radiusi tayinlanadi. Ikkinchi marta ishga tushirilganda esa aynan dumoloqlashtirish amalgam oshiriladi. Poliliniyalar oldindan \Draw\Polyline komanda bilan yaratilgan bo'lishi lozim. 4.11-rasmda ikki kesmada silliq o'tishni qurish natijasi keltirilgan.



NAZORAT SAVOLLARI:

1. AutoCAD tizimi haqida umumiy ma'lumotlar aytib bering.

2. Foydalanuvchi interfeysi. Uskunalar paneli. bayon qiling.
3. Obyektning xususiyati paneli.
4. O'zgartirish" paneli.
5. AutoCADda chizmalarni boshqarish;
6. AutoCAD tizimida chizmalar chizish usullari;
7. Chizma parametrlarini rostdash;
8. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida soda chizmalar yaratish.
9. Ob'ektlarni ajratish;
10. Ob'ektlar xossalarini o'zgartirish;
11. Muharrirlash komandalari;
12. Ob'ektlar forma(shakl)larini o'zgartirish komandalari.

3–ma’ruza.

Matlab dasturiy paketi. Matlab dasturida arifmetik ifodalarni kiritish. Matlab dasturlash elementlari va ular bilan ishlash

Reja:

1. MathCAD va Maple tizimi imkoniyatlari va uning interfeysi
2. MATLAB tizimi imkoniyatlari va uning interfeysi
3. MATLAB dasturlash tili alifbosi va oddiy arifmetik amallar.
4. MATLAB buyruqlari. Standart funksiyalar
5. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar
6. Massiv tushunchasi.
7. Arifmetik va matritsaviy amallar bilan ishlash.


1. MathCAD va Maple tizimi imkoniyatlari va uning interfeysi. MathCAD

Zamonaviy kompyuter matematikasi matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun butun bir birlashtirilgan dasturiy tizimlar va paketlarni taqdim etadi. Bu tizimlar ichida Mathcad oddiy, yetarlicha qayta ishlangan va tekshirilgan matematik hisoblashlar tizimidir.

Umuman olganda Mathcad – bu kompyuter matematikasining zamonaviy sonli usullarini qoʻllashning unikal kolleksiyasidir. U oʻz ichiga yillar ichidagi matematikaning rivojlanishi natijasida yigʻilgan tajribalar, qoidalar va matematik hisoblash usullarini olgan.

Mathcad paketi muxandislik hisob ishlarini bajarish uchun dasturiy vosita boʻlib, u professional matematiklar uchun moʻljallangan. Uning yordamida oʻzgaruvchi va oʻzgarmas parametrli algebraik va differentsial tenglamalarni yechish, funksiyalarni tahlil qilish va ularning ekstremumini izlash, topilgan yechimlarni tahlil qilish uchun jadvallar va grafiklar qurish mumkin. Mathcad murakkab masalalarni yechish uchun oʻz dasturlash tiliga ham ega.

Mathcad interfeysi Windowsning barcha dasturlari interfeysiga oʻxshash. Mathcad ishga tushirilgandan soʻng uning oynasida bosh menyu va uchta panel vositasi chiqadi: Standart (Standart), Formatting (Formatlash) va Math (Matematika). Mathcad ishga tushganda avtomatik ravishda uning ishchi hujjat fayli Untitled 1 nom bilan ochiladi va unga Workshet (Ish varagʻi) deyiladi. Standart (Standart) vositalar paneli bir necha fayllar bilan ishlash uchun buyruqlar toʻplamini oʻz ichiga oladi. Formatting (Formatlash) formula va matnlarni formatlash boʻyicha bir necha buyruqlarni oʻz ichiga oladi. Math (Matematika) matematik vositalarini oʻz ichiga olgan boʻlib, ular yordamida simvollar va operatorlarni hujjat fayli oynasiga joylashtirish uchun qoʻllaniladi. Quyidagi rasmda Mathcadning oynasi va uning matematik panel vositalari koʻrsatilgan (1- rasm):



1-rasm. Mathcad paketi oynasi va uning matematik panel vositalari.


Calculator (Kalkulyator) – asosiy matematik operatsiyalar shabloni; Graph (Grafik) – grafiklar shabloni; Matrix (Matritsa) – matritsa va matritsa operatsiyalarini bajarish shabloni; Evluation (Baholash) – qiymatlarni yuborish operatori va natijalarni chiqarish operatori; Colculus (Hisoblash) – differentsiallash, integrallash, summani hisoblash shabloni; Boolean (Mantiqiy operatorlar) – mantiqiy operatorlar; Programming (Dasturlashtirish) – dastur tuzish uchun kerakli modullar yaratish operatorlari; Greek (Grek harflari) -symbolik belgililar ustida ishlash uchun operatorlar.

Matematik ifodalarni qurish va hisoblash

Boshlang`ich holatda ekranda kursor krestik ko`rinishda bo`ladi. Ifodani kiritishda u kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko`k burchakli holatga o`tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin:

- menyu buyrug`idan foydalanib;
- klaviatura tugmalaridan foydalanib;
- matematik paneldan foydalanib.

O`zgavchilarga qiymat berish uchun yuborish operatori “:=” ishlatiladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o`zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik “=” belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo`ladi (2-rasm).




2-rasm. Oddiy matematik ifodalarni hisoblash.

Mathcad 200 dan ortiq o`zida qurilgan funksiyalariga ega bo`lib, ularni matematik ifodalarda ishlatish uchun standart panel vositasidagi Insert Function (Funksiyani qo`yish) tugmasiga bog`langan muloqot oynasidan foydalaniladi.

Mathcad hujjatiga matn kiritish uchun bosh menyudan Insert →Text Region (Qo`yish→Matn maydoni) buyrug`ini berish yoki yaxshisi klaviaturadan ikkitali kavichka (“) belgisini kiritish kerak. Bunda matn ma'lumotini kiritish uchun ekranda matn kiritish maydoni paydo bo`ladi. Matn kiritish maydoniga matematik ifodani yozish uchun matematik maydonni ham qo`yish mumkin. Buning uchun shu matn maydonida turib Insert→Math Region (Qo`yish→Matematik maydoni) buyrug`ini berish kifoY. Bu maydondagi kiritilgan matematik ifodalar ham oddiy kiritilgan matematik maydon kabi hisoblashni bajaradi.

Mathcadda foydalanuvchi funksiyasini tuzish hisoblashlarda qulaylikni va uning effektivligini oshiradi. Funksiya chap tomonda ko`rsatilib, undan keyin yuborish operatori (:=) va hisoblanadigan ifoda yoziladi. Ifodada ishlatiladigan o`zgaruvchi kattaliklari funksiya parametri qilib funksiya nomidan keyin qavs ichida yoziladi (3-rasm).




3-rasm. Hisoblashlarda foydalanuvchi funksiyasini tuzish.

Maple

Maple sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: iqtisodiyot, mexanika, matematika, fizika, muhandislik masalalarining analitik va sonli yechimlarini aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistemadir. Unda 4000 dan ortiq buyruqlar mavjud bo'lib, bu buyruqlar matematika fanining Algebra, Geometriya, Matematik tahlil, Matematik statistika kabi turli sohalari masalalarini hal etishga mo'ljallangan.

Quyidagi rasmda Maple tizimining asosiy oynasi ko'rsatilgan:




Maplening ish stoli quyidagi bo'limlardan iborat:


Sarlavha satri;	Ishchi soha;
Asosiy menyular satri;	Holat satri.
Uskunalar paneli;	Chizg'ich va yurg'izish yo'lakchalari

Maplening ishchi maydoni uch qismga bo'linadi:

1. Kiritish maydoni - buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri > simboli bilan boshlanadi;
2. Chiqarish maydoni–kiritilgan buyruqlarni qayta ishlangandan so'ng hosil bo'lgan ma'lumotlar (analitik ifodalar, grafiklar va xabarlar)ni o'z ichiga oladi;
3. Matnli izohlar maydoni - roy bergan xatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.

Buyruqlar satrini matnl rejimiga o'tkazish uchun uskunalar panelidan sichqoncha yordamida

 ni tanlaymiz.

Buyruqlar satriga o'tish uchun esa uskunalar panelidan  tanlaymiz.

Maple-bu komp`yuterda analitik va sonli hisoblashlarni bajaruvchi, 2000 dan ko'proq komandalarni o'z ichiga olgan va algebra, geometriya, matematik analiz, differensial tenglamalar, diskret matematika, fizika, statistika, matematik fizika masalalarini dastur tuzmasdan yechish imkoniyatini beruvchi matematik tizim (sistema)-paketdir. Aytish mumkinki, Maple bu yuqorida sanab o'tilgan sohalardagi matematik masalalarni yechib beruvchi katta kal'kulyatordir. Maple takomillashib bormoqda, hozir uning Maple 9.5, Maple 11-versiyalari keng tarqalgan.

Maple-simvolli va sonli hisoblashlarni tez va effektiv bajarish uchun mo'ljallangan hamda elektron xujjatlarni tayyorlash va grafik vizuallashtirish, interaktiv vositalariga ega bo'lgan

komp`yuter matematikasining yetakchi tizimlaridan biridir. Maple tizimidan jaxondagi 300dan ortiq eng katta universitetlarda o'quv jarayonida foydalanilmoqda va murakkab fizik jarayonlarni, tizimlarni va qurilmalarni modellashtirishda keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda faqat hisobga olingan, ushbu tizimdan foydalanuvchilarning soni 1mln dan ortiq.

Maple yadrosidan Matematika, MATLAB, Mathcad va boshqa tizimlar simvolli hisoblarni amalga oshirishda foydalanmoqdalar. Maple tizimini Kanadaning Waterloo Maple Inc firmasi yaratgan va u uzoq davom etgan rivojlanish va sinovdan o'tish davrini bosib o'tgan. Albatta, Maple tizimi hali juda qudratli emas, u ayrim sohalarda boshqalar kabi oqsamoqda.

O'zining jiddiy matematik hisoblarga yo'naltirilganligiga qaramasdan Maple tizimi studentlar, o'qituvchilar, aspirantlar, ilmiy xodimlar va shuningdek maktab o'quvchilari uchun ham zarurdir. Maple tizimi matematikani o'rganishda interaktiv vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maple tizimining interaktiv imkoniyatlari Tools>Assistants, Tools>Tutors menyusida joylashgan. Uning Calculus>Single-Variable, Calculus>Multi-Variable, Calculus>Linear Algebra bo'limlari borki, ular yordamida bir o'zgaruvchili, ko'p o'zgaruvchili funksiyalar, differensial tenglama, chiziqli algebraga oid ko'pgina masalalarni interaktiv usulda talabalarga o'rgatish mumkin. Jumladan, hosilani geometrik ma'nosi yordamida tushuntirish mumkin: funksiya, nuqta beriladi, komp`yuter kesuvchi o'tkazadi, uning limit holati urinma bo'ladi. Yoki, aniq integralni integral yig'indining limiti sifatida aniqlashda funktsiyani tanlash, nuqtalar soni va ularni turli xil usullarini tanlash, ommabop taqribiy usullardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Komanda berilgach integral yig'indining qiymati va integralning aniq qiymati kelib chiqadi. Komp`yutersiz bu ishni faqat chiziqli funksiyalar uchun bajarish mumkin xolos. Qanchalik foydali va qulay imkoniyat. Shuning uchun, Maple-studentparvar dasturiy tizim.


2. MATLAB tizimi imkoniyatlari va uning interfeysi

MATLAB sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: mexanika, matematika, fizika, muxandislik va boshqaruv masalalarini yechish, turli xil mexanik, energetik va dinamik sistemalarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish masalalarining aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistema va turli xil sohali foydalanuvchilarga muljallangan dasturiy paketi.

MATLAB tizimining yaratilishi professor Kliv B.Mouler (Clive B.Mouler) va MathWorks firmasi prezidenti Djek Litl (Jack Little) lar faoliyati bilan bog'liq. Bir necha yillar Nyu-Mexiko, Michigan va Stenford universitetlarining matematika kafedrasida va kompyuter markazlarida ishlagan Kliv Mouler, keyinchalik faoliyatini MathWorks firmasida davom ettirgan. 1984-yilda u, Fortran tizimida matrisali hisoblashlar va chiziqli algebraga masalalarini yechish paketlarini yaratish ishlarida qatnashgan va birinchi marta "MATLAB" atamasini kiritgan. "MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir.

Dastlab, MATLAB paketi matrisali hisoblashlar, dasturlar kutubxonasi uchun qulay qobiq sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik yuzlab yuqori malakali matematiklar va injener-texnik dasturchilar tajribasida, o'ziga xos laboratoriya sharoitida uning imkoniyatlari ancha kengaydi va hozirga kelib, ilmiy-texnikaviy dasturlash tili sifatida kompyuter algebrasi tizimlarining ilg'or vakillaridan biriga aylandi.

MATLAB tizimining integrallashgan muhiti(interfeysi) universal-interfaol rejimda ishlaydi. Bir tomondan, MATLAB tizimidan dasturlash tili sifatida foydalanib, hisoblash jarayonlarini o'ta tez va yuqori aniqlikda olish mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, virtual laboratoriya sifatida yuqoridagi tizimlarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, MATLAB dasturiy tizimi bilan Microsoft Office, Maple sistemasi va boshqa bir qancha dasturlarga bevosita bog'lash orqali shu dasturlarda ishchi varag'ida MATLABda mavjud buyruqlardan "jonli" ravishda foydalanish mumkin. Masalan Microsoft Office Excelda MATLAB buyruqlaridan foydalanish orqali undagi ishlarni osonlashtirish mumkin. Microsoft Office Wordda(Word+Notebook) esa MATLAB tizimi buyruqlaridan foydalanib, "jonli" elektron darsliklar, qo'llanmalar, prezentatsiyalar va turli ko'rinishdagi "jonli" elektron hujjatlar yaratish imkoniyatlari mavjud.



1-rasm. MATLAB tizimining asosiy oynasi


MATLAB tizimi interfeysi.

MATLAB tizimining asosiy oynasi quyidagicha ko'rinishda bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat:

1.	Sarlavha satri;	5.	Komandalar ishchi varag'i;
2.	Asosiy menyular satri;	6.	Oxirgi yozilgan komandalar royxati;
3.	Uskunalar paneli;	7.	Holat satri.
4.	Ishchi soha;		

Asosiy menyular satri quyidagi menyulardan iborat.

<p>File — fayllar bilan ishlash menyusi</p>	<p>Edit — tahrirlash menyusi</p>	<p>View — uskunalar panelini chiqarish va yopish menyusi</p>
<p>Web — Internet manbalari menyusi</p>	<p>Windows — oynalar bilan ishlash menyusi</p>	<p>Help — ma'lumotnoma menyusi</p>



Menyu buyruqlari:

Fayllar bilan ishlaydigan standart buyruqlarni o'z ichiga olgan File menyusining 1-bandi New buyrug'i bo'lib, unda M-file, Figure, Model, GUI bandlari mavjud.

- New+M-file – yangi M-file yaratish
- New+Figure – yangi figura(grafik oyna) yaratish
- New+Model – yangi model yaratish
- New+GUI – yangi FGI(Foydalanuvchining Grafikli Interfeysi)ni yaratish
- ...

Izoh: Qolgan menyu va menyu bandlaridagi buyruqlarini mustaqil o'rganish, Windows sistmasida ishlay oladigan foydalanuvchilar ixtiyoriga havola qilamiz.

MATLAB ning ishchi varag'i tom ma'noda uch qismga bo'linadi:

1. Buyruqlarni kiritish maydoni – buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri >> simvoli(bu simvol avtomatik tarzda buyruqlar satrining boshida bo'ladi va uni yozish shart emas) bilan boshlanadi;
2. Natijani chiqarish maydoni – kiritilgan buyruqlarni qayta ishlangandan so'ng hosil bo'lgan ma'lumotlar (analitik ifodalar, natijalar va xabarlar) ni o'z ichiga oladi;
3. Matnli izohlar maydoni - roy bergan xatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.

Buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi.

3. MATLAB dasturlash tili alifbosi va oddiy arifmetik amallar.

MATLAB dasturlash tilida boshqa dasturlash tillari kabi lotin alifbosining A dan Z gacha barcha katta va kichik harflari, 0 dan 9 gacha arab raqamlaridan foydalaniladi. Katta va kichik harflar, xuddi C++ dasturlash tilidagidek, ham o'zgaruvchi sifatida, ham ozgarmas sifatida bir-biridan farq qiladi. Lotin alifbosi harflaridan tashqari, klaviaturadagi barcha maxsus belgilardan foydalaniladi.

Buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi. O'zgaruvchi nomi nechta va qanaqa belgi yoki belgilardan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, lotin harflaridan boshlanib, 63 ta belgidan oshmasligi shart. Katta va kichik harflar bir-biridan farq qiladi. Agar buyruq o'zgaruvchi nomi yozilmay bajarilsa, buyruq natijasi maxsus ans(inglizcha answer-javob) o'zgaruvchisi orqali beriladi. Ishchi sohadagi o'zgaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni who yoki whos buyruqlari orqali ko'rish mumkin.

MATLAB da barcha ma'lumotlar matritsa yoki massiv ko'rinishida("MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory", yani "Matritsali Laboratoriya" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir) tasvirlanadi. Hattoki, skalyar o'zgaruvchilarni umumiy holda 1x1 o'lchovli massiv(matritsa) deb qarash qabul qilingan. Shuning uchun ham massiv va matritsalar ustida ishlash, MATLAB da samarali ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Massiv – bir turdagi ma'lumotlarning raqamlangan va tartiblangan to'plamidir. Massivning nomi bo'lishi shart. Massivlar o'lchovi yoki o'lchami bilan bir-biridan farq qiladi: bir o'lchovli, ikki o'lchovli, ko'p o'lchovli. Massiv elementlariga murojaat qilish indekslar orqali amalga oshiriladi. MATLAB da massiv elementlarini raqamlash bir(1)dan boshlangani uchun indeksleri birga teng yoki katta bo'ladi.

MATLAB da arifmetik amallar yetarlicha kengaytirilgan, hamda matritsaviy va arifmetik amallarni o'z ichiga oladi. Quyida arifmetik va matritsaviy amallar keltirilgan:

1) o'zgarmaslar

T. R	O'zgarmaslar	O'zgarmaslarning aytilishi
1.	pi	π soni
2.	i yoki j	mavhum son
3.	inf	cheksizlik
4.	NaN	$\frac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik
5.	true	mantiqiy rost
6.	false	mantiqiy yolg'on

2) arifmetik amallar:

T. R	Arifmetik amal belgilari	Arifmetik amal belgilari aytilishi
1.	+	Qo'shish(skalyar yoki matritsaviy)
2.	-	Ayirish(skalyar yoki matritsaviy)
3.	*	Ko'paytirish(skalyar yoki matritsaviy)
4.	/	Bo'lish(skalyar)
5.	^	Darajaga ko'tarish(skalyar yoki matritsaviy)
6.	.*	Massiv mos elementlari buyicha ko'paytirish
7.	./	O'lchovlari bir xil massiv mos elementlari buyicha bo'lish
8.	.^	Massiv mos elementlari buyicha darajaga ko'tarish
9.	\	Matritsaviy chapdan o'ngga bo'lish
10.	.\	Massiv mos elementlari bo'yicha chapdan o'ngga bo'lish
11.	'	Qo'shma matritsani hisoblash
12.	.'	Transponerlash

MATLAB da matematik ifodalar ma'lum bir bajarilish tartibiga asosan bajariladi. Avval mantiqiy amallar, so'ngra arifmetik amallar: avval daraja, keyin ko'paytirish va bo'lish, undan keyin esa qo'shish va ayirish bajariladi. Agar ifodada qavslar bo'lsa, avval qavs ichidagi ifoda yuqoridagi tartibda bajariladi.

3) munosabat amallari:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
1.	= ; (x = u)	Teng
2.	~ ; (x ~ = u)	Teng emas
3.	< ; (x < u)	Kichik
4.	> ; (x > u)	Katta
5.	<= ; (x <= u)	Kichik yoki teng
6.	>= ; (x >= u)	Katta yoki teng

4) mantiqiy amallar:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
1.	& ; and (and (a, b))	va
2.	; or (or (a, b))	yoki
3.	~ ; not (not (a, b))	inkor
4.	xor (xor (a, b))	
5.	any (any (a))	
6.	all (all (a))	

Butun, ratsional va kompleks sonlar.

MATLABda sonlarni haqiqiy (o'zgarish diapozonlari $[10^{-308}; 10^{308}]$ va $[10^{-4950}; 10^{4950}]$, double, real) va kompleks (complex) ko'rinishlarda tasvirlash mumkin. Kompleks sonlar algebraik shaklda yoziladi, ya'ni $z=x+iy$ va u buyruqlar satrida $\gg z=x+i*y$ yoki $\gg z=x+yi$ ko'rinishda (ushbu $\gg z=x+iy$ buyruq xato hisoblanadi) bo'ladi.

Haqiqiy sonlar esa butun (integer) va ratsional sonlarga bo'linadi. Ratsional sonlar 3 xil ko'rinishda tasvirlanishi mumkin:

- ratsional kasr ko'rinishida, masalan, $35/36$;
- qo'zg'aluvchan vergulli (float) ko'rinishida, masalan: 4.5;

ko'rsatkichli shaklda, ya'ni $6,02 \cdot 10^{-19}$ sonni $6.02 * 10^{-19}$ ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Yunon alfaviting harflarini MATLABda yozish uchun esa shu harfning nomini yozish tavsiya etiladi. Masalan, π ni hosil qilish uchun pi yozuvi yoziladi.

4. MATLAB buyruqlari. Standart funksiyalar

MATLABning standart buyruqlarining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

buyruq(p1, p2, ...) yoki buyruq(p1, p2, ...);

Bu yerda, buyruqning nomi, p1, p2, ... - uning parametrlari. Buyruq yozilgach natijni olish uchun (odatda MATLAB da buyruq oxirida nuqta vergul yoki ikki nuqta kabi belgilar qoyilmaydi) Enter tugmasini bosish (bir marta) yetarli. Har bir buyruq oxirida (;) belgisi bo'lishi, buyruq bajarilsada natijani ekranda namoyon etilmaslikni anglatadi va Enter tugmasi bosilganda jimlik qoidasiga asosan buyruq bajarilib, keyingi buyruqqa o'tiladi. Bunda natija EHM hotirasida qoladi.

MATLAB dasturi buyruqlarni help <buyruq nomi> buyruq'i bilan chaqirib olinishi mumkin. MATLABning asosiy amaliy buyruqlari maxsus kengaytirilgan paketlar(kutubxonalar)ida, yani Toolbox("Toolbox" inglizcha - "uskunalar qutisi" ma'nosini bildiradi)larida joylashgan bo'ladi.. Bu buyruqlarni MATLAB tizimi ma'lumotnomalaridan yoki help <toolbox nomi> buyruq'i bilan chaqirish mumkin. Masalan: Simvolli hisoblashlarni bajarish paketi buyruqlarini Symbolic Math Toolbox paketini chaqirish orqali ko'rish mumkin:

```
>> help Symbolic Math
```

```
Symbolic Math Toolbox.
```

```
Version 2.1.3 (R13) 28-Jun-2002
```

```
Calculus.
```

```
diff - Differentiate.
```

```
int - Integrate.
```

```
limit - Limit.
```

```
taylor - Taylor series.
```

```
jacobian - Jacobian matrix.
```

```
symsum - Summation of series.
```

```
...
```

```
Linear Algebra.
```

```
diag - Create or extract diagonals.
```

```
triu - Upper triangle.
```

```
tril - Lower triangle.
```

```
inv - Matrix inverse.
```

```
det - Determinant.
```

```
rank - Rank.
```

```
rref - Reduced row echelon form.
```

```
null - Basis for null space.
```

```
colspace - Basis for column space.
```

```
eig - Eigenvalues and eigenvectors.
```

```
svd - Singular values and singular vectors.
```

```
jordan - Jordan canonical (normal) form.
```

```
poly - Characteristic polynomial.
```

```
expm - Matrix exponential.
```

```
Simplification.
```

```
simplify - Simplify.
```

```
expand - Expand.
```

```
factor - Factor.
```

```
collect - Collect.
```

```
simple - Search for shortest form.
```

```
numden - Numerator and denominator.
```

```
horner - Nested polynomial representation.
```

```
subexpr - Rewrite in terms of subexpressions.
```

```
subs - Symbolic substitution.
```

```
Solution of Equations.
```

```
solve - Symbolic solution of algebraic equations.
```

```
dsolve - Symbolic solution of differential equations.
```

```
finverse - Functional inverse.
```

```
compose - Functional composition.
```

```
Variable Precision Arithmetic.
```

```
vpa - Variable precision arithmetic.
```

```
digits - Set variable precision accuracy.
```

```
Integral Transforms.
```

```
fourier - Fourier transform.
```

```
laplace - Laplace transform.
```

```
ztrans - Z transform.
```

```
ifourier - Inverse Fourier transform.
```

```
ilaplace - Inverse Laplace transform.
```

```
iztrans - Inverse Z transform.
```

```
Conversions.
```

```
double - Convert symbolic matrix to double.
```

```
poly2sym - Coefficient vector to symbolic polynomial.
```

```
sym2poly - Symbolic polynomial to coefficient vector.
```

```
char - Convert sym object to string.
```

```
Basic Operations.
```

```
sym - Create symbolic object.
```

```
syms - Short-cut for constructing symbolic objects.
```

```
findsym - Determine symbolic variables.
```

```
pretty - Pretty print a symbolic expression.
```

```
latex - LaTeX representation of a symbolic expression.
```

```
ccode - C code representation of a symbolic
```

```
expression.
```

```
fortran - FORTRAN representation of a symbolic
```

```
expression.
```

...
 Access to Maple. (Not available with Student Edition.)
 maple - Access Maple kernel.
 mfun - Numeric evaluation of Maple functions.

mhelp - Maple help.
 procread - Install a Maple procedure. (Requires Extended
 Toolbox.)

Izoh: MATLAB tizimi ma'lumotnomasida barcha Toolboxlar, ularning buyruqlari va ularni ishlatishga doir ayrim ko'rsatma hamda namunaviy misollar berilgan bo'lib, foydalanuvchini o'ziga kerakli bilimlarni mustaqil egallashida muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda asosiy standart funksiyalar va ularning MATLABdagi yozilish qoidalari keltirilgan.

MATLABning standart funksiyalari			
Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda	Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda
e^x	exp(x)	arcsinx	asin(x)
$\ln x$	log(x)	arccos x	acos(x)
$\lg x$	log10(x)	arctgx	atan(x)
$\log_2 x$	log2(x)	arctgx	acot(x)
\sqrt{x}	sqrt(x)	shx	sinh(x)
$ x $	abs(x)	chx	cosh(x)
$\sin x$	sin(x)	thx	tanh(x)
$\cos x$	cos(x)	cthx	coth(x)
$\operatorname{tg} x$	tan(x)	arsch	acosh(x)
$\operatorname{ctg} x$	cot(x)	arscth	acoth(x)
$\operatorname{sec} x$	sec(x)	arsosech	acsch(x)
$\operatorname{cosec} x$	csc(x)	arssech	asech(x)

Izoh: MATLABda bundan tashqari turli-tuman maxsus funksiyalarni qiymatlarini hisoblash uchun mo'ljallangan buyruqlar ham mavjud. Bu buyruqlarni hisoblashda MAPLE tizimining maxsus funksiyalaridan(MAPLE tizim yadrosida mavjud) foydalaniladi. Bu buyruqlarni >> help elfun va >> help mfunlist kabi buyruqlarini berish orqali batafsil ko'rish mumkin.

(%) – foiz belgisi izohlarni yozish uchun xizmat qiladi. Agar buyruqlar qisqa bo'lsa, ularni bir qatorga vergul bilan ajratgan holda yozib bajariladi. Agar buyruq yetarlicha uzun bo'lsa, u holda uch nuqta (...) qo'yilib, Enter ni bir marta bosish orqali keyingi qatordan davom ettiriladi va hk.

Masalan:

$$c = \sqrt{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}} + 3 \sqrt[3]{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}} \quad \text{ifodani } x = 0.2 \text{ va } y = -3.9 \text{ dag qiymatini}$$

hisoblaymiz:

```
>> x=0.2;
>> y=-3.9;
>> c=sqrt((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))+...
((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))^(1/3)
c =
2.0451
```

Dasturlashda shunday vaziyatlar bo'ladiki, bunda ifodani hisoblashda oraliq o'zgaruvchilarni kiritib(yoki ifodani qismlarga bo'lib) qadamma-qadam hisoblash mumkin. Yuqoridag misolni qaraymiz:

```
>> x=0.2;
>> y=-3.9;
```

```
>> a=sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);
>> b=cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);
>> c=sqrt(a/b)+(a/b)^(1/3)
c =
    2.0451
```

O'zgaruvchi berilgan qiymatni o'zlashtirishi uchun = belgi qo'llaniladi.

5. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar

MATLABda matematik ifodalar ustida shakl almashtirish jarayonida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- O'xshash hadlarni ixchamlash;
- Ko'paytuvchilarga ajratish;
- Qavslarni ochish;
- Ratsional kasrlarni qisqartirish va shu kabilar

Bunday simvolli hisoblashlarni bajarishdan oldin ifodadagi o'zgaruvchilar syms yordamchi buyrug'i (syms inglizcha "symbols", ya'ni "simvollar" so'zining qisqa ifodasi) orqali e'lon qilinadi. Masalan:

```
>> syms x y z a b c d
```

Ifodalarda shakl almashtirishlar.

Ifodalarda qavslarni ochib, ularning hadlarini ixchamlash `expand(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi:

```
>> syms x y z a b c d e
>> P=(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
P =
(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
>> P1=expand(P)
P1 =
x^6-1
```

Ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish uchun esa `factor(<ifoda>)` buyrug'idan foydalanamiz.

Masalan:

```
>> factor(P1)
ans =
(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
>> factor(x^5-x^4-7*x^3+x^2+6*x)
ans =
x*(x-1)*(x-3)*(x+2)*(x+1)
```

Ifodalarni soddalashtirish `simplify(<ifoda>)` yoki `simple(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Masalan:

```
>> P2=(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))
P2 =
(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))
>> simplify(P2)
ans =
2*cos(x)^2-1
```

Bundan tashqari, ifodalar ustida shakl almashtirishlarda kerak bo'ladigan `collect`, `numden`, `horner`, `subexpr`, `subs` kabi bir qator buyruqlari mavjud va uni mustaqil o'rganishni foydalanuvchiga qoldiramiz.

6. Massiv tushunchasi.

MATLAB da barcha ma'lumotlar matritsa yoki massiv ko'rinishida ("MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory", yani "Matritsali Laboratoriya" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir) tasvirlanadi. Hattoki, skalyar o'zgaruvchilarni umumiy holda 1×1 o'lchovli massiv(matritsa) deb

qarash qabul qilingan. Shuning uchun ham massiv va matritsalar ustida ishlash, MATLAB da samarali ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Massiv – bir turdagi ma’lumotlarning raqamlangan va tartiblangan to’plamidir. Massivning nomi bo’lishi shart. Massivlar o’lchovi yoki o’lchami bilan bir-biridan farq qiladi: bir o’lchovli, ikki o’lchovli, ko’p o’lchovli. Massiv elementlariga murojaat qilish indekslar orqali amalga oshiriladi. MATLAB da massiv elementlarini raqamlash bir(1)dan boshlangani uchun indeksleri birga teng yoki katta bo’ladi.

MATLAB da arifmetik amallar yetarlicha kengaytirilgan, hamda matritsaviy va arifmetik amallarni o’z ichiga oladi. Quyida arifmetik va matritsaviy amallar keltirilgan:

Arifmetik va matritsaviy amallar:

T.R.	Arifmetik amal belgilari	Arifmetik amal belgilari aytilishi
1.	+	Qo’shish(skalyar yoki matritsaviy)
2.	-	Ayirish(skalyar yoki matritsaviy)
3.	*	Ko’paytirish(skalyar yoki matritsaviy)
4.	/	Bo’lish(skalyar)
5.	^	Darajaga ko’tarish(skalyar yoki matritsaviy)
6.	.*	Massiv mos elementlari buyicha ko’paytirish
7.	./	O’lchovlari bir xil massiv mos elementlari buyicha bo’lish
8.	.^	Massiv mos elementlari buyicha darajaga ko’tarish
9.	\	Matritsaviy chapdan ungga bo’lish
10.	.\	Massiv mos elementlari buyicha chapdan ungga bo’lish
11.	'	Qo’shma matritsani hisoblash
12.	.'	Transponerlash

MATLAB da matematik ifodalar ma’lum bir bajarilish tartibiga asosan bajariladi. Avval mantiqiy amallar, so’ngra arifmetik amallar: avval daraja, keyin ko’paytirish va bo’lish, undan keyin esa qo’shish va ayirish bajariladi. Agar ifodada qavslar bo’lsa, avval qavs ichidagi ifoda yuqoridagi tartibda bajariladi. Matritsalar ustida amallar bajarishda avval transponerlash, keyin darajaga ko’tarish, keyin ko’paytirish, keyin qo’shish va ayirish tartibi amal qiladi.

7. Arifmetik va matritsaviy amallar bilan ishlash.

MATLAB da massivlarning ustun-vektor, qator-vektor va matritsa ko’rinishlaridan foydalaniladi. Massivlar kvadrat qavslarga olinib yoziladi. Ustun-vektorning har bir elementi, ya’ni har bir qatori nuqtali vergul bilan ajratiladi.

```
>> a=[1; 3; 8]
```

```
a =
```

```
1
3
8
```

Qator-vektorning har bir elementi, ya’ni har bir ustuni vergul yoki bo’sh joy(probel) bilan ajratiladi.

```
>> b=[2 5 9]
```

```
b =
```

```
2 5 9
```

Demak, massivlarni kiritishda ustunlar vergul yoki bo’sh joy(probel) bilan qatorlar esa nuqtali vergul bilan ajratilar ekan.

```
>> A=[1 -2 3; 2 5 -9]
```

```
A =
```

```
1 -2 3
2 5 -9
```

```
>> B=[1 -2 3; 2 5 -9; 0 7.4 0.56; -8 9 45]
```

```
B =
```

```

1.0000 -2.0000 3.0000
2.0000 5.0000 -9.0000
    0 7.4000 0.5600
-8.0000 9.0000 45.0000
>> C=[1 -2 3 5; 0 7.4 0.56 4; -8 9 45 64]

```

```

C =
1.0000 -2.0000 3.0000 5.0000
    0 7.4000 0.5600 4.0000
-8.0000 9.0000 45.0000 64.0000

```

Massiv elementlariga murojaat qilish indekslar orqali amalgam oshiriladi. Masalan:

```

>> a=[1; 3; 8];
>> a(3)
ans =
    8
>> b=[2 5 4 7 16 9];
>> b(2:5)=0
b =
    2    0    0    0    0    9

```

A matritsaning $a_{1,2}$ elementiga murojaat qilish:

```

>> A(1,2)
ans =
   -2

```

B matritsani 6 ga skalyar ko'paytirish:

```

>> H=6*B
H =
    6.0000 -12.0000 18.0000 30.0000
   12.0000 30.0000 -54.0000 42.0000
    0 44.4000  3.3600 24.0000
  -48.0000 54.0000 270.0000 384.0000
>> F=[1 -2 3; 2 5 -9; 2 5 8]

```

```

F =
    1   -2    3
    2    5   -9
    2    5    8

```

F matritsani 3-jarajaga ko'tarish, ya'ni $F*F*F$:

```

>> F^3
ans =
    99  234  342
   -276 -663 -690
    200  374 -265

```

F matritsani elementlari buyicha 3-jarajaga ko'tarish, ya'ni har bir elementini:

```

>> F.^3
ans =
    1   -8   27
    8  125 -729
    8  125  512

```

```

>> G=[2 3 12; 1 3 0; 7 0.5 4]
G =
    2.0000  3.0000 12.0000
    1.0000  3.0000    0
    7.0000  0.5000  4.0000

```

F va G matritsalarini(matritsalarini ko'paytirish qoidasiga asosan) ko'paytirish:

```

>> F*G

```

```

ans =
    21.0000  -1.5000  24.0000
   -54.0000  16.5000 -12.0000
    65.0000  25.0000  56.0000
F va G matritsalarini elementlari buyicha ko'paytirish:
>> F.*G
ans =
    2.0000  -6.0000  36.0000
    2.0000  15.0000     0
   14.0000   2.5000  32.0000
F va G matritsalarini qo'shish va ayirish:
>> F+G
ans =
    3.0000   1.0000  15.0000
    3.0000   8.0000  -9.0000
    9.0000   5.5000  12.0000
>> F-G
ans =
   -1.0000  -5.0000  -9.0000
    1.0000   2.0000  -9.0000
   -5.0000   4.5000   4.0000

```

Kiritilgan o'zgaruvchilar haqida ma'lumot olish:

```

>> whos
Name      Size      Bytes Class
A         2x3         48 double array
B         4x4        128 double array
C         3x4         96 double array
F         3x3         72 double array
G         3x3         72 double array
H         4x4        128 double array
a         3x1         24 double array
ans       3x3         72 double array
b         1x6         48 double array

```

Grand total is 86 elements using 688 bytes

MATLAB da kvadrat matritsalarining determinantini hisoblash uchun det buyrug'idan foydalaniladi. Masalan:

```

>> A2=[5 3; 2 8]
A2 =
     5     3
     2     8
>> det(A2)
ans =
     34
K=[2 3 6; 1 8 4; 3 6 7]
K =
     2     3     6
     1     8     4
     3     6     7
>> det(K)
ans =
    -29
>> K4=[2 3 6 14; 1 8 3 7; 9 6 7 5; 1 2 8 9]
K4 =

```

```

2 3 6 14
1 8 3 7
9 6 7 5
1 2 8 9

```

```
>> det(K4)
```

```
ans =
    3250
```

MATLAB da kvadrat matritsalarining teskari sini hisoblash uchun inv buyrug'idan foydalaniladi. Masalan:

```
>> A2=[5 3; 2 8]
```

```
A2 =
     5     3
     2     8
```

```
>> inv(A2)
```

```
ans =
    0.2353 -0.0882
   -0.0588  0.1471
```

```
>> K4=[2 3 6 14; 1 8 3 7; 9 6 7 5; 1 2 8 9]
```

```
K4 =
     2     3     6    14
     1     8     3     7
     9     6     7     5
     1     2     8     9
```

MATLAB da kvadrat matritsalarining teskarisini hisoblash uchun inv buyrug'idan foydalaniladi. Masalan:

```
>> inv(K4)
```

```
ans =
    0.0892 -0.0865  0.1160 -0.1360
   -0.0769  0.1538     0     0
   -0.1477 -0.0086  0.0080  0.2320
    0.1385 -0.0169 -0.0200 -0.0800
```

Bundan tashqari, matritsalarini transponerlash, rangi va normasini topish mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. MATLAB sistemasi qanday masalalarni yechishga mo'ljallangan?
2. MATLAB oynasining asosiy elementlarini tushuntiring?
3. MATLABning asosiy menyu bndlari vazifalari qanday?
4. Asosiy matematik o'zgarmlar MATLABda qanday tasvirlanadi?
5. MATLABda ratsional sonlar qanday ko'rinishda beriladi?
6. MATLAB buyruqlari qanday maxsus belgilar bilan tugaydi ?
7. factor, expand, simplify, collect buyruqlarining vazifalarini tushuntiring.
8. MATLAB matritsa va vektorlar qanday kiritiladi.
9. MATLAB da massivlar uchun ishlatiladigan buyruqlarni sanang.
10. det, inv, rank buyruqlarining vazifalarini tushuntiring.

4 – ma’ruza.

Matlab dasturida funksiyalar grafiklarini qurish. M-fayllar

Reja:

1. Ikki o’lchovli grafika.
2. Uch o’lchovli grafika. Animatsiya.
3. Tilning boshqaruvchi konstruksiyalari.
4. M-fayllar bilan ishlash.

1. Ikki o’lchovli grafika.

MATLAB da ma’lumotlarni vizuallashtirish uchun yuqori darajali grafik imkoniyatlar mavjud. Barcha grafiklar, menyulari va uskunalar paneliga ega alohida grafik oynada tasvirlanadi. Bunda grafiklarni oynadagi menyular va uskunalar paneli elementlari orqali sayqallashtirish, kerakli aniqlikni oshirish hamda foydalanuvchi talabiga ko’ra o’zgartirish mumkin.

MATLAB da ikki o’lchovli grafiklarni chizishda asosan quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

- loglog, polar, stairs, area, pcolor, line, pie, plot, semilogx, comet, bar, fill, colormap, ribbon, pie3, strips, semilogy, stem, barh, patch, rectangle, scatter, errorbar, imagesc va h.k.;

Chizilgan grafiklar va grafik oynalarni loyihalash va boshqarishda grafik oyna menyusu va uskunalar paneli elementlari hamda quyidagi buyruqlar orqali amalgam oshiriladi:

- grid, axis, hold, figure, shg, clf, subplot va h.k.;


Odatda bir o’zgaruvchili funksiya grafiklarini chizishda plot buyrug’i va uning turli xil ko’rinishlaridan foydalaniladi.

Qisqa ko’rinishi	Bajarilishi
<pre>>> x=[a:h:b]; >> y=f(x); >> plot(x,y)</pre>	Bunda dastlab berilgan h qadam bilan bo’laklarga bo’lingan oraliq kiritiladi, keyin funksiya kiritiladi, undan keyin plot buyrug’i kiritiladi.

Bunda plot(x,y) buyrug’iga uchinchi parametрни kiritish, ya’ni plot(x,y,s) buyrug’ini bajarish grafikdagi chiziqlar rangi, tipi, stili va foydalanuvchi talabiga ko’ra boshqa xususiyatlarini ko’rsatish imkonini beradi. Bu xususiyatlarni o’zgartirish grafik oyna menyusu buyruqlari, uskunalar paneli elementlari orqali va grafik maydonda chichqonchanning ung tugmasini bosish orqali ham amalga oshirsa bo’ladi. Agar bitta koordinata sistemasida bir nech grafikni bir vaqtda(bitta oynada) chizish talab qilinsa, u holda plot buyrug’ida avval 1-oraliq va 1-funksiya, keyin 2- oraliq va 2-funksiya va h.k. kiritiladi.


1-TOPSHIRIQ.

$y = e^{-x}\sin(4x)$ funksiya grafigini [-2; 3] oraliqda chizamiz:




Chiziq rangi, tipi va stilini quyidagi jadvalda ko’rsatilgan belgilardan yoki grafik maydon imkoniyatlaridan foydalanib o’zgartirish mumkin:

Chiziq rangi		Chiziq nuqtalari tipi	
y	Sariq	•	Nuqtali chiziq
m	Pushtirang	◦	Aylanali
c	Havorang	x	Krest(xoch)
r	Qizil	+	Qo'shish belgisi
g	Yashil	*	Yulduzcha
b	Ko'k	s	Kvadrat
w	Oq	d	Romb
k	Qora	v	burchakli
	va hokazo	^	burchakli
Chiziq tipi		<	burchakli
—	Uzluksiz, to'liq	>	burchakli
:	Punktli	p	Besh yulduzli
-.	Shtrix-punktli	h	Olti yulduzli
--	Shtrixli		va hokazo



Bitta grafik oynada bir vaqtda bir yoki bir necha grafik maydon qurish mumkin, yoki bitta grafik maydonda bir yoki bir nechta funksiyalar grafiklarini bir vaqtda yasash mumkin. Bir nechta funksiyalar bo'laklaridan tuzilgan funksiyalarni chizish mumkin:

2-TOPSHIRIQ



3-TOPSHIRIQ

$$y(x) = \begin{cases} \sin x & -4\pi \leq x \leq -\pi \\ 3(x/\pi + 1)^2 & -\pi < x \leq 0 \\ 3e^{-x} & 0 < x \leq 5 \end{cases}$$


funksiya grafigini chizamiz:

```
>>x1=[-4*pi:pi/10:-pi];
>>y1=sin(x1);
```

```

>> x2=[-pi:pi/30:0];
>> y2=3*(x2/pi+1).^2;
>> x3=[0:0.02:5];
>> y3=3*exp(-x3);
>> plot(x1,y1,x2,y2,x3,y3)

```




4-TOPSHIRIQ

Parametrlı funksiyalar grafigini chizamiz: $x(t) = \cos^3 t$, $y(t) = \sin^3 t$, $t \in [0, 2\pi]$.

```

>> t=[0:pi/20:2*pi];
>> x=cos(t).^3;
>> y=sin(t).^3;
>> plot(x,y)

```




2. Uch o'lchovli grafika.



MATLAB da uch o'lchovli grafiklarni chizishda asosan quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

- bar3, plot3, mesh, surf, sphere, cylinder, bar3h, contour, meshgrid, fill3, ellipsoid, logo va h.k.;

Odatda ko'p o'zgaruvchili funksiya grafiklarini chizishda mesh buyrug'i va uning turli xil ko'rinishlaridan foydalaniladi. Misol:



Fazoda geometrik jismlarni tasvirlashda sphere, cylinder, bar3h, ellipsoid kabi bir qator buyruqlardan foydalaniladi.



3. Tilning boshqaruvchi konstruktsiyalari.

MATLAB dasturlash tili sifatida Fortran, Algol, Pascal, C,C++, Visual Basic, Visual C/C++, Borland C/C++ Builder, Delphi kabi dasturlash tillarining ayrim yutuqlari va imkoniyatlarini o'zida saqlab, moslashtirib, ularni yanada qulaylashtirgan. Tizimda 2000 dan ortiq funksiyalar, mavjud bo'lib, hisoblash jarayonlarini tashkil etishda asosan 9 ta operator va 14 ta xizmatchi so'zlardan foydalaniladi. Izohlar % belgisi bilan boshlanadi.

1. O'zlashtirish operatori.

Umumiy ko'rinishi	Bajarilishi
<o'zgaruvchi>=<ifoda>	Bunda ifodaning qiymati o'zgaruvchiga beriladi, yani o'zlashtiriladi.

2. Shartli operator.

Umumiy ko'rinishi	Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
if <1-shart> <1-operatorlar> elseif <2-shart> <2-operatorlar> elseif <3-shart> <3-operatorlar> ... else <operatorlar> end	if <shart> <operatorlar> else <operatorlar> end	Bunda 1-shart tekshiriladi, agar 1-shart rost bo'lsa(true qiymatni qabul qilsa), u holda 1-operatorlar ketma-ket bajariladi, aks holda 2-shart tekshiriladi, agar 2-shart rost bo'lsa(true qiymatni qabul qilsa), u holda 2-operatorlar ketma-ket bajariladi, aks holda va hk. agar birorta ham shart rost bo'lmasa(false qiymatni qabul qilsa), u holda oxirgi operatorlar ketma-ket bajariladi va tarmoqlanish jarayoni tugaydi.

3. Tanlash operatori.

Umumiy ko'rinishi	Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
switch <ifoda> case <1-qiymat> <1-operatorlar> case <2-qiymat> <2-operatorlar> ... otherwise <operatorlar> end	switch <ifoda> case <1-qiymat> <1-operatorlar> case <2-qiymat> <2-operatorlar> otherwise <operatorlar> End	Bunda ifodaning qiymati 1-qiymat bilan ustma-ust tushsa(bir xil bo'lsa), 1-operatorlar ketma-ket bajariladi, aks holda 2-qiymat tekshiriladi va hk. agar ifodaning qiymati sanalgan qiymatlarning birortasi bilan ustma-ust tushmasa, oxirgi operatorlar ketma-ket bajariladi va tanlash jarayoni tugaydi.

4. Parametrli takrorlash operatori.

Umumiy ko'rinishi	Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
for <o'zgaruvchi>= <boshlang'ich qiymat>: <qadam>:<oxirgi qiymat> <operatorlar> end	for <o'zgaruvchi>= <boshlang'ich qiymat>:<oxirgi qiymat> <operatorlar> end	Bunda o'zgaruvchi boshlang'ich qiymatni qabul qiladi va operatorlar ketma-ket 1 marta bajariladi, keyin qadam oshgach operatorlar ketma-ket yana 1 marta bajariladi va hk. o'zgaruvchi oxirgi qiymatni qabul qiladi va operatorlar ketma-ket 1 marta bajariladi va takrorlanish jarayoni tugaydi.

Izoh: Parametrli takrorlash jarayoni chekli bo'lishi kerak. Agar qadam ko'rsatilmasa avtomatik tarzda qadam 1 ga teng hisoblanadi.

5. Shartli takrorlash operatori.

Umumiy ko'rinishi	Bajarilishi
while <shart> <operatorlar> <qadam> End	Bunda boshlang'ich qiymat tekshiriladi agar rost bo'lsa, operatorlar ketma-ket 1 marta bajariladi va qadam oshadi, keyin yana shart tekshiriladi va hk. bu jarayon shart yolg'on bo'lguncha davom etadi va takrorlanish jarayoni tugaydi.

Izoh: Bunda takrorlash jarayoni tashkil etishda avval boshlang'ich qiymat kiritilishi kerak.

6. try-catch operatori.

Umumiy ko'rinishi	Bajarilishi
-------------------	-------------

try <1-operatorlar> catch <2-operatorlar> end	Bunda 1-operatorlar ketma-ket 1 marta bajariladi, agar bajarilish jarayonida hatoliklar bo'lsa, u holda 2-operatorlar ketma-ket 1 marta bajariladi va jarayon tugaydi. Agar 1- operatorlar bajarilish jarayonida hatoliklar bo'lmasa, u holda 2-operatorlar bajarilmaydi.
---	---

7. break operatori.

Umumiy ko'rinishi	Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
break	break	For, while, switch, try-catch konstruktsiyalaridan zudlik bilan chiqib ketish uchun foydalaniladi.

8. MATLABda funksiyalar tuzish operatori(function).

	Umumiy ko'rinishi	Misol
1.	function <funksiya nomi> <operatorlar>	function f1
2.	function <funksiya nomi>(<kiritilayotgan parametrlar>) <operatorlar>	function f2(x1,x2,...)
3.	function <chiqarilayotgan parametr>=<funksiya nomi>(<kiritilayotgan parametrlar>) <operatorlar>	function y=f3(x1,x2,...)
2	function <chiqarilayotgan parametrlar>=<funksiya nomi>(<kiritilayotgan parametrlar>) <operatorlar>	function [y1,y2,...]=f(x1,x2,...)

9. return operatori.

Umumiy ko'rinishi	Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
return	return	Funksiya konstruktsiyasidan zudlik bilan chiqib ketish uchun foydalaniladi.

Bu operatorlarni mustaqil o'rganishni foydalanuvchiga havola qilamiz.

4. M-fayllar bilan ishlash.

MATLAB tizimida murakkab hisoblash jarayonlarini tashkil qilishda buyruqlar oynasining buyruqlar satri bir qator noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Masalan, muayyan masalalarni yechish uchun tuzilgan dasturlarni qayta-qayta yozish, ko'plab buyruqlarni bir vaqtda bajarish va hk. Bunday noqulayliklarni oldini olish uchun MATLABda kengaytmasi m bo'lgan M-fayllardan foydalaniladi.

Umuman olganda, MATLAB tizimidagi deyarli barcha funksiyalar M-fayl(M-file) lar ko'rinishida Toolbox larda saqlangan holda jamlangan. Foydalanuvchi ishlash vaqtida va keyinchalik zarur bo'lganda o'ziga kerakli funksiya va buyruqlarga ham buyruqlar satrida, ham M-fayllarda murojaat qilish orqali ulardan foydalanishi mumkin.


M-fayllar asosan 2 xil: fayl-programma va fayl-funksiya ko'rinishida bo'ladi. Yangi M-faylni yasash va tahrirlash uchun MATLAB tizimi asosiy oynasida File →New→M-file ketma-ketligini bajaramiz. Natijada yangi M-faylni tahrirlash oynasi ochiladi. Foydalanuvch tuzgan fayl-programmani foydalanuvch istalgan nomda saqlash mumkin.

Misol: 5! (besh faktorial) ni hisoblash dasturi tuzilsin. Dasturni fayl-programma ko'rinishda tuzamiz.


Yechish:

1. File→New→M-file ketma-ketligini bajaramiz. Bunda yangi M-fayl oynasi ochiladi.

2. Quyidagi buyruqlarni kiritamiz va faylni saqlaymiz:



```
C:\MATLAB6p5\work\pr1.m
File Edit View Text Debug Breakpoints Web Window Help
a=1;
for i=1:5;
    a=a*i;
end
a|
script Ln 5 Col 2
```

3. Debug→Run buyrug'i (yoki F5 tugmasi)ni bajaramiz yoki uskunalar panelidagi  tugmasini bosamiz.

Natijada tizim asosiy oynasidagi buyruqlar satrida

```
>>
```

```
a =
```

```
120 natija chiqadi.
```

Bu natijani tizim asosiy oynasini buyruqlar satrida tuzilgan M-faylni nomiga murojaat qilish orqali ham olsa bo'ladi:

```
>> pr1
```


```
a =
```

```
120
```

TOPSHIRIQ: $n!$ (n faktorial)ni hisoblash dasturi tuzilsin. Dasturni fayl-funksiya ko'rinishda tuzamiz.

Yechish:

- 1) File→New→M-file ketma-ketligini bajaramiz. Bunda yangi M-fayl ochiladi.
- 2) Quyidagi buyruqlarni kiritamiz va faylni saqlaymiz:



```
C:\MATLAB6p5\work\factn.m
File Edit View Text Debug Breakpoints Web Window Help
function y=factn(n)
k=1;
for i=1:n
    k=k*i;
end
y=k;
factn Ln 6 Col 5
```

3) Tizim asosiy oynasini buyruqlar satrida tuzilgan M-faylni nomiga murojaat qilish orqali istalgan natural sonning faktorialini olish mumkin bo'ladi:

```
>> factn(6)
```

```

ans =
    720
>> factn(100)
ans =
    9.3326e+157
>> h=vpa(factn(100),160)
h=
933262154439441021883256061085752672409442548549605715091669104004079
950642429371486326940304505128980429892969444748982587372043112366414
77561877016501813248.

```

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, fayl-funksiyalarni tuzib, funksiya nomi bilan saqlab, uni foydalanuvchi zarur bo'lganda aynan o'sha nom bilan buyruqlar satrida murojaat qilib, bema'lol foydalanish imkoniyatiga ega bo'lar ekan. MATLABda mavjud bo'lmagan funksiya yoki hisoblash algoritmlarni foydalanuvchi o'zi tuzib, ularni mos Toolbox larga yoki yangi papkaga yig'ib, yangi dasturlar kutubxonasini yaratishi tizim imkoniyatlarini yanada oshishini bildiradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qanday buyruqlar bilan tekislikda va fazoda grafiklarni yasash mumkin? Bu buyruqlarning parametrlari haqida gapiring.
2. Oshkormas ko'rinishda berilgan funksiyalarning grafiklari qaysi buyruqlar yordamida yasaladi? Ularning parametrlarini yozing
4. plot va mesh buyrug'i nima maqsadda ishlatiladi?
5. Berilgan tengsizliklar sistemasi orqali aniqlanadigan ikki o'lchovli soha qanday buyruq bilan yasaladi?
6. Fazoviy sirtlar va egri chiziqlarning grafiklari qanday buyruq bilan yasaladi?
7. bar3 va plot3 buyruqlarining imkoniyatlari haqida so'zlab bering.
8. Tilning boshqaruvchi konstruksiyalari.
9. M-fayllar bilan ishlash.

5 – ma’ruza.

Matlab dasturiy paketidagi qism dasturlar. Simulink qism dasturidagi elementlar

Reja:

1. Avtomatlashtirish va boshqaruv haqida umumiy tushunchalar.
2. Boshqaruv masalalari.
3. Model va modellash tushunchasi. Matematik modellash.
4. Tizimlarni modellash turlarining tasnifi.
5. Simulink kutubxonalar brouzeri haqida umumiy tushuncha.
6. Simulink kutubxonasi bo'limlari
7. Continuous — analog bloklar.
8. Discrete — diskret bloklar.
9. Simulink paketida chiziqli avtomatik rostdash sistemasini (ARS) strukturaviy o'zgartirish.
10. Simulink paketida dinamik sistemalarning vaqt xarakteristikalarini tadqiq yetish imkoniyatlari.

1. Avtomatlashtirish va boshqaruv haqida umumiy tushunchalar.

Tizim deb – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan hamda bir-biriga muvofiq ravishda yagona maqsad (reja) boyicha harakat qiluvchi abstrakt yoki moddiy ob'ektlar to'plamiga aytiladi. Agar tizim abstrakt elementlardan (sonlar, atamalar, tushunchalar va h.k.) tashkil topgan bo'lsa, bunday tizim abstract tizim deb ataladi. Agar tizim moddiy elementlardan (odamlar, mashina va mexanizmlar va h.k.) tashkil topgan bo'lsa, bunday tizim moddiy tizim deb ataladi.


Abstrakt tizimlar ob'ektlari o'rtasidagi bog'lanish va aloqa o'zgarmas qonuniyatlar asosida amalga oshirilgani uchun bunday tizimlar ikkinchi tomondan statik tizimlar deb ataladi.

Moddiy tizimlar ob'ektlari o'rtasidagi bo'g'lanish va aloqa ancha murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ular vaqt o'tgan sayin o'zgarib, takomillashib boradi. Shuning uchun ham bunday tizimlar dinamik tizimlar deb ataladi.

Boshqarish deb – tizimning faoliyatini meyorida tutib turish hamda maqsadga muvofiq tarzda ishlashini ta'minlash uchun boshqaruvchi organlar tomonidan tizimga ko'rsatiladigan ta'sirga aytiladi.

Boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda, dinamik tizimlarni boshqarish eng murakkab boshqarishdir. Chunki bunda dinamik ob'ektlar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarda roy beradigan o'zgarishlarni, tashqi omillarning hamda boshqa tizimlarning ta'sirlarni hisobga olishga to'g'ri keladi.

Har qanday jarayonni boshqarish quyidagi to'rtta bosqichdan iborat. Buni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:



bu erda: BO – boshqarish ob'ekti; I – boshqarish maqsadi; II – boshqarish to'g'risida axborot; III – taqqoslash, tahlil etish va qaror qabul qilish; IV – qabul qilingan xabarni bajarish.

Boshqarish jarayonini hamma bosqichlarini bajarilishini ta'minlaydigan texnik vositalar to'plamiga boshqarish sistemasi (tizimi) deyiladi.

Avtomat grekcha so'z bo'lib, o'zi harakatlanadigan ma'noni anglatadi. Avtomat, odatda, mustaqil, o'zi harakatlanadigan (mashina, apparat, asbob, tizim), yani berilgan topshiriq yoki insonni bevosita ishtirokisiz dastur bo'yicha energiya, material yoki axborotni qabul qilish, o'zgartirish, uzatish, ishga tushirish kabi ishlarni bajaradigan qurilmadir.

Avtomatika deb – insonni bevosita ishtirokisiz ishlaydigan texnik vosita (jarayon) larning boshqaruv tizimlarini barpo etish nazariyasi va printsiplarini o'z ichiga oladigan fan va texnika soxasiga aytiladi.

Avtomatik boshqaruv deb–insonni bevosita ishtirokisiz, malum maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan texnik obektni boshqarishga aytiladi. Bunda insonni vazifasi avtomatik boshqarish tizim (ABT) ishlashini kuzatish, uni ishga tushirish va o'chirishdan iborat bo'ladi. Agar boshqarish vazifalarini inson qisman bajaradigan bo'lsa, bunday tizimlarni avtomatlashtirilgan deb atashadi.

Avtomatik boshqarish tizimi (yoki avtomatik tizim), o'zaro hamkor ishlaydigan boshqariladigan obektdan va avtomatik boshqarish quril-masidan (ABQ) tashkil etiladi.

Boshqarish ob'ektiga boshqarish ta'sirini ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnik vosita va qurilmalar majmuasi avtomatik boshqarish qurilma deyiladi. Qandaydir texnik jarayonni bajaradigan qurilmaga, boshqariladigan obekt (BO) deb ataladi. Bu jarayonni to'g'ri bajarishlik, ishlash algoritmi deb ataladigan, ko'rsatma (yo'l-yo'riq) larni to'plami bilan aniqlanadi. BO ishlash algoritmini bajarishi uchun ABQ ga tashqaridan maxsus tashkil etilgan tasirlar bo'lishi kerak. Bu tasirlarning xususiyati, boshqaruv algoritmi deb ataladigan ko'rsatma larning to'plami bilan belgilanadi.

Rostlash – boshqarishni bir ko'rinishi bo'lib, u boshqariluvchi ob'ektni chiqish miqdorini ma'lum qiymatini ushlab turishdir.

Avtomatik boshqarish nazariyasi (ABN) – avtomatik boshqarish sistemalarini qurish usullari, ish tartiblari va sodir bo'ladigan jarayonlar qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Avtomatik boshqarish sistema (ABS)lari, asosan boshqariluvchi ob'ekt va avtomatik boshqaruvchi qurilma (rostlagichlar)dan iborat.

Boshqaruvchi ob'ektni tashqi qo'zg'atuvchi ta'sirida o'z xarakteristikasi va qiymatlarini o'zgartiruvchi dinamik sistema deb tariflasak bo'ladi. Ob'ekt har qanday tashqi ta'sirga o'zi qarshi tura olmaydi. Halaqit beruvchi ta'sir ob'ektning normal ishlashiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun, ob'ektning xarakteristika qiymatlarini berilgan holda saqlash yoki dasturga muvofiq o'zgartirish maqsadda unga tashqi ta'sir - ya'ni boshqaruvchi ta'sir ko'rsatiladi.

Boshqarish qurilma rostlagich bergan qiymat, dastur yoki funktsiyani boshqaruv ta'sirga aylantirib beradi. Avtomatik boshqarish qurilmasi sezgir element (o'lchash qurilmasi), o'zgartirgich, kuchaytirgich va bajaruvchi qurilmalardan iborat.

Sezgir element berilgan miqdorni yoki berilgan miqdor bilan boshqaruvchi miqdorlar ayirmasini boshqaruvchi ta'siriga aylantirib beradi.

O'zgartirgich ba'zi elementga ta'sir qilish kerak bo'lgan noqulay miqdorni, masalan, tok kuchini elementni ishlashi uchun qulay miqdor (kuchlanishga)ga aylantiradi.

Kuchaytirgich kuchsiz boshqaruvchi ta'sir (signal)ni bajaruvchi (elektr yurituvchi)ning normal ishlay olishi mumkin bo'lgan miqdorgacha kuchaytirib beradi. Bu maqsadda magnit kuchaytirgichlari, eletron yoki yarim o'tkazgichli kuchaytirgichlar ishlatiladi.

Bajaruvchi qurilma sifatida o'zgaruvchan yoki o'zgarimas elektr yurituvchilari, elektrmagnitlar va boshqalar ishlatiladi. Bu qurilma rostlagichlarga o'rnatiladi va boshqariluvchi ob'ektga ta'sir qiladi.

ABN ABSlardagi jarayonlarning dinamik xususiyatlarini tadqiqot qilish uchun ularning struktura va funktsional sxemalari tuziladi. Boshqariluvchi miqdorlar va tashqi ta'sirlar o'z fizik tabiatiga ko'ra har xil, masalan, elektr (elektr kuchlanish, tok kuchi, quvvat, chastota), mexanik (tezlik, tezlanish), issiqlik (temperatura), gidravlik (bosim, suyuqlik balandligi) va boshqa miqdorlar bo'lishi mumkin. Shu sababli ABSning struktura sxemasi va qurilish usuli fizik xususiyatlari turli bo'lgan ob'ekt va agregatlar uchun ham bir xil bo'ladi.

ABSlar funktsional belgilari, ya'ni boshqarish maqsadi, boshqarish usuli, signallarni olish printsiipi va ularning o'zaro bog'lanish xususiyatiga qarab turlarga bo'linadi. Oddiy va eng ko'p tarqalgan boshqarish maqsadi: ob'ektning boshqariluvchi miqdorlarini birday ushlab turishdan iborat. Shunga muvofiq qurilgan ABS avtomatik rostlash sistema (ARS) deyiladi. ARSlar sinfiga avtomatik me'yorlash, dasturiy rostlash va kuzatish sistemalar kiradi:

- agar ARS boshqariluvchi parametr miqdorini uzoq vaqt davomida har qanday tashqi kuch ta'sir qilganda ham birday ushlab tursa, u avtomatik me'yorlash sistemasi deb ataladi;

- agar ARS boshqariluvchi parametr miqdorini oldindan ma'lum bo'lgan qonunga ko'ra boshqarsa, dasturiy avtomatik rostlash sistemasi deb ataladi;

- agar ARS boshqariluvchi parametr miqdorini oldindan noma'lum bo'lgan va vaqt jihatdan erkin o'zgaruvchi qonun boyicha boshqarsa, avtomatik kuzatish sistemasi deb ataladi.

ABS o'z boshqarish maqsadi va boshqarish signallarni olish usuliga qarab, moslashuvchi sistemaga; boshqarish usuliga qarab, ochiq va yopiq sistemalarga bo'linadi. Halaqit beruvchi ta'sir kuchli bo'lgan vaqtda ochiq sistemalar turg'unlik holatini saqlay olmaydi, chunki ob'ektda bo'layotgan o'zgarishlar sistemaning boshqarish qurilmasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ana shu boshqaruvchi qurilmaning ob'ektga ta'sir etishi, ammo ob'ektning boshqaruvchi qurilmaga qayta ta'sir eta olmasligi sistemaning ochiq ekanligini bildiradi.


ABSning ishlash prinsipi sistema elementlarning chiqish va kirishlari orasida hosil bo'luvchi signallarga qarab aniqlanadi. Shunga ko'ra, ABS uzluksiz va uzlukli (diskret) ta'sir qiluvchi sistemalarga bo'linadi. Uzluksiz sistemalarda boshqariluvchi miqdorni o'zgarishi yopiq zanjir boyicha uzluksiz ta'sir qiluvchi boshqarish miqdorni hosil qiladi. Uzlukli sistemaga releli va impulsli sistemalar kiradi, ularda boshqaruvchi miqdor vaqt-vaqti bilan ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ABSning vazifalariga sistemaning elementlarning parametrlari va xarakteristikalarini aniqlash, ABSni yasash va uning dinamik xususiyatlarini tekshirish, yaxshilash va hokazolar kiradi.

2. Boshqaruv masalalari.

Tizimlarini boshqarish masalalari ichida boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda, dinamik tizimlarni boshqarish eng murakkab boshqarishdir. Chunki bunda dinamik ob'ektlar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarda roy beradigan o'zgarishlarni, tashqi omillarning hamda boshqa tizimlarning ta'sirlarni hisobga olishga to'g'ri keladi.


Tizimlarini boshqarish masalalarini tahlil qilish uchun boshqarish tizimlarini matematik modeli sxemasini sodda qilib quyidagicha tasvirlab olamiz:



Rasm. Boshqarish tizimlarini matematik modeli sxemasi.

Tizimlarini boshqarishda asosan boshqaruvning 3 ta asosiy masalasi qaraladi:

1. Analiz(tahlil qilish) masalasi.
2. Sintez masalasi.
3. Identifikatsiya masalasi.



Rasm. Boshqaruvning 3 ta asosiy masalasi

Boshqarish tizimlarini tahlil(analiz) qilish masalasi quyidagi ko'rinishida formallshtiriladi:
Berilgan:

- ❖ tizimning struktur sxemasi;
- ❖ tizimning va tizim elementar zvenolarining uzatish funksiyasi;
- ❖ uzatish funksiyasi o'zgaruvchilari qiymatlari.

Aniqlash talab etiladi:

- ❖ o'tish jarayonining sifat ko'rsatkichlari tahlili (analizning asosiy masalasi);
- ❖ boshqarish tizimi turg'unligi tahlili;
- ❖ tizimning sezuvchanligi, boshqaruvchanligi va kuzatuvchanligi tahlili;
- ❖ aniqlik darajasi tahlili.

Boshqarish tizimlarini sintez qilish masalasi(bunda aksincha) quyidagi ko'rinishida formallashtiriladi: O'tish jarayonining berilgan aniqlikdagi sifat ko'rsatkichlarini va turg'unlik shartlarini qanoatlantiruvchi tizimni(uzatish funksiyasi yoki boshqa ko'rinishda) qurish talab qilinadi.

Identifikatsiyalash masalasida boshqarish tizimining matematik modelini tajriba natijasida aniqlangan real hayotdagi modellanayotgan tizimga monandligi tekshiriladi.

Analiz va sintezning bunday masalalarini MATLAB tizimida yechish g'oyat maqsadga muvofiqdir. MATLAB tizimida modellashtirishning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari quyidagicha:

- ❖ tizimning qulayligi va soddaligi;
- ❖ yuqori darajada aniqligi;
- ❖ amalda yetarli darajada murakkab tizimlarning xarakteristikalarini olish imkoniyatlari mavjudligi.

3. Model va modellashtirish tushunchasi. Matematik modellashtirish.

Model – bu hayoliy tasavvurdagi, yoki moddiy amalga oshirilgan tizim bo'lib, ob'ektni aks ettirish yoki tadqiqot ob'ektini tiklashi hamda ob'ektni o'rganish va u haqida yangi axborot keltirish maqsadida uni o'rnini bosishi mumkin bo'lgan tizim. Ob'ektni aks ettirish yoki tadqiqot ob'ektini tiklashi hamda ob'ektni o'rganish va u haqida yangi axborot keltirish maqsadida uni o'rnini bosishi mumkin bo'lgan bunday tizimni tuzish(ya'ni modelni tuzish) jarayoni modellashtirish deb ataladi.

Texnologik jarayonlar va tizimlarni boshqarish masalalarini qanday o'rganish mumkin? Bu muammoni yechish kalitini matematik modellashtirish usuli beradi. Bu usul tizimli tahlil strategiyasiga asoslanadi. Bu strategiyaning mohiyati - jarayonni murakkab o'zaro ta'sirlanuvchi iyerarxik tizim deb, uning strukturasi sifatli tahlillab, matematik ifodasini ishlab chiqish va noma'lum parametrlarini baholashdan iboratdir.

Masalan, yaxlit suyuq muhitda zarralar, tomchilar yoki gaz pufakchalar ansamblini harakatlanish jarayonida paydo bo'layotgan hodisalar qaralganda, samaralar iyerarxiyasining beshta sathi ajratiladi: 1) atomar-molekulyar sathdagi hodisalar majmui; 2) molekulyar tashqi yoki globulyar strukturalar masshtabdagi samaralar; 3) fazalararo energiya va modda olib o'tish hodisalari va kimyoviy reaksiyalarni inobatga oladigan, dispersli fazani birlik ulanish harakatiga bog'liq bo'lgan ko'p fizikaviy-kimyoviy hodisalar to'plami; 4) yaxlit fazada ko'chib yuradigan aralashmalar ansamblidagi fizik-kimyoviy jarayonlar; 5) apparat masshtabida makrohidrodinamik muhitni aniqlaydigan jarayonlar majmui. Bunday yondashuv butun jarayonning hodisalari va ular orasidagi bog'lanishlar to'plamini to'la o'rnatishga imkon beradi.

Matematik model orqali obyektning xossalari o'rganish matematik modellashtirish deb tushuniladi. Jarayon o'tishi optimal sharoitlarini aniqlash, matematik model asosida uni boshqarish va obyektga natijalarini olib o'tish uning maqsadidir.

Matematik model tushunchasi matematik modellashtirish usulining asosiy tushunchasidir. Matematik model deb matematik belgilash yordamida ifodalanuvchi, qandaydir hodisa yoki tashqi dunyo jarayonini taxminiy tavsifiga aytiladi.

Matematik modellashtirish o'ziga uchta o'zaro bog'liq bosqichlarni qamrab oladi:

- 1) o'rganilayotgan obyektning matematik tavsifini tuzish;
- 2) matematik tavsifi tenglamalar tizimini yechish usulini tanlash va modellashtiruvchi dastur shaklida uni joriy qilish;

3) modelning obyektga monandligi (adekvatligi)ni aniqlash.

Matematik tavsifni tuzish bosqichida obyektida asosiy hodisa va elementlari avval ajratib olinadi va keyin ular orsidagi aloqalar aniqlanadi. Keyin, har bir ajratib olingan element va hodisa uchun uning funksiyalanishini aks ettiradigan tenglama (yoki tenglamalar tizimi) yoziladi. Bundan tashqari, matematik tavsifiga turli ajratib olingan hodisalar orasiga aloqa tenglamalari kiritiladi. Jarayon nisbatiga qarab matematik tavsif algebraik, differensial, integral va integro-differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishida ifoda etilishi mumkin.

Yechim usulini tanlash va modellashtiradigan dasturni ishlab chiqish bosqichi mavjud usullar ichidan eng samarali (samarali deganda yechimning tezligi va yechim aniqligi nazarda tutiladi) yechim usulini tanlashni nazarda tutiladi va avval yechim algoritmi shaklida, keyin esa - uni EHMda hisoblashga yaroqli dastur shaklida amalga oshiriladi.


Real jarayonga matematik modelning monandligini tekshirish uchun jarayon o'tishida obyektidan olingan o'lchovlar natijasini o'xshash sharoitlardagi model bashorati natijalari bilan taqqoslash kerak.

Modelning monandligini o'rnatish bosqichi uni ishlab chiqish bosqichlari ketma-ketligining yakuniysidir. Quyidagi rasmda matematik modelni ishlab chiqishning umumiy sxemasi ko'rsatilgan.

Matematik modelni qurilishida real hodisa soddalashtiriladi, sxemalashtiriladi, va olingan sxema hodisalar murakkabligiga bog'liq holda u yoki boshqa matematik apparat yordamida tavsiflanadi.

Tadqiqotning muvaffaqiyatliliigi va olingan natijalarning ahamiyatliliigi modelda o'rganilayotgan jarayonning xarakterli xislatlarini hisobga to'g'ri olishga bog'liq.

Jarayonga ta'sir qiluvchi barcha eng muhim omillar modelda hisobga olingan bo'lishi va shu bilan birga u ko'plab kichik ikkinchi darajali omillar bilan ketma-ket bo'lmasligi kerak, ularni hisobga olish faqat matematik tahlilni murakkablashtiradi va tadqiqotni o'ta tiqilinch yoki umuman amalga oshmaydigan qilib qo'yadi.



Matematik modelni ishlab chiqish bosqichlari.

Tizimlarni modellash turlarining tasnifi.

Modellash asosida o'xshashlik nazariyasi yotadi, u shuni tasdiqlaydiki, mutloq o'xshashlik bir obyektning boshqa xuddi Shunday obyekt bilan almashtirish mavqeiga ega bo'lishi mumkin. Modellashda mutloq o'xshashlik o'rinli emas va Shuning uchun obyektning tadqiq qilinayotgan ishlash tarafini yetarli yaxshi aks ettirishga intilish kerak. Shuning uchun modellash turlarini tasniflash alomatlardan biri sifatida – modelning to'liqlik darajasini tanlash mumkin va modellarni shu alomatga muvofiq to'liq, to'liq bo'lmagan va taxminiylarga bo'lish mumkin. To'liq modellash asosida nafaqat vaqtda, balki fazoda ham namoyon bo'ladigan to'liq o'xshashlik yotadi. To'liq bo'lmagan modellash uchun o'rganilayotgan obyektga modelning to'liq bo'lmagan o'xshashligi xarakterlidir.

S tizimlarini modellash turlarining tasnifi quyidagi rasmda keltirildi. **S** tizimda o'rganilayotgan jarayonlar xarakteriga muvofiq modellashning barcha turlari determinanlangan va stoxastik, statik va dinamik, diskret, uzluksiz va diskret – uzluksizlarga bo'linishi mumkin. Determinanlangan modellash determinanlangan jarayonni aks ettiradi, ya'ni har qanday tasodifiy ta'sirlarning yo'qligi inobatga oladigan jarayonlarni nazarda tutadi; Stoxastik modellash ehtimollik jarayonlar va hodisalarni aks ettiradi. Bu holda tasodifiy jarayonning qator amalga oshirilishlari tahlillanadi va o'rta ta'riflar, ya'ni bir turdagi amalga oshirishlarning to'plami baholanadi. Statik modellash qandaydir vaqt lazasida obyekt xulqini tavsiflash uchun xizmat qiladi, dinamik modellash esa vaqtda obyektning xulqini aks ettiradi. Diskret modellash diskretligi nazarda tutilgan jarayonlarni tavsiflash uchun xizmat qiladi va shunga muvofiq uzluksiz modellash tizimlarda uzluksiz jarayonlarni aks ettirish uchun imkon beradi, diskret – uzluksiz modellashdan esa diskret hamda uzluksiz jarayonlarni ajratib ko'rsatish zarur bo'lgan hollarda foydalaniladi.

Xayoliy modellash.

Xayoliy modellash Ba'zi hollarda vaqtning berilgan oralig'ida amalga oshirib bo'lmaydigan yoki ularni jismoniy shartlaridan tashqarida yotganligi uchun obyektlarni modellashning yagona usuli hisoblanadi. Masalan, xayoliy modellash asosida mikroolamdagi fizik tajriba o'tkazishga imkon bermaydigan ko'p vaziyatlarni tahlillash mumkin. Xayoliy modellash ayoniy, belgili va matematik ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Obyektning (**S** tizimni) taqdim etish shakliga muvofiq xayoliy va real modellashni ajratish mumkin.

Ayoniy modellash.

Ayoniy modellashda, obyektga o'tadigan hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi real obyektlar haqida turli ayoniy modellar inson tushunchalari asosida yaratiladi. Gipotetik modellash asosida real obyektga jarayonlar o'tish qonuniyatlari haqida tadqiqotchi qandaydir gipotezani asos qilib oladi. Bu gipoteza obyekt haqida tadqiqotchining bilim darajasini aks ettiradi va o'rganilayotgan obyektning kirish va chiqish orasidagi sabab – oqibat aloqalarga asoslanadi. Gipotetik modellash formal modellarni qurish uchun obyekt haqidagi bilimlar yetishmayotganda ishlatiladi.


Analogli modellash.

Analogli modellash turli darajadagi analogiyalarni qo'llashga asoslanadi. Faqat oddiy obyektlar uchun o'rinli bo'lgan eng yuqori darajalilari to'liq analogiya hisoblanadi. Obyektning murakkablashishi bilan keyingi darajalardagi analogiyalardan foydalaniladi, bunda analogli model obektni ishlashining bir nechta yoki faqat bir tarafini aks ettiradi.

Tilli modellash.

Tilli modellash asosida qandaydir tezaurus (bir tilning mukammal lug'ati) yotadi. U kiruvchi tushunchalar to'plamidan tashkil topadi, uning ustiga bu to'plam fiksatsiyalangan bo'lishi kerak. Shuni qayd qilish kerakki, tezaurus va oddiy lug'at orasida prinsipial farqlar bor. Tezaurus – lug'at, bir xil bo'lmaganlikdan tozalangan, ya'ni unda har bir so'zga yagona tushuncha muvofiq bo'lishi kerak, garchi oddiy lug'atda bir so'zga bir nechta tushunchalar muvofiq bo'lishi mumkin.

Belgili modellash real obyektning o'rnini bosadigan va uning munosabatlarini asosiy xossalarni ma'lum alomatlar va belgilarning ma'lum tizimi yordamida ifoda etadigan mantiqiy obyektning yaratishning sun'iy jarayonidir.



Tizimlarning modellash turlarining tasnifi.

Matematik modellash.

Matematik modellash deganda - berilgan real obyektning Ba'zi bir matematik obyektga muvofiqligini belgilash jarayoni tushuniladi. Bu matematik obyekt matematik model deb ataladi, va bu modelni tadqiq qilish o'rganilayotgan real obyekt xarakteristikalarini olish imkonini beradi. Matematik modelning turi nafaqat real obyekt tabiatiga bog'liq, balkim obyektning tadqiq masalalariga va talab qilinadigan ishonchlik va bu masalani yechish aniqligiga bog'liq. Har qanday matematik model, boshqalarga o'xshab, haqiqatga yaqinlashishning Ba'zi darajasi bilan real obyektning tavsiflaydi. Sistemalar ishlash jarayoni xarakteristikalarini tadqiq qilish uchun matematik modellashni analitik, imitasion va kombinasionlarga ko'rinishlarga bo'lish mumkin.

Analitik modellash uchun shu narsa xarakterliki, tizim elementlarini ishlash jarayonlari qandaydir funkcionall munosabatlar (algebraik, integro - differensial, chekli - ayirmali va sh.o'.) yoki mantiqiy shartlar ko'rinishida yoziladi. Analitik modelni tadqiqot usullari:

Analitik model quyidagi usullar bilan tadqiq qilinishi mumkin:

a) analitik, bu usul izlanayotgan xarakteristikalar uchun umumiy ko'rinishda aniq bog'liqliklarni olish kerak bo'lganda qo'llaniladi;

b) sonli, bu usul umumiy ko'rinishda tenglamalarni yechishni bilmasdan, aniq boshlang'ich ma'lumotlarda sonli natijalarni olish kerak bo'lganda qo'llaniladi;

v) sifatli, bu usul anik ko'rinishda yechimni olmasdan, yechimning Ba'zi xossalarni topish mumkin (masalan, yechimning turg'unligini baholash) bo'lganda qo'llaniladi.

Sonli usul analitik usulga nisbatan tizimlarning kengroq sinfini tadqiq qilishga imkon beradi, lekin bunda olingan yechimlar xususiy xarakterga ega bo'lib, SHK (shaxsiy kompyuter) dan foydalanganda sonli usul g'oyat samaralidir. Ba'zi bir hollarda tizim tadqiqotchisini matematik modelning sifatli usuli tahlilidan foydalanib olingan xulosalar qanoatlantirishi mumkin. Bunday sifatli usullar, masalan boshqarish tizimlarning turli variantlarini samarasini baholash uchun avtomatik boshqarish nazariyasida keng qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda katta tizimlarning ishlash jarayoni xarakteristikalarini tadqiq qilishda kompyuterli amalga oshirish usullari keng tarqalgan. EHM da matematik modelni amalga oshirish uchun unga muvofiq modellashtirish algoritmi qurish kerak.

Imitasion modellashtirish.

Imitasion modellashtirish S tizimning vaqt bo'yicha ishlash jarayonini amalga oshiruvchi modelning algoritmi qayta ishlab chiqiladi va shu bilan birga elementar hodisalar imitatsiyalanadi. Ularning vaqt bo'yicha yuz berishi hamda mantiqiy strukturalarini saklagan holda tizim xarakteristikalarini baholash imkonini beruvchi, vaqtning ma'lum momentlaridagi jarayonning holati haqidagi boshlang'ich ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Tahliliy modellashtirishga nisbatan imitasion modellashtirishning asosiy afzalligi murakkabroq masalalarni yechish imkonini hisoblanadi. Imitasion modellar diskret va uzluksiz elementlarning mavjudligi, tizim elementlarining egri chiziqli xarakteristikalari, ko'plab tasodifiy ta'sirlar va boshqa tahliliy tadqiqotlarda qiyinchiliklarni tez-tez paydo qiladigan omillarni hisobga olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda imitasion modellar - katta tizimlarni tadqiq qilishda eng samarali bo'lib, Ba'zida tizimning xulqi haqida, ayniqsa uni loyihalash bosqichida axborot olishni yagona amaliy ommabop usuli hisoblanadi.

S tizimni ishlash jarayonini imitasion modelda qayta ishlab chiqarish natijasida olingan natijalar, tasodifiy qiymatlar va funksiyalarning amalga oshirishlari bo'lganda, jarayon xarakteristikalarini olish uchun uni ko'p karra qayta ishlab chiqish talab qilinadi.

Imitasion modellar asosida tizimlarning kompyuterli sintezi masalalarini yechishda, qayd qilingan tizimning tahlili uchun modellashtirish algoritmlarini ishlab chiqishdan tashqari, tizimning optimal variantini qidirish algoritmini ham ishlab chiqish kerak. Kompyuterli modellashtirish uslubiyatini asosiy mazmuni berilgan modellashtirish algoritmlari bilan tizimlarning tahlili va sintezi masalalariga mos keluvchi ikkita asosiy bo'limga ajratamiz: statika va dinamika.

Kombinatsiyalangan modellashtirish.

Kombinatsiyalangan modellashtirish (tahliliy-imitasion) tizimlarning tahlili va sintezida tahliliy va imitasion modellashtirishning fazilatlarini birlashtirishga imkon beradi. Kombinatsiyalangan modellar qurishda obyektning ishlash jarayonini tashkil etuvchi nimjarayon uchun dastlabki dekompozitsiya o'tkaziladi va ular uchun imkon bo'lganda tahliliy modellar ishlatiladi, qolgan nimjarayonlar uchun esa imitasion modellar quriladi. Bunday kombinatsiyalangan yondashuv tadqiqot qilishda faqat tahliliy va imitasion modellashtirishdan alohida foydalanish imkonini bo'lmaganda tizimlarning sifatli yangi sinflarini qamrab olishga imkon beradi.

Real modellashtirish.

Real modellashtirishda yoki real obyektida butunlayin, yoki uning qismida turli xarakteristikalarni tadqiq qilish imkonidan foydalaniladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat normal rejimlarda ishlayotgan obyektlarda o'tkazilishi mumkin, balki tadqiqotchini qiziqtirayotgan xarakteristikalarni baholash uchun maxsus rejimlarni tashkillashtirishda (o'zgaruvchilar va parametrlarning boshqa qiymatlarida, vaqtning boshqa masshtabida va h.k.) ham amalga oshirilishi mumkin. Real modellashtirish eng monand bo'lgan modellashtirish hisoblanadi, lekin real obyektlarning xossalari hisobga olganda uning imkoniyatlari chegaralangan bo'lib qoladi. Masalan, korxonaning ABT (Avtomatik boshqarish tizimlari) ni real modellashtirish uchun, birinchidan, Shunday ABTni yaratish, ikkinchidan esa, boshqariladigan obyektida tajribalar o'tkazish, ya'ni butun korxonada tajribalar o'tkazish talab qilinadi, lekin ko'p hollarda buning imkonini yo'q. Real modellashtirishning turli xilliligini ko'rib chiqamiz.

Modellashtirishda kibernetik modellashtirish o'ziga xos o'ringa ega. Kibernetik modellashtirishda modellar bo'lib o'tayotgan fizik jarayonlarning obyektida bo'lib o'tayotgan jarayonlarga bevosita o'xshashligi bo'lmaydi. Bu holda qandaydir funksiyani eks ettirishga intilinadi va real obyekt «qora

quti» sifatida qaraladi, unda qator kirishlar va chiqishlar bo'lib, ular orasidagi Ba'zi bir aloqalar modellashtiriladi. Kibernetik modellardan foydalanganda ko'pincha tashqi muhitning ta'sirlaridagi obyektning xulq taraflari tahlil qilinadi.


5. Simulink kutubxonalar brouzeri haqida umumiy tushuncha.

Matlab 7 tizimining asosiy qismini tizimiga birlashtirilgan Simulink kutubxonalar brouzeridagi kengaytirilgan paketlar tashkil qiladi. Hozirgi kunda ularning soni 70 dan oshib ketdi. Bu paketlar dasturlar kutubxonasi ko'rinishida bo'lib, ularda minglab tayyor funksiyalar(m-fayllar) va funksional bloklar mavjud. Bundan tashqari, tizim arxitekturasi ochiq va kengayuvchan bo'lgani uchun foydalanuvchi o'zining funksiya va proseduralarini qo'shish orqali tizimning imkoniyatlarini kuchaytirishi mumkin.

Matlab 7 tizimiga birlashtirilgan Simulink kutubxonalar paketlarning asosiylari quyidagi jadvalda keltirilgan bo'lib, ular real jarayon, tizim va qurilmalarni funksional bloklardan tuzilgan virtual modellar ko'rinishida loyihalash, imitatsiyalash va tahlil qilish imkonini beradi.

№	Matlab komponenti	Vazifasi
1.	Simulink	Dinamik sistemalarni modellashtirish va tahlil qilish
2.	Aerospace Blockset	Uchish apparatlari va harakatlantiruvchi moslamalarni modellashtirish
3.	Bioinformatics Toolbox	Biologiya va genetik tajriba ma'lumotlarini tahlil qilish
4.	Communication Toolbox	Kommunikasion tizimlarni real vaqt masshtabida modellashtirish
5.	Control System Toolbox	Avtomatik rostdash tizimlarini modellashtirish va tahlil qilish
6.	Curve Fitting Toolbox	Tajriba ma'lumotlarini qayta ishlash (aproximatsiya, interpolatsiya va h.k.)
7.	Data Acquisition Toolbox	Komp'yuterga ulangan o'lchash qurilmalari bilan ma'lumot almashishni tashkil etish
8.	Database Toolbox	MB dagi axborotlarni tahlil qilish va SQL so'rovlaridan foydalanish
9.	Dials & Gauges	Turli xil o'lchov asboblari va shkalalariga ega boshqarish panellarini shakllantirish
10.	Filter Design Toolbox	Raqamli filtrlarni loyihalash, imitatsiyalash va tahlil qilish
11.	Fuzzy Logic Toolbox	“Noravshan mantiq” apparati asosida tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish
12.	LMI Control Toolbox	Chiziqli matrisaviy tengsizliklar asosida tavsiflangan tizimlarni modellashtirish
13.	Model Predictive Control	Murakkab tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish
14.	Mu-Analysis and Synthesis	Yuqori tartibli chiziqli boshqarish tizimlarini analiz va sintez qilish
15.	Neural Network Toolbox	Murakkab formallanuvchi masalalarni yechishda neyron tarmoqlarini qo'llash
16.	Nonlinear Control Design	Nochiziqli avtomatik rostdash tizimlarini modellashtirish, tahlil qilish va loyihalash
17.	Optimization Toolbox	Optimallashtirish masalalarini yechish
18.	Partial Differential Equation Toolbox	Xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalarini yechish
19.	Robust Control Toolbox	Ehtimoliy ta'sirlarga turg'un bo'lgan boshqarish tizimlarini tahlil qilish
20.	Signal Processing Toolbox	Raqamli va analogli signallarni qayta ishlash
21.	SimMechanics	Mexanik tizimlarni Simulink yordamida modellashtirish
22.	SimPowerSystem	Elektroenergetika tizimlarni Simulink yordamida modellashtirish
23.	System Identification	Kirish va chiqish signallarini tahlil qilish asosida tizimlarni

Simulink kutubxonalar brouzerining asosiy oynasi quyidagi rasmda keltirilgan:



1.2.- rasm. Simulink kutubxonasi bo'limlari.

Xulosa qilib aytganda, Matlab tizimi va unga biriktirilgan paketlar imkoniyatlaridan foydalanish, foydalanuvchilarga ilmiy tadqiqotlarda amaliy masalalarni yuqori aniqlikda, tez va oson hal etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida esa turli soha masalalarini modellar va tahlil qilish natijalarini tajriba mashg'ulotlarda virtual ko'rinishida foydalanuvchilarga yetkazish maqsadga muvofiq.

6. Simulink kutubxonasi bo'limlari

Simulink bibliotekasida quyidagi asosiy bo'limlar mavjud:




- Continuous – chiziqli bloklar;
- Discrete – diskret bloklar;
- Fuction & Tables – funksiyalar va jadvallar;
- Math – matematik amallar bloki;
- Nonlinear – chiziqli bo'lmagan bloklar;
- Signals & Sytems – signallar va tizimlar;
- Sinks – registratsiya iiluvchi qurilmalar;
- Sources – signallar va ta'sirlar manbalari;
- Subsystems – ost tizimlar bloklari;

Simulink bibliotekasi bo'limlarining ruyxati daraxtsimon shaklga ega bo'lib bunday ruyxatlar bilan ishlash qoidalari odatdagidek. Bibliotekaning zarur bo'limi tanlanganda uning tarkibi oynaning

o'ng qismida ochiladi. Oyna bilan ishlashda menyuda jamlangan buyruqlardan foydalaniladi. Menyuda quyidagi tugmalar mavjud:

- File (fayl) – biblioteka fayllari bilan ishlash;
- Edit (Tahrirlash) – bloklarni qo'shish va ularni izlash (nomi bo'yicha);
- View (Ko'rinish) – interfeys elementlarining ko'rinishini boshqarish;
- Help (Yordam) – biblioteka bo'yicha yordam oynasini chiqarish.

Asboblardagi tugmalarning vazifalari quyidagilar:

-  Янги S-моделни яратиш (модел яратиш учун янги ойнани очиш).
-  Мавжуд S-моделлардан бирини очиш;
-  Ойнанинг хоссаларини ўзгартириш;
- **Find** Блокни номи (ёки номидаги биринчи символлар) бўйича излаш. Блок топилгандан кейин библиотеканинг мос бўлими очилади ва топилган бўлим ажратиб кўрсатилади. Агар блок топилмаса изох ойнасида *Not found* < блок номи > (блок топилмади) ёзувлари пайдо бўлади.

7. Continuous — analog bloklar

Hosilani hisoblash bloki Derivative

Vazifasi ■

Kirish signalini sonli differensiallaydi.

Parametrlari ■


Yuk-

Hosilani hisoblash uchun Eylerning takribiy formulasidan foydalaniladi:

Hisoblash boshlanguncha kirish va chikish signallarining qiymat- lari nolga teng deb olinadi.

Hosilani hisoblash anikligi hisoblash kdsamining kattaligiga bogliq- Kladam kichik olinsa xosilani hisoblash anikligi ortadi.

Differensiallovchi blokdan foydalanishga misol 12.3.1- rasmda keltirilgan. Unda tugri burchakli signalning xosilasi hisoblangan. Rasmda natijalar ikki xil hisoblash kadami uchun (Simulation Parameters oynasining Max step size bulimida auto va 10^2) kursatilgan.



12 3 1-rasm Signallarni differensiallash uchun Derivative blokidan foydalanish

Integrallovchi blok Integrator

Vazifasi:

Kirish signalini integrallaydi.

Parametrlari:

External reset — integratorni boshlangich holatga qaytaruvchi tashki bosharuvchi signal, u quyidagi ruyxatdan tanlaiadi:

- none — yuk; (boshlangich holatga qaytarilmaydi);
- rising — ortuvchi signal (signalning oldingi fronti);
- falling — pasayuvchi signal (signalning orqa fronti);
- either — ortuvchi yoki pasayuvchi signal;

level — nolga teng bo'lmagan signal (boshqaruvchi kirishdagi signal nolga teng bo'lmaganda integrator boshlang'ich holatga qaytariladi).

Boshqaruvchi signalning turi tanlanganda (faqat pope emas) blokning tasvirida qo'shimcha boshqaruvchi kirish hosil bo'ladi. Qo'shimcha kirishning yonida boshqaruvchi signalning shartli belgisi ko'rsatiladi.

Initial condition source — Chiqish signali boshlang'ich qiymatining manbasi:

internal — ichki

external — tashqi. Ushbu xolda blokning tasvirida x_0 bilan belgilangan qo'shimcha kirish hosil bo'ladi. Unga integrator chikish signalining boshlang'ich kiymatini belgilovchi signal beriladi.

Initial condition — boshlang'ich shart. Integrator chikish signalining boshlang'ich kiymatini o'rnatish. Ushbu parametrga chikish signali boshlang'ich kiymatining manbasi sifatida internal (ichki) tanlanganda kirish mumkin.

Limit output (bayrokcha) — Chikish signalini cheklashdan foydalanish.

Upper saturation limit — Chikish signalini cheklashning yukori Sath,i. Sonlar vositasida yoki simvolli ketma-ketlik inf, ya'ni $+\infty$ kurinishida berilishi mumkin.

Lower saturation limit — Chikish signalini cheklashning pastki Sath,i. Sonlar vositasida yoki simvolli ketma-ketlik inf, ya'ni $+\infty$ kurinishida berilishi mumkin.

Show saturation port — integrator cheklashlarga chikkanligi tugrisidagi signalni beruvchi portni aks ettirishni boshkaradi. Ushbu portning chikish signali kuyidagi kiymatlarni kabul kilishi mumkin:

Nol, integrator cheklashlarga chikmagan;



+1 integratorning chikish signali yukoridan cheklashga yetib borgan;

-1, integratorning chikish signali pastdan cheklashga yetib borgan.

Show state port (bayrokcha) — blokning holat portini kursatish/ berkitish.

Absolute tolerance — Absolyut xatolik.

Kirishiga pogonali signal berilganda integratorning ishlashi 12.3.2-rasmda kursatilgan (boshlang'ich shartlar nolga teng).



12.3.2-rayem Pogonali signalni integrallash

Memory bloki


Vazifasi: Kirish signalini bitta vaqt taktiga kechiktiradi.

Parametrlari:

- Initial condition — chiqish signalining boshlang'ich qiymati.
2.	Katalogi birlashtirilgan yoki ajralgan bo'lishi mumkin va uni va qulay bo'lishi uchun katalog oynasining sarlavha satrida ikki marta bosib o'zgartirish mumkin.
3.	Katalogni chap tomani bo'yicha birlashtirish uchun uni bosh oynaning chap tomoniga o'tkazing.
4.	Katalogni o'ng tomani bo'yicha birlashtirish uchun uni bosh oynaning o'ng tomoniga o'tkazing.
5.	Qurilma katalogidan SIMATIC 300 yoki SIMATIC 400 tarkibidagi ob'ektlari va papkalariga kirish uchun to'g'risidagi "plyus" belgisini (+) bosish kerak.
6.	Ba'zi papkalar, masalan CP-300 va CP-400 uchun keyinchalik kategoriyalarini ajratish uchun ikki yoki undan ko'p darajali papkalar bor. CP papkalari tarkibida Profibus, sanoat Ethernet va ikki nuqtali kommunikatsiya protsessorlari uchun tub papkalar mavjud.
7.	Har qanday papkani tanlash, katalog oynasining pastki bo'lmasiga qisqacha mazmunini ko'rsatilishiga olib keladi.
8.	Katalog oynasining pastki bo'lmasiga qisqacha mazmunini ko'rish uchun biror bir komponentini tanlang.
9.	Rack 300 yoki Rack 400 papkasini ochib, modul qurilmalarini ko'rib chiqing va tanlangang. S7-400 quyidagilarni turdagi qurilmalar o'z ichiga oladi: CR markaziy qurilmalar uchun; ER kengaytirish qurilmalar uchun; va UR, universal qurilmalar uchun (ham markaziy ham kengaytirish qurilmalari sifatida foydalanish).
10.	PS-300 yoki PS-400 papkasida elektr ta'minoti modulini tanlang. S7-400da standart va zaxira elektr ta'minoti uchun papkalar mavjud: uning DC quvvat manbalari bor PS-405 va AC elektr ta'minoti PS-407 bilan o'rnatilgan.
11.	CPU-300 yoki CPU-400 papkani ochish CPU ni tanlash mumkin. Tub papkalarda standart va Profibus DP kabi CPU modullari mavjud. S 7-300 shuningdek ikkinuqtali (PtP) va integrallashtirilgan funktsiyalar moduli (IFM) ham bor.
12.	S7- uchun mahalliy va uzoqlashtirilgan interfeys modullarini S7-400 uchun IM-400 papkasida, va S7-300 uchun IM-300 papkasida ko'rish mumkin.
13.	FM-300 yoki FM-400 papkasini ochib funktsional modullarni ko'rish mumkin. Ularning tub papkalarida kulachokli, PID, yuqori tezlik schyotchigi va pozitsion boshqaruv bo'yicha modullar bor.
14.	Signalli modullarni ko'rish uchun SM-300 yoki SM-400 papkasini tanlash lozim. Har ikki papka ichiga raqamli kiritish (DI), raqamli chiqish (DO), analog kirish (AI) va analog chiqish (AO) modullar bor.

Texnik ta'minot konfiguratsiyasi navigatsiyasining menyu va panellari

Asosiy tushuncha

Texnik ta'minot konfiguratsiyasi vositasi apparat vositalari stansiyalarining oson konfiguratsiyasini ta'minlaydigan ob'ektga asoslangan qurilmadir. Foydalanish chog'ida bir yoki bir necha stansiyalari bir vaqtning o'zida ko'rish yoki tahrirlash uchun ochiq turishi mumkin. Oflayn stansiyasi konfiguratsiyani engillashtirish uchun o'rnatilgan konfiguratsiyalar monitoring va diagnostika maqsadlar uchun onlaynda ham ochilishi mumkin. Dasturlanuvchi modullar shu jumladan, SPU, SP va FM bo'yicha ma'lumotlarni stansiya onlaynda bo'lganida ochilishi va tahrirlanishi mumkin.

Asosiy elementlari

Texnik ta'minot konfiguratsiyasi vositalarining to'liq operatsiyalariga asosiy menyu ya'ni Station, Edit, Insert, PLC, View, Options, Window, va Help orqali kirish mumkin. Instrumental panelidagi tugmalar tez-tez ishlatiladigan buyruqlarga tezkor kirish imkoni beradi. Edit menyusi modullar va qurilmalardan nusxa ko'chirish va qo'shish, hamda ob'ektning boshqa xususiyatlarini


tahrirlash imkonini beradi. PLC menyusi CPU va boshqa dasturlashtiriladigan modullari orasida onlayn rejimini ta'minlaydi. View va Window menyulari yordamida asosiy va statsionar oynalarni manipulyasiya qilish imkonini beradi va har bir stansiyaning kirish/chiqish adresini qo'llashga imkon berishni ta'minlaydi. Nihoyat, Options menyusi konfiguratsiya vositalarini va ixtiyoriy kirish vositalarini xususiylashtirishini ta'minlaydi (masalan. Symbols Editor (simvollar muharriri) va Network Configuration (Tarmoq konfiguratsiyasi)).

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Gorizontal yoki vertikal bir necha oynalar bilan ishlash va foydalanishni soddalashtirish uchun Copy va Paste funksiyalaridan foydalaniladi. Misol uchun bir qurilmani yoki statsionar oynani tanlab va shu joydan boshqa joyga ko'chirish imkonini beradi. Modullar (masalan, CPU, CP, FM, SM, va PS) ham ko'chirilishi va shu qurilma yoki boshqa qurilmaga (ya'ni, jadval sifatida) nusxa kuyishi mumkin.



Rasm 3-5. Qurilmaning konfiguratsiya menyusi va texnik ta'minoti paneli



Rasm 3-6. Qurilmaning rostdash texnik ta'minoti: stansiya oynasining katalogi va konfiguratsiyasi. **Texnik ta'minot konfiguratsiyasining navigatsiya menyusi va paneli**

	Station menyusi yoki instrumentlar paneli onlayn yoki oflaynda mavjud bo'lgan stansiyalar bilan ishlash; yangi stansiyalarni yaratish va saqlash, hamda tugallangan konfiguratsiyalarni birlashtirish imkonini beradi
1	Station > Open protsedurasini tanlash joriy loyihadan stansiya konfiguratsiyasini ochish, yoki boshqa loyihadan stansiya konfiguratsiyasini ochib ko'rish imkonini beradi
2	Station > New tanlash joriy loyihada yoki boshqa loyihada yangi stansiyaning yaratish imkonini beradi
3	Online <> Offline tugmasini bosib onlayn va oflayn stansiyalardan bir biriga o'tish imkonini beradi
	Edit menyusi va instrumentlar paneli qurilma va modullardan nusxa ko'chirish, qo'shish, shuningdek tanlangan ob'ektning xususiyatlarini tahrirlash imkonini beradi
4	Bir yoki bir necha modullardan nusxa ko'chirish uchun ushbu modullarni tanlab Copy tanlanadi; qo'shish uchun joriy yoki boshqa qurilmada slotni tanlab menyudan yoki sichqonchani o'ng tugmasini bosib Paste tanlanadi
5	Butun qurilmadan nusxa ko'chirish uchun uning sarlavhasiga bosib Copy tanlanadi; stansiyaning joriy oynaning yoki boshqa oynaning konfiguratsiya sohasiga bosib menyudan yoki sichqonchani o'ng tugmasini bosib Paste tanlash mumkin.
6	Biror bir ob'ektni tanlab, uncha o'ng tugmasi bilan bosib Object Properties tanlab,

	ob'ektning hususiyatlarini ko'rish mumkin
	PLC menyusi va instrumentlar paneli konfiguratsiyalarni yuklash imkonini beradi
7	Stansiya konfiguratsiyalanganidan va hatoliklarsiz birlashtirilganidan so'ng PLC > Download buyrug'i stansiyaning yuklash imkonini beradi
8	Konfiguratsiyalarni dasturlash tizimiga yuklash uchun PLC> Upload buyrug'i tanlanadi
	View va Window menyulari ishlash qulayligini ta'minlash uchun stansiyalar oynalarining joylashuvini ko'rish va stansiya bilan bog'langan manzirlarni ko'rish imkonini beradi
9	Agar stansiyaning ko'pmarotabali oynalari ochiq bo'lsa, ularni tanlov asosida joylashtirish mumkin Window > Arrange (Cascade (kaskad), Vertically (vertikal), yoki Horizontally (gorizontal))
10	View tanlab konfiguratsiya vositalarining apparatli katalogini ko'rsatish yoki yashirish imkonini beradi
	Options va instrumental konfiguratsiya vositalari Symbol Editor va Network Configuration kabi vositalar bilan ishlash imkonini beradi
11	Options > Customize tanlash instrumental konfiguratsiya vositalari displey orasida dialog hosil qilish va bog'lash imkonini beradi
12	Options > Configure Network tarmoqni konfiguratsiyasi uchun instrumentlarni ochadi; Options > Symbol simvolik manzil tahririni ochadi.

Stansiya konfiguratsiyasi detallarining obzori

Asosiy tushuncha


Stansiya konfiguratsiya markaziy va kengaytirish qurilmalarini va modullarni, adresli qurilmalarini va modullarni hamda har bir modul uchun standart deb olingan parametrlar olinmaganida, ushbu parametrlarining qiymatlarini o'z ichiga oladi. Yakunlangan konfiguratsiya haqiqiy va real qurilma va modullarini aks ettirishi lozim. Loyiha qurilma detallari konfiguratsiya obzori modul-modul bilan, qurilma- qurilma bilan, stansiya-stansiya bilan ko'rish imkonini bo'lishi kerak.

Asosiy elementlari

Texnik ta'minot konfiguratsiya vositalarining har bir alohida oynada ochiq stansiya sifatida ko'rsatadi. Har bir markaziy qurilma, mahalliy va uzoqlashtirilgan, kengaytirilgan qurilma, yoki stansiyaning tarqalgan kirish/chiqishi (DP etaklanuvchi) konfiguratsiya oynasida yuqori qismidagi panelda tasvirlangan. Har bir qurilma jadvalning ustuni va so'z boshining satri bilan nomlanadi. Har bir DP etaklanuvchi qurilma etaklovchi ob'ekt turi, uning Profibus tomonidan tayinlangan manzili bilan belgilangan va u etaklovchi qurilmaga biriktirilgan yoki biriktirilmagan bo'ladi. Etaklanuvchi qurilma yoki DP yuqori tanlangan bo'lsa, uning detallari stansiya oynaning pastki bo'lmasida, bir jadval sifatida ko'rsatiladi. Har bir jadval qatorlariga mavjud real slot bo'yicha modullar joylashtiriladi.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Obektning belgilangan xususiyatlarini ko'rish uchun shu obektni belgilab keyin sichqonchani o'ng tugmasini bosib u erdan obektning xususiyatlarini tanlash kifoY. Qurilmaning konfiguratsiyasidan CPU ning belgilangan adreslarini ko'rish uchun View > Address > Overview ketma-ketlikni bajarish kerak.



Rasm 3-7. S7 konfiguratsiyasi; ustun-2 yuqori paneldan tanlangan, ustun 2-moduli quyi panelidan tanlanadi.

Stansiya konfiguratsiyasini qurish

Asosiy tushunchalar

Stantsiyasi konfiguratsiyasi – bu S7-300 / S7-400 har bir stantsiyasi uchun yaratilgan loyihadir. Oxir-oqibatda ishlab chiqilgan konfiguratsiya ma'lumotlar PLC ga yuklanib, har bir modul uchun o'rnatilgan parametrlarini o'z ichiga oladi. Protssessor o'rnatilgan so'ng, konfiguratsiya diagnostika maqsadlari uchun qo'llanilishi mumkin. S7-400 va ba'zi S7-300s (masalan. CPU 318-2)da har bir konfiguratsiya har bir nosozlik bo'yicha taqqoslanilishi mumkin.


Asosiy elementlari

Har bir PLC uchun konfiguratsiyani qurish (1) katalogdan komponentni tanlash, va (2) stasion oynasiga komponentini tushirishni o'z ichiga oladi.

Odatda konfiguratsiya markaziy ustun va ehtimol, ba'zi tartibdagi modullar bilan konfiguratsiyalangan kengaytirish qurilmalarini o'z ichiga oladi. Modullar elektr ta'minoti (PS), raqamli/analog signal modul (SM), kommunikatsiya protssessorlari (CP) va funksional modullarni (FM) o'z ichiga olishi mumkin. Har bir moduli konfiguratsiya jadvalda o'ziga taaluqli yacheyka raqamiga katalogdan sudrab kelinadi.

Qo'llash bo'yichamaslahatlar

Qurilmalar konfiguratsiya qilinganidan va saqlangandan so'ng uni ishlatish uchun buyruq tanlab uni tizimli ma'lumotlar blokida (SDB) saqlash lozim. olingan konfiguratsiya. Ushbu konfiguratsiyalar oxir-oqibat PLC yuklanib va tizimli ma'lumotlar bloklarida S7 dasturining oflayn papkasida saqlanadi.



Rasm 3-8. Ustun yuqori panelda tanlanadi, quyidagi panelda aks etilgan modullarni ko'rsatadi.

Stansiya konfiguratsiyasini yuklash

Asosiy tushuncha


Stansiya konfiguratsiya hosil bo'lgandan so'ng, xatolardan holi ekanligini ko'rib olingandan keyingina faqat u PLCga yuklab olinadi. Konfiguratsiya stansiyaning mahalliy, uzoqlashtirilgan va tarqatilgan kirish/chiqish qurilmalarini, shuningdek, konfiguratsiyalangan modullarning (masalan, CPU, CP, FM, SM va boshqalar) barcha parametrlarini aks ettiradi. Konfiguratsiya parametrlari keyinchalik CPU ishga tushirish paytida tegishli modullarga uzatiladi.

Asosiy elementlari

Stansiya konfiguratsiyasida yuklash uchun ba'zi sozlamalar bo'lishi kerak. Kengaytmalar Vakolatlari ishlatiladigan barcha ishlatilayotgan qo'shimcha paketlar uchun o'rnatilgan bo'lishi kerak; har bir tarmoq modulida noyob manzillar bo'lishi kerak: stansiya qurilma va tarmoq konfiguratsiyalari haqiqiy konfiguratsiyaga mos bo'lishi kerak, va hatolardan holi ketma-ket o'qilishlari kerak. Konfiguratsiyalar hatolardan holi ekanligi tekshirilgandan so'ng konfiguratsiyalar joylangan tizimli ma'lumotlar ob'ekti (SDB) stansiya bilan bog'liq Offline Blocks papkasiga (ya'ni, CPU dastur papkasiga) joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

PLCga konfiguratsiyalar birinchi marta yuklab olingayotgan yoki oldin yuklanganidan qad'iy nazar to'llaligicha SPUGa yuklanadi. Qisman konfiguratsiyalarni yuklash mumkin emas. Haqiqiy stansiyasi konfiguratsiya hali tugatilmagan yoki bosqich ma bosqich nihoyasiga etkaziladigan bo'lsa, apparat vositalarining bir qismini (masalan, markaziy kontroller qurilmasi va modullari) aks ettiradigan bosqich ma bosqich vaqtinchalik loyihani yaratish kerak.



Rasm 3-9. Konfiguratsiya bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilishga yo'naltirilgan modulni ro'yhatini barcha modullar bilan ko'chirib olish.

Stansiya konfiguratsiyasini yuklab taqqoslash

Asosiy tushuncha


Har bir stantsiya konfiguratsiyada boshidan oxirigacha odatda qurilmalarni konfiguratsiyalash vositalaridan foydalaniladi. Ba'zi hollarda, ishni mavjud PLCdan konfiguratsiyalarni yuklab olish bilan boshlash mumkin. Ushbu holat qurilma vositalari konfiguratsiyalar ishga tushirishdan oldin yuklanib olinganlarida, yoki yaratilayotgan stantsiya mavjud stansiyalarga o'xshash bo'lganida vujudga keladi. Yuklangan stantsiya faqat yangi stantsiya konfiguratsiyani qurish uchun tezkor ishni boshlash uchun hizmat qilishga mo'ljallangan.

Asosiy elementlari

Stantsiyas biroq mavjud loyihaga yuklanishi mumkin, ammo bo'sh bo'lgan loyihaga yuklanilishini tavsiya etilgan. Yuklab olingan stansiyaga asoslangan yangi stansion ob'ektini yuklash ochiq loyihada amalga oshiriladi – bu erda qayta yozish va oflayn ma'lumotlarining shikastlanishini oldini oladi. S7-300da barcha markaziy va kengaytirilgan qurilmalar konfiguratsiyalari yuklanadi, S7-400da esa markaziy qurilmalar konfiguratsiyalari va modullari yuklanadi, ammo hech qaysi kengaytirilgan qurilma konfiguratsiyalari yuklanmaydi. Kirish/chiqish kengaytmalari uchun hech qanday konfiguratsiyalar yuklanmaydi. S7-300 va S7-400 uchun yuklangan konfiguratsiyalar standart manzillashdan foydalangan bo'lsada, S7-400 da va S7-300ning ba'zi stansiyalarida manzillash SPUga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Bir yoki bir necha boshqa stansiyalarga bog'liq bo'lgan stansiyalar (masalan, Master/Intelligentda DP etaklanuvchi qurilma) har doim birga yuklanishlari kerak. Agar tobe stansiyalar birga yuklanmasa, stansiyalar saqlash va yig'ish jarayonida batartib qolishi mumkin. Agar tarkibiy qism sonlari to'liq bo'lmasa, ma'lum bir qismlar STEP 7 tomonidan tan olinmay, katalogda komponentlari aks etilmagan bo'lishlari mumkin. Apparat vositalarni konfiguratsiyalaganda "Tugallanmagan" 1 tartib raqamini Options menyusidagi Specify Module buyrug'i yordamida kiritish mumkin.



Rasm 3-10. Yuklashga mo'ljallangan, stansiyaga ruxsat beruvchi dialog.

Kirish / Chiqish moduli uchun simvolli manzilni tayinlash

Asosiy tushunchalar

Simvolli manzillar S7 xotirasi joylarda alfa nomi bilan turli sonda beriladi. STEP 7 dasturi tomonidan xotira joyiga mazmuniga o'xshash manzillar uchun nomlar tayinladib shu bilan

tushunish va muammolarni bartaraf etishea yordam etkaziladi. Simvulli manzillarni odatda to'g'ridan to'g'ri kiritilganda *Symvol jadvali* ochildi. SIMATIC menejeri yordamida siz O moduli bilan birga simvulli manzillarini kiritishingiz mumkin , kurilma konfiguratsiya xam kiritilishi mumkin.

Asosiy elementlar

Mutlaq manzil ramzi sifatida mazmunli manzilni yaratish uchun tegishli 24-belgilardan iborat bo'lgan o'rinbosar manzilini tayinlash kerak.

Har bir manzilga raqamli kirish yoki raqamli chiqish moduli, xamda analog kirish yoki chiqish moduli joylashtirilganda, simvulli manzilga individual kirish/chiqish ham yuklatilishi mumkin.

Raqamli kirishlar va chiqish uchun " PIW " mutlaq xotira maydoni va analog kirishlar uchun analog chiqish uchun " PQW " belgilanadi.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Bundan tashqari, SIMATIC Manajer ramzlari muharriri yordamida kirish/chiqish modullar uchun simvulli manzillar kiritishingiz mumkin bo'ladi. "Simbol" jadvali ob'ekt ustiga ikki marta bosganda ishga tushirilishi mumkin. Ramzlar muharriri va ommaviy muharriri asboblar panelida mavjud bo'lgan LAD belgisi hamda monitordagi / FBD / yordamida o'zgartiriladi. Ramzlar muharriri kiritgan simvulli manzillarda global ramzlar mavjud. Agar global belgisi bilan murojaat qilinsa, unda oldin bir funt belgisi (masalan. # TEMP_1) bo'lishi kerak.

Address	Symbol	Data Type	Comment
I 0.0	START_PB_00	BOOL	
I 0.1	START_PB_01	BOOL	
I 0.2	START_PB_02	BOOL	
I 0.3	START_PB_03	BOOL	
I 0.4	START_PB_04	BOOL	
I 0.5	START_PB_05	BOOL	
I 0.6	START_PB_06	BOOL	
I 0.7	I0.7	BOOL	
I 1.0	STOP_PB_00	BOOL	
I 1.1	STOP_PB_01	BOOL	
I 1.2	I1.2	BOOL	
I 1.3	STOP_PB_03	BOOL	
I 1.4	STOP_PB_04	BOOL	
I 1.5	I1.5	BOOL	
I 1.6	STOP_PB_06	BOOL	

Rasm 3-11. Qurilma konfiguratsiyasining simvulli adreslarini raqamli kirish/chiqishda ekspress chop etilishi.

Address	Symbol	Data Type	Comment
PIW 352	D1_SPEED_5P	WORD	Drive #1 Speed Setpoint
PIW 354	D2_SPEED_5P	WORD	Drive #2 Speed Setpoint
PIW 356	D1_PSI	WORD	Drive #1 PSI
PIW 358	D2_PSI	WORD	Drive #2 PSI
PQW 352	D1_SPEED	WORD	Drive #1 Speed Controller
PQW 354	D2_SPEED	WORD	Drive #2 Speed Controller
PQW 356	PQW356	WORD	
PQW 358	PQW358	WORD	

Rasm 3-12. Qurilma konfiguratsiyasining simvulli adreslarini analogi kirish/chiqishda ekspress chop etilishi.

S7-300 kirish/chiqish ni lokal kengayishini rostdash

Asosiy tushuncha

S7-300 qo'shimcha I / U imkonini berish uchun bir S7-300 markaziy Ustun mahalliy kirish/chiqish kengayishini ta'minlaydi modullar. Siz foydalanib, S7-300 markaziy engillashtirishni uch qo'shimcha kirish/chiqish relssiz qadar ulanish mumkin interfeysi modullar (Chat) deb ataladi qismlariga. mahalliy kirish/chiqish kengaytirish o'z ichiga oladi qo'shib S7-300 markaziy engillashtirishni bir jo'natuvchi interfeysi moduli joylashtirish va uning mos har bir kengaytirish engillashtirishni qabul qiluvchi interfeysi. Asosiy elementlari IM 360 S7-300 markaziy panjaraga joylashtirilgan bir jo'natuvchi interfeysi moduli hisoblanadi. IM 360 tegishli qabul qiluvchi modul har bir bayrok IM 361, deb qo'shimcha kengaytirish engillashtirishni. S7-300 interfeysi modul har doim uyasi-3 o'rnatilgan.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Uchtagacha qo'shimcha kirish/chiqish javonlar S7-300 tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ularni ulash mumkin yo gorizontal yoki vertikal. 30 metr A maksimal masofa markaziy ruxsat etiladi. O'tgan kengaytirish panjaraga uchun engillashtirishni. Har bir ustun o'rtasidagi maksimal masofa 10 metr bo'ladi. Bu kengaytirish (har bir engillashtirishni uyasi-4 uyasi-11) o'ttiz ikki modul uyasi ta'minlaydi bo'lsa-da, kirish/chiqishsoni Haqiqiy maksimal CPU qaram bo'lib qoladi.



Rasm 3-14. IM360/IM361 ni ishlatgan holda S7-300 lokal kirish/chiqish ning 4 ta ustungacha kengaytmasi.

S7-300 Bir pog'onali S7-300 ning kirish/chiqish kengaytmasini rostdash

Bu vazifa bir S7-300 konfiguratsiyasining markaziy panjarasida bir Ustun tuzilmasiga kengaytmasini o'z ichiga oladi. Markaziy Ustunga jalb qilingan kengaytirish bir konfiguratsiyani engillashtirib beradi.

Bu konfiguratsiya orqasidagi kengaytirish moduli (IM) o'zgartirishi mumkin bo'lsa, unda markaziy modul maksimum 16tagacha kirish/chiqish modullar ishini ta'minlaydi. Markaziy va kengaytirish ustun o'rtasidagi aloqa kabeli metr bilan belgilangan.


Asosiy elementlari

IM 365 markaziy Ustunida joylashtirilgan kengaytirish bitta jo'natuvchi/qabul qiluvchi interfeysi moduli ishini engillashtiradi.

S7-300 konfiguratsiyaning slot-3 da o'rnatilgan qo'zg'almas bosqichli interfeys moduli har doim qo'llanadi. Ushbu kengaytirishni engillashtirish uchun hech qanday qo'shimcha elektr ta'minoti talab qilinmaydi. Markaziy Ustun konfiguratsiyasida ulanishlar uchun shina orqali kabel taqdim etiladi.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

Ikki pog'onali kengaytirish konfiguratsiya uchun odatda kichik bo'lgan o'rnatish kirish/chiqish moduli ishlatiladi. Faqat raqamli va analog signal modullar bu kengaytirish taglikka joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik kengaytirish olib tashlash talab qiladi IM-365 juft va IM-360 / IM-361 birlashtirish foydalanish.



Rasm 3-15. IM365 juftlik yordamida S7-300 ikki pog'onali tog'rilangan chiqish/kirish kengaytmasi.


S7-300 ni DP Master Basic tushunchasi kabi konfiguratsiyalash.

S7-300 tarqalgan qo'llab-quvvatlaydi kirish/chiqish, faoliyat Profibus D.P.Makovitskiy ildizini yordamida ko'p masofadan kirish/chiqishkabi. DP konfiguratsiya bir yoki bir necha jalb mumkin *DP Master punktlari*, qaysi har biri yoki undan ko'proq tayinlangan I/U boshqaradi *DP Tobe stantsiyalari*. Qarab arizangizni talablari, DP ustasi, siz tanlashingiz mumkin *yo bir S7-300 DP master qobiliyati yoki DP qobiliyati bilan Profibus kommunikatsiya protsessori (cp) bilan.*


DP master integratsiya Profibus-DP interfeys bilan, S7-300 CPU yordamida tuzilgan mumkin (Masalan, CPU 315-2 DP yoki CPU 316-2 DP); yoki DP bilan Profibus kommunikatsiya protsessor foydalanish master qobiliyati (masalan. CP342-5 yoki CP342-5 FO. OTAL uchun), bir protsessor bilan birgalikda ushbu xususiyatni qo'llab-quvvatlaydi. Har qanday holatda ham, DP master bir xil vazifani ijro etadi. DP ustasi konfiguratsiya, DP ustasi Ihe PROFIBUS interfeysi uchun ottoched kerak Protibus Quyi tarmoq kerakli va noyob Profibus Manzil tayinlanadi (masalan, 3-125). Agar emas ilgari o'rnatilgan, keyin kichik tarmoq operatsion parametrlarni (masalan. uzatish rote, profili) ham bo'lishi kerak belgilangan. Konfiguratsiya vazifani, qarang *qo'shish va Profibus Subnet ko'rinish, 7-dars.*

Qo'llash bo'yicha maslahatlar


Odatda, bir DP kichik tarmoq bitta DP usta jalb qiladi. Bu bir Mono-master deb ataladi konfiguratsiya. Bundan tashqari, oddiy tomonidan bir loyiha doirasida bir necha mono-master tizimlari bo'lishi mumkin bir necha PROFIBUS D.P.Makovitskiy pastki yaratish va har bir uchun DP usta ilova. A Multi-Master Bundan tashqari, odatda, balki-da, bir kichik tarmoq ustida ikki yoki undan ortiq ustalari jalb konfiguratsiya, mumkin. Siz bir xil DP kichik tarmoqqa DP magistrlar qo'shib bu bo'lardi.



Rasm 3-16. S7-300 CPU 315-2 DP da DP ning yetakchi qurilmasi sifatida belgilangan.



Rasm 3-17. . S7-300 CP-342-5 da DP ning yetakchi qurilmasi sifatida belgilangan.



Rasm 3-18. Master S7-300 CPU 315-2 DP tomchi ET200 M modulli kirish/chiqish bilan biriktirilgan.

DP modulni rostdlash va ulash.


Asosiy tushuncha

S7-300 tarqalgan qo'llab-quvvatlaydi kirish/chiqish, faoliyat Profibus DP master ildizi yordamida uzoq masofadan kirish/chiqish tomchi. DP konfiguratsiya bir yoki bir necha DP Master punktlari o'z ichiga oladi. qaysi har biri yoki undan ko'proq tayinlangan DP stansiyalarini I / U boshqaradi. A modulli D.P. Makovitskiy stansiyani radius, individual kirish/chiqish modul kirish/chiqish bazasi o'rnatilgan bo'lgan biri hisoblanadi. Misollar modulli DP quyi tizimlar ET-200m o'z ichiga oladi. ET-200L SC. ET-200S. va ET-200iS. Ilova Profibus Ichki tarmoq va DP master allaqachon mavjud bo'lsa tuzilgan modulli DP soddalashtirilgan tuzilgan.


DP biriktirilgan bo'ladi qaysi DP master, bir S7-300 yoki S7- tomonidan taqdim etiladi. 400 CPU bir DP interfeysi (masalan, CPU 315-2 DP CPU 416-2 DP]; yoki tomonidan tashkil kommunikatsiya protsessor DP master qobiliyati bilan (cp) (masalan. CP342-5 yoki CP443-5 Ext.) vamos keluvchi CPU. Har birmodulli DP foydalanib DP master tizimiga ilova qilinadib bir tartibga solish bilan birga, S7-300 o'rnatish temir ustiga o'rnatilgan black moduli (IM) kirish/chiqish modullarni. Har bir IM (masalan. 3-125) noyob Profibus manzili beriladi. Bir necha modulli kirish/chiqish slublar mavjud. IM Sizning tanlov sonini aniqlaydi va foydalanish mumkin modullar turi. Berilgan IM tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan modul qurilma mavjud bo'lgan katalogi, o'ziga xos interfeysi moduli (IM) papka ostida. ET-200M. bir necha variantlari asosida IM-153. Misol uchun, S7-300 Module foydalanadi. Smart Connect ET-200S oila modullar IM-151 foydalanish ulanadi. Modulli DP yetaklanuvchilarning har bir oila bir topilgan qurilma katalogi papkani mos.

Qo'llash bo'yicha Maslahatlar

Agar DP Master tizimi, har birqo'shishingiz sifatida. STEP 7 avtomatik ravishda keyingi solid mavjud manzili. Siz aks holda zarur bo'lsa STEP 7, manzil tayinlash uchun ruxsat berish kerak. Kamida bitta modulli DP to'ldiruvchi ustasi oldin DP master tayinlangan bo'lishi kerak bo'ladi saqlash va xatolar holda kompilyatsiya. Siz kamida bir har bir modullik urish kerak bir necha DP master tizimlari (ya'ni, DP pastki tarmog'i) loyihasi bo'lsa moduli, ta'minlash sizga buto'g'ri kichik tarmoqqa har birqo'shishingiz.



Rasm 3-19. S7-300 DP master modulli DP ga bog'langan. Obekt master sistema DP qora-oq liniya ko'rinishiga ega.



Rasm 3-20. Master S7-300 CPU 315-2 DP ET200M DP modul bilan.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1 - AMALIY MASHG'ULOT. MANTIQUIY ELEMENTLAR USTIDA AMALLAR BAJARISHNI O'RGANISH

Ishdan maqsad: Mantiqiy elementlar ustida amallar bajarish.

Qisqacha nazariy ma'lumot

Zamonaviy hisoblash texnikasida axborotni raqamli qayta ishlash usuli muhim rol o'ynaydi. Raqamli yarim o'tkazgichli IMSlar hisoblash texnikasi qurilmalari va tizimining negiz elementi hisoblanadi. Hisoblash mashinalari tomoniday qayta ishlanayotgan berilganlar, natija va boshqa axborotlar faqat ikki qiymat oladigan (ikkilik sanoq tizimi) elektr signallari ko'rinishida ifodalanadi.

Raqamli qurilmalar ishlash algoritmini ifodalash uchun bul' algebrasi yoki mantiq algebrasi qo'llaniladi. Mantiq algebrasi doirasida raqamli sxema kirish, chiqish va ichki qismlariga mos ravishda bul' o'zgaruvchilari o'rnatiladi va ular faqat ikki qiymat qabul qilishi mumkin:

$$X=0 \text{ agar } X \neq 1; \quad X=1 \text{ agar } X \neq 0.$$

Bul' algebrasi asosiy amallari bo'lib mantiqiy qo'shuv, ko'paytiruv va inkor amallari hisoblanadi.

Mantiqiy qo'shuv. Bu amal YoKI amali yoki diz'yunksiya deb ataladi. Ikki o'zgaruvchini mantiqiy qo'shish postulatlar 9.1 – jadvalda keltirilgan.

Bunday jadvallar *haqiqiylik jadvallari* deb ataladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu amal ixtiyoriy o'zgaruvchilar soniga mo'ljallangan. Amal bajarilayotgan o'zgaruvchilar soni, uning belgisidan oldin turgan raqam bilan ko'rsatiladi. Demak, 1 – jadvalda 2YoKI amali bajarilgan.

1 - jadval

X1	X2	Y=X1+X2
0	0	0
0	1	1
1	0	1
1	1	1

Mantiqiy ko'paytiruv. Bu amal HAM amali yoki kon'yunksiya deb ataladi. Mantiqiy ko'paytiruv postulatlar 2 – jadvalda keltirilgan.

2 - jadval

X1	X2	Y=X1·X2
0	0	0
0	1	0
1	0	0
1	1	1

Mantiqiy inkor. Inkor amali inversiya yoki to'ldirish deb ataladi. Inkor postulatlar 3 – jadvalda keltirilgan.



3– jadval

X	Y
0	1
1	0

Mantiqiy element yoki mantiqiy operatsiyalarni birinchi bo'lib fanga ingliz matematigi Djordj Bul' kiritdi. Bu mantiqiy amallar qo'shish ko'paytirish av inkor amallaridan iborat. Mantiqiy amallarning avtomatlashtirishdagi ahamiyati juda katta hisoblanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonalarini avtomatlashtirish negizida asosan shu uch amal qo'llaniladi. Mantiqiy elementlar faqat ikkilik sanoq sistemasida ishlash imkoniga ega bo'lib unda "0 yolg'on" va "1 rost" hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan amallar quyidagi ko'rinishga ega:


Qo'shish amali.



Qo'shish amalida kirish signalining ixtiyoriy biri "rost" yoki ikkita kirish ham "rost" bo'lganda chiqish signali ham "rost" bo'ladi.


Ko'paytirish amali.

*



Ko'paytirish amalida kirish signalining ixtiyoriy biri "yolg'on" bo'lganda chiqish signali ham "yolg'on" bo'ladi, faqat ikkala kirish ham "rost" bo'lganda chiqish "rost" bo'ladi.

Inkor amali.



Bu amal kirish signalini teskarisiga aylantirib berik xususiyatiga ega, "rost" bo'lganda "yolg'on" yoki aksincha.

Teng kuchli formulalar va teng kuchli almashtirishlar

Mulohazalar algebrasining ixtiyoriy formulasi o'zining rostlik jadvali bilan xarakterlanadi.

1-misol. $A \rightarrow B \wedge \bar{C}$ formulaga ushbu rostlik jadvali mos keladi.

A	B	C	\bar{C}	$B \wedge \bar{C}$	$A \rightarrow B \wedge \bar{C}$
R	R	R	Yo	Yo	Yo
R	R	Yo	R	R	R
R	Yo	R	Yo	Yo	Yo
R	Yo	Yo	R	Yo	Yo
Yo	R	R	Yo	Yo	R
Yo	R	Yo	R	R	R
Yo	Yo	R	Yo	Yo	R
Yo	Yo	Yo	R	Yo	R

Topshiriqlar:

1-Topshiriq. Quyidagi mantiqiy formularning chinlik jadvalini tuzing:

№	Mantiqiy formula
1.	$x \wedge (z \leftrightarrow \bar{y} \vee z) \rightarrow \bar{y} \rightarrow \bar{x} \wedge y$
2.	$(y \wedge z \wedge \bar{y}) \vee x \leftrightarrow \bar{z} \vee x \rightarrow \bar{y}$
3.	$z \wedge (x \leftrightarrow \bar{y} \vee x) \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x} \vee y$
4.	$x \wedge z \leftrightarrow \bar{y} \vee (z \rightarrow \bar{y} \rightarrow \bar{x})$
5.	$y \wedge (z \wedge \bar{y}) \vee x \leftrightarrow \bar{x} \wedge \bar{z}$

6	$y \wedge x \leftrightarrow \bar{y} \vee x \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x} \wedge y$
7	$z \wedge y \rightarrow x \leftrightarrow \bar{y} \vee (x \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x})$
8	$y \wedge (z \leftrightarrow \bar{y} \vee x) \rightarrow \bar{z} \rightarrow \bar{x}$
9	$(x \wedge \bar{x} \wedge \bar{y}) \vee z \leftrightarrow \bar{z} \vee \bar{y} \rightarrow x$
10	$z \wedge (x \wedge \bar{y} \vee x) \rightarrow (z \leftrightarrow x) \vee y$
11	$\bar{x} \wedge z \leftrightarrow \bar{y} \vee (z \rightarrow \bar{y} \rightarrow \bar{x})$
12	$\bar{y} \wedge (z \wedge \bar{y}) \vee x \leftrightarrow \bar{x} \wedge \bar{z}$
13	$y \wedge \bar{x} \leftrightarrow \bar{y} \vee x \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x}$
14	$\bar{z} \wedge \bar{y} \rightarrow x \leftrightarrow \bar{y} \vee (x \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x})$
15	$z \leftrightarrow x \wedge (z \leftrightarrow \bar{y} \vee z) \rightarrow \bar{y} \vee \bar{x}$
16	$x \rightarrow (z \wedge \bar{z} \wedge \bar{y}) \vee x \leftrightarrow \bar{y} \wedge \bar{x}$
17	$\bar{y} \vee z \wedge (x \leftrightarrow \bar{y} \vee x) \rightarrow \bar{z} \wedge \bar{x}$
18	$\bar{z} \vee x \wedge z \leftrightarrow \bar{y} \vee (z \rightarrow \bar{y} \rightarrow \bar{x})$

2-Topshiriq. Quyidagi mantiqiy formularning chinlik jadvali va mantiqiy sxemasini tuzing:

№	Mantiqiy formula
1.	$x \wedge (z \wedge \bar{y} \vee z) \vee \bar{y} \vee \bar{x} \wedge y$
2.	$(y \wedge \bar{z} \wedge \bar{y}) \vee x \wedge \bar{z} \vee x \wedge \bar{y}$
3.	$z \wedge (x \wedge \bar{y} \vee x) \wedge \bar{z} \wedge \bar{x} \vee y$
4.	$x \wedge z \wedge \bar{y} \vee (z \vee \bar{y} \wedge \bar{x})$
5.	$y \wedge (z \wedge \bar{y}) \vee x \wedge \bar{x} \wedge \bar{z}$
6.	$y \wedge x \vee \bar{y} \vee x \wedge \bar{z} \wedge \bar{x} \wedge y$
7.	$z \wedge y \vee x \wedge \bar{y} \vee (x \vee \bar{z} \wedge \bar{x})$
8.	$y \wedge (z \vee \bar{y} \vee x) \wedge \bar{z} \wedge \bar{x}$
9.	$(x \wedge \bar{x} \wedge \bar{y}) \vee z \wedge \bar{z} \vee \bar{y} \vee x$
10.	$z \wedge (x \wedge \bar{y} \vee x) \wedge (z \vee x) \vee y$
11.	$\bar{x} \wedge z \vee \bar{y} \vee (z \vee \bar{y} \wedge \bar{x})$
12.	$\bar{y} \wedge (z \wedge \bar{y}) \vee x \vee \bar{x} \wedge \bar{z}$
13.	$y \wedge \bar{x} \wedge z \vee \bar{x} \vee \bar{z} \wedge \bar{x}$
14.	$\bar{z} \wedge \bar{y} \wedge x \vee \bar{y} \vee (x \vee \bar{z} \wedge \bar{x})$
15.	$z \vee x \wedge (\bar{z} \wedge \bar{y} \vee z) \wedge \bar{y} \vee \bar{x}$
16.	$x \wedge (z \wedge \bar{z} \wedge \bar{y}) \vee x \vee \bar{y} \wedge \bar{x}$
17.	$\bar{y} \vee z \wedge (x \wedge \bar{y} \vee x) \vee \bar{z} \wedge \bar{x}$
18.	$\bar{z} \vee x \wedge z \vee \bar{y} \vee (z \vee \bar{y} \wedge \bar{x})$

Nazorat savollari.

1. Mantiqiy elementlarni sanab bering?
2. Mantiqiy elementlarning ishlash prinsipi?
3. Mantiqiy elementlarni qo'llanilish sohasi?

2 - AMALIY MASHG'ULOT.
MATLAB DASTURIDAGI ISHCHI OYNALARDA AMALLAR BAJARISHNI, SIMULINK QISM
DASTURIDAGI MAXSUS BLOKLAR BILAN ISHLASHNI VA ANIMATSION JARAYONLARDAGI
KONSTRUKTIV PARAMETRLARNING TA'SIRINI O'RGANISH
(4 soat)

Ishdan maqsad: MATLAB tizimida ishlash asoslarini o'rganish, interfeysi bilan tanishish, standart funksiyalar bilan ishlash, oddiy hisoblashlar ustida amallar bajarib tajriba ko'nikmalarni mustahkamlash. MATLAB amaliy dasturi tarkibiga kiruvchi Simulink dasturi bilan tanishish. Tadqiq etilayotgan ARS struktura sxemasini dasturda tasvirlash va zvenolar bog'lanishining strukturaviy o'zgartirishlar ko'nikmasini mustahkamlash.

MATLAB muhiti grafikasi elementlari bilan ishlash, 2 va 3 o'lchovli funksiyalar grafiklarini chizish ustida amallar bajarib tajriba ko'nikmalarni mustahkamlash.


Jihozlar: Pentium tipidagi shaxsiy EHM, MATLAB dasturi.

Qisqacha nazariy ma'lumot.

MATLAB sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: mexanika, matematika, fizika, muxandislik va boshqaruv masalalarini yechish, turli xil mexanik, energetik va dinamik sistemalarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish masalalarining aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistema va turli xil sohali foydalanuvchilarga muljallangan dasturlash tilidir.

MATLAB tizimi interfeysi. MATLAB tizimining asosiy oynasi quyidagicha ko'rinishda bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat:

1.	Sarlavha satri;	5.	Komandalar ishchi varag'i;
2.	Asosiy menyular satri;	6.	Oxirgi yozilgan komandalar ro'yxati;
3.	Uskunalar paneli;	7.	Holat satri.
4.	Ishchi soha;		



1-rasm. MATLAB tizimining asosiy oynasi

2. MATLAB dasturlash tili alifbosi va oddiy arifmetik amallar.

MATLAB dasturlash tilida boshqa dasturlash tillari kabi lotin alifbosining A dan Z gacha barcha katta va kichik harflari, 0 dan 9 gacha arab raqamlaridan foydalaniladi. Katta va kichik harflar, xuddi C++ dasturlash tilidagidek, ham o'zgaruvchi sifatida, ham ozgarmas sifatida bir-biridan farq qiladi. Lotin alifbosi harflaridan tashqari, klaviaturadagi barcha maxsus belgilardan foydalaniladi.

Buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi. O'zgaruvchi nomi nechta va qanaqa belgi yoki belgilardan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, lotin harflaridan boshlanib, 63 ta belgidan oshmasligi shart. Katta va kichik harflar bir-biridan farq qiladi. Agar buyruq o'zgaruvchi nomi yozilmay bajarilsa, buyruq natijasi maxsus ans(inglizcha answer-javob) o'zgaruvchisi orqali beriladi. Ishchi sohadagi o'zgaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni who yoki whos buyruqlari orqali ko'rish mumkin.

1) o'zgarmaslar

T. R	O'zgarmaslar	O'zgarmaslarning aytilishi
1.	Pi	π soni
2.	i yoki j	mavhum son
3.	Inf	cheksizlik
4.	NaN	$\frac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik
5.	True	mantiqiy rost
6.	False	mantiqiy yolg'on

2) arifmetik amallar:

T. R	Arifmetik amal belgilari	Arifmetik amal belgilari aytilishi
1.	+	Qo'shish(skalyar yoki matritsaviy)
2.	-	Ayirish(skalyar yoki matritsaviy)
3.	*	Ko'paytirish(skalyar yoki matritsaviy)
4.	/	Bo'lish(skalyar)
5.	^	Darajaga ko'tarish(skalyar yoki matritsaviy)
6.	.*	Massiv mos elementlari buyicha ko'paytirish
7.	./	O'lchovlari bir xil massiv mos elementlari buyicha bo'lish
8.	.^	Massiv mos elementlari buyicha darajaga ko'tarish
9.	\	Martitsaviy chapdan unnga bo'lish
10.	.\	Massiv mos elementlari buyicha chapdan unnga bo'lish
11.	'	Qo'shma matritsani hisoblash
12.	.'	Transponerlash

MATLAB da matematik ifodalar ma'lum bir bajarilish tartibiga asosan bajarililadi. Avval mantiqiy amallar, so'ngra arifmetik amallar: avval daraja, keyin ko'paytirish va bo'lish, undan keyin esa qo'shish va ayirish bajariladi. Agar ifodada qavslar bo'lsa, avval qavs ichidagi ifoda yuqoridagi tartibda bajariladi.

3) munosabat amallari:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
1.	= = ; (x = y)	Teng
2.	~ = ; (x ~ = y)	Teng emas
3.	< ; (x < y)	Kichik
4.	> ; (x > y)	Katta
5.	< = ; (x < = y)	Kichik yoki teng
6.	> = ; (x > = y)	Katta yoki teng

4) mantiqiy amallar:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
1.	& ; and (and (a, b))	va
2.	; or (or (a, b))	yoki
3.	~ ; not (not (a, b))	inkor
4.	xor (xor (a, b))	
5.	any (any (a))	
6.	all (all (a))	

1 - TOPSHIRIQ

1. Buyruqlar satriga o'ting.

$\sqrt{4 + \sqrt{9}}$ ning qiymatini hisoblash uchun buyruqlar satriga

>> sqrt(4+sqrt(9)) ni kiriting. Enter tugmachasini bosib natijani chiqarish mumkin:

ans =

2.6458

2. $\frac{\sqrt{25-4}}{\sqrt{3}}$ ni hisoblang.

>> (sqrt(25)-4)/sqrt(3)

3. $\sin(\pi/3) - \cos(\pi/3) \arctg(1)$ ni hisoblang.

>> sin(pi/3)-cos(pi/3)*atan(1) ni kiritib, natijani chiqaring.

Masalan:

$$c = \sqrt{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}} + \sqrt[3]{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}}$$

ifodani $x = 0.2$ va $y = -3.9$ dag qiymatini

hisoblaymiz:

>> x=0.2;

>> y=-3.9;

>> c=sqrt((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))+...

((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))^(1/3)

c =

2.0451

Dasturlashda shunday vaziyatlar bo'ladiki, bunda ifodani hisoblashda oraliq o'zgaruvchilarni kiritib(yoki ifodani qismlarga bo'lib) qadamma-qadam hisoblash mumkin. Yuqoridag misolni qaraymiz:

>> x=0.2;

>> y=-3.9;

>> a=sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);

>> b=cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);

>> c=sqrt(a/b)+(a/b)^(1/3)

c =

2.0451

Izoh: MATLAB tizimi ma'lumotnomasida barcha Toolboxlar, ularning buyruqlari va ularni ishlatishga doir ayrim ko'rsatma hamda namunaviy misollar berilgan bo'lib, foydalanuvchini o'ziga kerakli bilimlarni mustaqil egallashida muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda asosiy standart funksiyalar va ularning MATLABdagi yozilish qoidalari keltirilgan.

MATLABning standart funksiyalari			
Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda	Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda
e^x	exp(x)	arcsinx	asin(x)
$\ln x$	log(x)	arccosx	acos(x)
$\lg x$	log10(x)	arctgx	atan(x)
$\log_2 x$	log2(x)	arcctgx	acot(x)
\sqrt{x}	sqrt(x)	shx	sinh(x)
$ x $	abs(x)	chx	cosh(x)
$\sin x$	sin(x)	thx	tanh(x)
$\cos x$	cos(x)	cthx	coth(x)
$\operatorname{tg} x$	tan(x)	arcch	acosh(x)
$\operatorname{ctg} x$	cot(x)	arccth	acoth(x)
$\operatorname{sec} x$	sec(x)	arcsech	acsch(x)
$\operatorname{cosec} x$	csc(x)	arcsech	asech(x)

Izoh: MATLABda bundan tashqari turli-tuman maxsus funksiyalarni qiymatlarini hisoblash uchun mo'ljallangan buyruqlar ham mavjud. Bu buyruqlarni hisoblashda MAPLE tizimining maxsus funksiyalaridan(MAPLE tizim yadrosida mavjud) foydalaniladi. Bu buyruqlarni >> help elfun va >> help mfunlist kabi buyruqlarini berish orqali batafsil ko'rish mumkin.

2 – TOPSHIRIQ

1. >> help elfun va >> help mfunlist buyrug'ini bajarib, yuqoridagi standart va boshqa maxsus funksiyalarini ko'ring.

2. $\sin \frac{\pi}{2} + \cos \frac{5\pi}{2}$ ni qiymatini hisoblash uchun buyruqlar satriga

>> sin(pi/2)+cos(5*pi/2) ni kiritib, Enter ni bosamiz. Natijada 1 ga ega bo'lamiz.

3. Endi $\sin^4 \frac{\pi}{4} + \cos^4 \frac{3\pi}{4}$ ni hisoblaylik.

> combine((sin(pi/4))^4+(cos(3*pi/4))^4)

ans =

0.5000

4. $\sin^4 \frac{\pi}{8} + \cos^4 \frac{3\pi}{8} + \sin^4 \frac{5\pi}{8} + \cos^4 \frac{7\pi}{8}$ ni hisoblash uchun esa buyruqlar satriga

>> combine((sin(pi/8))^4+(cos(3*pi/8))^4+(sin(5*pi/8))^4+(cos(7*pi/8))^4)

ni kiritib va Enter tugmasini bosib. Natija

ans =

1.5000

4. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar

MATLABda matematik ifodalar ustida shakl almashtirish jarayonida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- O'xshash hadlarni ixchamlash;
- Ko'paytuvchilarga ajratish;
- Qavslarni ochish;
- Ratsional kasrlarni qisqartirish va shu kabilar

Bunday simvulli hisoblashlarni bajarishdan oldin ifodadagi o'zgaruvchilar *syms* yordamchi buyrug'i (*syms* inglizcha "symbols", ya'ni "simvollar" so'zining qisqa ifodasi) orqali e'lon qilinadi. Masalan:

>> syms x y z a b c d

Ifodalarda shakl almashtirishlar.

Ifodalarda qavslarni ochib, ularning hadlarini ixchamlash `expand(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi:

>> syms x y z a b c d e

>> P=(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)

P =

(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)

>> P1=expand(P)

P1 =

x^6-1

Ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish uchun esa `factor(<ifoda>)` buyrug'idan foydalanamiz. Masalan:

>> factor(P1)

ans =

(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)

>> factor(x^5-x^4-7*x^3+x^2+6*x)

ans =

x*(x-1)*(x-3)*(x+2)*(x+1)

Ifodalarni soddalashtirish `simplify(<ifoda>)` yoki `simple(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Masalan:

>> P2=(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))

P2 =

(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))

>> simplify(P2)

ans =

2*cos(x)^2-1

Bundan tashqari, ifodalar ustida shakl almashtirishlarda kerak bo'ladigan `collect`, `numden`, `horner`, `subexpr`, `subs` kabi bir qator buyruqlari mavjud va uni mustaqil o'rganishni foydalanuvchiga qoldiramiz.

3- TOPSHIRIQ

1. $p = x^3 + 4x^2 + 2x - 4$ ko'phadni ko'paytuvchilarga ajratish uchun buyruqlar satriga

>> factor(x^3+4*x^2+2*x-4) ni kiritib va Enter tugmasini bosib.

2. $p = x^4 - 4x^3 + 2x^2 - 4x^2$ bo'lganda

>> factor(x^4-4*x^3+2*x^2-4*x^2)

$\frac{1 + \sin 2x + \cos 2x}{1 + \sin 2x - \cos 2x}$

3. ifodani soddalashtirish uchun esa buyruqlar satriga quyidagilarni tering.

- >> simplify(1+sin(2*x)+cos(2*x))/(1+sin(2*x)-cos(2*x))
 4. $(\sin^2 x + \cos^2 x) - 2(\sin^4 x + \cos^4 x)$ ni soddalashtiring:
 >> simplify(sin(x)^2 + cos(x)^2) - 2*(sin(x)^4 + cos(x)^4)
 5. Barcha nazorat topshiriqlarini bajaring va nazorat savollariga javob bering.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI

1. Quyidagi ifodalarni $x = -1.75 \cdot 10^{-3}$ va $y = 3.1 \cdot \pi$ bo'lgandagi qiymatini hisoblang.

1	$F = \left(\frac{e^x \sin y + 2^x \cos y}{200x + y} \right)^{2.3} + \ln \sin y - \sqrt{\frac{e^x \sin y + 2^x \cos y}{200x + y}}$	6	$H = \frac{\sqrt{\cos 2y + \sin 4y + \sqrt{e^x + e^{-x}}}}{(e^{-x} + e^x)^3 (\sin 4y + \cos 2y - 2)^2}$
2	$Z = \arctg \frac{\sqrt[3]{x - \sin(y)}}{\sqrt{1 - x^2}} - \frac{ x \sqrt{1 - x^2}}{\sqrt[3]{x - \sin(y)}}$	7	$Q = \sqrt{e^x \sin y + e^{-x} \cos y} + \sqrt{1 + \frac{e^x \sin y + e^{-x} \cos y}{\operatorname{tg} y}}$
3	$T = \frac{(\sin y + \sin 2y + \sin 3y)^4}{1 + \frac{\sin y + \sin 2y + \sin 3y}{e^x}} + \sqrt{1 + \frac{\sin y + \sin 2y + \sin 3y}{e^x}}$	8	$A = 5 \sqrt{x(1+x)^2 (1+2x)^3} + 3 \sqrt{\frac{x(1+x)^2 (1+2x)^3}{\ln \operatorname{ctg} y }}$
4	$W = \left(1 + \frac{\ln y}{x + \operatorname{tg} y} \right)^{1 + \frac{x + \operatorname{tg} y}{\ln y}}$	9	$S = \arctg \sqrt{\frac{x - \sin y}{x + \sin y} + \frac{x + \sin y}{x - \sin y}} + e^{(x - \sin y)(x + \sin y)}$
5	$R = \operatorname{sh} \frac{(x + \ln y)^3}{\sqrt{ x - \ln y }} \cdot \operatorname{ch} \left[(x + \ln y) \sqrt{ x - \ln y } \right]$	10	$B = \frac{1 + \arcsin(\cos 2y)}{2^x + 3^{-x}} + \left(\frac{2^x + 3^{-x} - 1}{x + \arcsin(\cos 2y)} \right)^2$

1.3. Nazariy qism.

Uzatish funksiyasi deb, chiqish kattaligi $Y(s)$ ning Laplas tasviri kirish kattaligi $X(s)$ ning Laplas tasviriga boshlang'ich shartlar 0 ga teng bo'lgandagi nisbatiga aytiladi.


$$W(s) = \left. \frac{Y(s)}{X(s)} \right|_{t=0}$$

Uzatish funksiyasining umumiy ko'rinishi:
$$W(s) = \frac{b_0 s^{m-1} + b_1 s^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 s^n + a_1 s^{n-1} + \dots + a_n}$$

MATLAB dasturida uzatish funksiyasi aynan shunday ko'rinishda kiritiladi. Zaruriy shart $n > m$ bo'lib, bu sistemaning fizik amalga oshirish sharti hisoblanadi.


Strukturalarni o'zgartirish qoidalari:

1. Sistema zvenolarining ketma – ket bog'lanishi:



$$W_{um} = W_1 \cdot W_2 \cdot \dots \cdot W_n$$


2. Sistema zvenolarining parallel bog'lanishi:



$$W_{um} = W_1 + W_2 + \dots + W_n$$


3. Sistema zvenolarining teskari bog'lanishi:

a) musbat va manfiy teskari bog'lanishli strukturalar






$$W_{um} = \frac{W_1}{1 \mp W_1 W_2}$$


4. Tugunlarni elementlararo ko'chirish: berilgan struktur sxemasi






ekvivalent struktur sxema



5. Summatorni elementlararo ko'chirish: berilgan struktur sxema




ekvivalent struktur sxema



1.4. Ishni bajarish buyicha ko'rsatma.

Ishni bajarish uchun avval MATLAB dasturini ishga tushirish zarur.


MATLAB dasturining asosiy oynasi ekranda hosil bo'lgandan so'ng, Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buni quyidagi uchta usuldan biri yordamida amalga oshirish mumkin:


- MATLAB dasturi asosiy sahifasining uskunalar panelidagi Simulink tugmasi  ni bosish orqali;
- MATLAB asosiy sahifasining buyruqlar qatoriga simulink buyrug'ini yozish va Enter klavishasini bosish orqali;
- MATLAB dasturi asosiy oynasining pastki chap burchagida Start tavsianomasida Start/Simulink/Library Browser punktini tanlash orqali.

Yuqoridagi uchta usullardan istalgan birini amalga oshirish natijasida Simulink kutubxonasi bo'limlari ochiladi (1.1 - rasm).


Model struktur sxemasidan tuzish.

Simulink muhitida model tuzish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

1. File/New/Model buyrug'i yordamida yoki Simulink kutubxonasining uskunalar panelidagi  tugmani qo'llash yordamida yangi model faylini tuzish (bu yerda va keyinchalik, «/» belgisi yordamida ketma-ket bajarish uchun tanlash lozim bo'lgan dastur menyusi punktlari ko'rsatiladi). (1.3. -rasm)




1.1.- rasm. Simulink kutubxonasi bo'limlari.




1.3.- rasm. Model tuzish oynasi.

2. Model oynasiga bloklarni qo'yish. Buning uchun mos keluvchi kutubxona bo'limini ochish kerak (Masalan, Sources – Istochniki). Keyin esa kursor bilan kerakli blok tanlanadi va sichqonchanning chap tugmachasini bosib quyib yubormagan holda, blokni tuzilgan sahifaga «ko'chirib o'tkaziladi». 1.4-rasmda bloklardan tashkil topgan model sahifasi keltirilgan.



1.4- rasm. Bloklar joylashtirilgan model oynasi.


3. Blokni o'chirish. Blokni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan blok tanlanadi (kursor bilan uning rasmini ko'rsatish va sichqonchanning chap tugmachasini bosish orqali), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishi bosiladi. Blok o'lchamlarini o'zgartirish uchun o'zgartirilishi lozim bo'lgan blokni tanlash kerak, sichqoncha bilan blok burchaklaridan biri belgilanadi va chap tugmachasini bosgan holda blok o'lchamlari o'zgartiriladi (bu holda kursor ikki tomonga qaragan strelka ko'rinishiga ega bo'ladi).
4. Blok parametrlarini o'zgartirish. Agar ehtiyoji bo'lsa, dastur tomonidan o'rnatilgan parametrlarni o'zgartirish mumkin. Buning uchun kursor yordamida tanlangan blokda sichqonchanning chap tugmachasini ikki marta bosish kerak. Natijada, ushbu blok parametrlarini tahrir qilish sahifasi ochiladi. Sonli parametrlarni kiritish jarayonida butun sonlar vergul bilan emas, balki nuqta bilan ajratiladi. O'zgartirishlar kiritilgandan so'ng sahifani OK tugmasini bosib yopiladi. 1.5-rasmda uzatish funksiyasini modellashtiruvchi blok parametrlarini tahrirlovchi sahifa ko'rinishi keltirilgan.



1.5.-rasm. Uzatish funksiyasi blokining parametrlarini tahrirlash.

Bu oynadagi Numerator qatoriga uzatish funksiyasini suratidagi ko'phadni koeffitsientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi. Denominator qatoriga uzatish funksiyasini maxrajidagi ko'phadni koeffitsientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi.

5. Kutubxonadan kerakli barcha bloklarni sxemada joylashtirgandan so'ng sxema elementlarini bog'lashni bajarish zarur.




1.6.-rasm. Bloklar o'rtasida bog'lanish bajarilgan model.

Bloklarni bog'lash uchun kursor bilan blokning «chiqish»ini belgilash, so'ngra sichqonchani chap tugmachasini bosgan holda chiziqni (liniyani) keyingi blok kirishiga keltirish kerak. Shundan so'nggina klavishani qo'yib yuborish mumkin. Tarmoqlanish nuqtasini hosil qilish uchun kursorni ulanish chizig'ida kerak bo'lgan tugunga olib kelish va sichqonchani chap yoki o'ng tugmasini bosgan holda chiziqni tortish zarur. Chiziqni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan chiziqni tanlash talab etiladi (bloklar ustida bajarilgani kabi), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishasini bosish lozim. 1.6-rasmda bloklar o'rtasida bog'lash amali bajarilgan model sxemasi keltilgan.

6. Hisoblash sxemasini tuzgandan so'ng uni oynadagi File/Save As... menyu punktini tanlab, hamda fayl nomi va papkani ko'rsatib, diskda fayl ko'rinishida saqlash lozim. Shuni inobatga olish kerakki, fayl nomi 32 simvoldan oshmasligi, lotin alfavidagi harfdan boshlanishi hamda kirill va maxsus simvollaridan tashkil topmagan bo'lishi kerak. Shu talablar fayl yo'li uchun ham ahamiyatli (fayl saqlanadigan papkalarga). Sxemani qayta tahrirlash jarayonlarida saqlash uchun File/Save menyu punktidan foydalanish yetarli. Simulink qism dasturini qayta ishga tushirganda sxemani yuklash kutubxona nazorat qiluvchi sahifadagi yoki MATLAB asosiy sahifasidagi File/Open menyu punkti yordamida amalga oshiriladi.

1.5. Ishni bajarish tartibi.

1. MATLAB dasturi ishga tushiriladi.
2. Simulink qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Yangi model fayli tuziladi.
4. Bibliotekadan talaba o'zining variantiga mos bloklarni model oynasiga joylashtiradi.
5. Bloklar orasidagi bog'lanishlar o'rnatiladi.
6. Blok parametrlari o'zgartiriladi (Koeffitsiyentlar 1-jadvaldan olinadi).
7. Model fayli kerakli nom bilan saqlanadi.
8. Tuzilgan model strukturasi bosmaga chiqariladi.



Variantlar:

Вариант	Коэффициентлар											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	1,5	2,5	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5
	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
	2,5	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5
	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5
	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5
	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5
	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5
	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5
	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5	19,5
	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5	19,5	20,5
	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21

MATLAB da ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun yuqori darajali grafik imkoniyatlar mavjud. Barcha grafiklar, menyulari va uskunalar paneliga ega alohida grafik oynada tasvirlanadi. Bunda grafiklarni oynadagi menyular va uskunalar paneli elementlari orqali sayqallashtirish, kerakli aniqlikni oshirish hamda foydalanuvchi talabiga ko'ra o'zgartirish mumkin.

1. Ikki o'lchovli grafika.

MATLAB da ikki o'lchovli grafiklarni chizishda asosan quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

va natijalarni chiqarish operatori; Colculus (Hisoblash) – differentsiallash, integrallash, summani hisoblash shabloni; Boolean (Mantiqiy operatorlar) – mantiqiy operatorlar; Programming (Dasturlashtirish) – dastur tuzish uchun kerakli modullar yaratish operatorlari; Greek (Grek harflari) -symbolik belgililar ustida ishlash uchun operatorlar.

Matematik ifodalarni qurish va hisoblash

Boshlang'ich holatda ekranda kursor krestik ko'rinishda bo'ladi. Ifodani kiritishda u kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko'k burchakli holatga o'tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin: menyu buyrug'idan foydalanib; klaviatura tugmalaridan foydalanib; matematik paneldan foydalanib.


O'zgaruvchilarga qiymat berish uchun yuborish operatori " := " ishlatiladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o'zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik " = " belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Oddiy matematik ifodalarni hisoblash.

Mathcad 200 dan ortiq o'zida qurilgan funksiyalariga ega bo'lib, ularni matematik ifodalarda ishlatish uchun standart panel vositasidagi Insert Function (Funksiyani qo'yish) tugmasiga bog'langan muloqot oynasidan foydalaniladi. Mathcad hujjatiga matn kiritish uchun bosh menyudan Insert → Text Region (Qo'yish → Matn maydoni) buyrug'ini berish yoki yaxshisi klaviaturadan ikkitali kavichka ("") belgisini kiritish kerak. Bunda matn ma'lumotini kiritish uchun ekranda matn kiritish maydoni paydo bo'ladi. Matn kiritish maydoniga matematik ifodani yozish uchun matematik maydonni ham qo'yish mumkin. Buning uchun shu matn maydonida turib Insert → Math Region (Qo'yish → Matematik maydoni) buyrug'ini berish kifoye. Bu maydondagi kiritilgan matematik ifodalar ham oddiy kiritilgan matematik maydon kabi hisoblashni bajaradi.

Mathcadda foydalanuvchi funksiyasini tuzish hisoblashlarda qulaylikni va uning effektivligini oshiradi. Funksiya chap tomonda ko'rsatilib, undan keyin yuborish operatori (:=) va hisoblanadigan ifoda yoziladi. Ifodada ishlatiladigan o'zgaruvchi kattaliklari funksiya parametri qilib funksiya nomidan keyin qavs ichida yoziladi (3-rasm).




3-rasm. Hisoblashlarda foydalanuvchi funksiyasini tuzish.

Maple

Maple sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: iqtisodiyot, mexanika, matematika, fizika, muhandislik masalalarining analitik va sonli yechimlarini aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistemadir. Unda 4000 dan ortiq buyruqlar mavjud bo'lib, bu buyruqlar matematika fanining Algebra, Geometriya, Matematik tahlil, Matematik statistika kabi turli sohalarini masalalarini hal etishga mo'ljallangan.

Quyidagi rasmda Maple tizimining asosiy oynasi ko'rsatilgan:





Maplening ish stoli quyidagi bo'limlardan iborat:

Sarlavha satri;	Ishchi soha;
Asosiy menyular satri;	Holat satri.
Uskunalar paneli;	Chizg'ich va yurg'izish yo'lakchalari

Maplening ishchi maydoni uch qismga bo'linadi:

1. Kiritish maydoni - buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri > simvoli bilan boshlanadi;
2. Chiqarish maydoni - kiritilgan buyruqlarni qayta ishlangandan so'ng hosil bo'lgan ma'lumotlar (analitik ifodalar, grafiklar va xabarlar)ni o'z ichiga oladi;
3. Matnli izohlar maydoni - roy bergan xatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.

Buyruqlar satrini matn rejimiga o'tkazish uchun uskunalar panelidan sichqoncha yordamida  ni tanlaymiz.

Buyruqlar satriga o'tish uchun esa uskunalar panelidan  tanlaymiz.

Maple-bu komp'yuterda analitik va sonli hisoblashlarni bajaruvchi, 2000 dan ko'proq komandalarni o'z ichiga olgan va algebra, geometriya, matematik analiz, differensial tenglamalar, diskret matematika, fizika, statistika, matematik fizika masalalarini dastur tuzmasdan yechish imkoniyatini beruvchi matematik tizim (sistema)-paketdir. Aytish mumkinki, Maple bu yuqorida sanab o'tilgan sohalaridagi matematik masalalarni yechib beruvchi katta kal'kulyatordir. Maple takomillashib bormoqda, hozir uning Maple 9.5, Maple 11-versiyalari keng tarqalgan.

Maple-simvulli va sonli hisoblashlarni tez va effektiv bajarish uchun mo'ljallangan hamda elektron xujjatlarni tayyorlash va grafik vizuallashtirish, interaktiv vositalariga ega bo'lgan komp'yuter matematikasining yetakchi tizimlaridan biridir. Maple tizimidan jaxondagi 300dan ortiq eng katta universitetlarda o'quv jarayonida foydalanilmoqda va murakkab fizik jarayonlarni, tizimlarni va qurilmalarni modellashtirishda keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda faqat hisobga olingan, ushbu tizimdan foydalanuvchilarning soni 1mln dan ortiq.

Maple yadrosidan Matematika, MATLAB, Mathcad va boshqa tizimlar simvulli hisoblarni amalga oshirishda foydalanmoqdalar. Maple tizimini Kanadaning Waterloo Maple Inc firmasi yaratgan va u uzoq davom etgan rivojlanish va sinovdan o'tish davrini bosib o'tgan. Albatta, Maple tizimi hali juda qudratli emas, u ayrim sohalarida boshqalar kabi oqsamoqda.

O'zining jiddiy matematik hisoblarga yo'naltirilganligiga qaramasdan Maple tizimi studentlar, o'qituvchilar, aspirantlar, ilmiy xodimlar va shuningdek maktab o'quvchilari uchun ham zarurdir. Maple tizimi matematikani o'rganishda interaktiv vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maple tizimining interaktiv imkoniyatlari Tools>Assistants, Tools>Tutors menyusida joylashgan. Uning Calculus>Single-Variable, Calculus>Multi-Variable, Calculus>Linear Algebra bo'limlari borki, ular yordamida bir o'zgaruvchili, ko'p o'zgaruvchili funksiyalar, differensial tenglama, chiziqli algebra o'ldir ko'pgina masalalarni interaktiv usulda talabalarga o'rgatish mumkin. Jumladan, hosilani geometrik ma'nosi yordamida

tushuntirish mumkin: funksiya, nuqta beriladi, komp`yuter kesuvchi o'tkazadi, uning limit holati urinma bo'ladi. Yoki, aniq integralni integral yig'indining limiti sifatida aniqlashda funksiyani tanlash, nuqtalar soni va ularni turli xil usullarini tanlash, ommabop taqribiy usullardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Komanda berilgach integral yig'indining qiymati va integralning aniq qaymati kelib chiqadi. Komp`yutersiz bu ishni faqat chiziqli funksiyalar uchun bajarish mumkin xolos. Qanchalik foydali va qulay imkoniyat. Shuning uchun, Maple-studentparvar dasturiy tizim.


2. MATLAB tizimi imkoniyatlari va uning interfeysi

MATLAB sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: mexanika, matematika, fizika, muxandislik va boshqaruv masalalarini yechish, turli xil mexanik, energetik va dinamik sistemalarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish masalalarining aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistema va turli xil sohali foydalanuvchilarga muljallangan dasturiy paketi.

MATLAB tizimining yaratilishi professor Kliv B.Mouler (Clive B.Mouler) va MathWorks firmasi prezidenti Djek Litl (Jack Little) lar faoliyati bilan bog'liq. Bir necha yillar Nyu-Mexiko, Michigan va Stenford universitetlarining matematika kafedra va kompyuter markazlarida ishlagan Kliv Mouler, keyinchalik faoliyatini MathWorks firmasida davom ettirgan. 1984-yilda u, Fortran tizimida matrisali hisoblashlar va chiziqli algabra masalalarini yechish paketlarini yaratish ishlarida qatnashgan va birinchi marta "MATLAB" atamasini kiritgan. "MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir.

Dastlab, MATLAB paketi matrisali hisoblashlar, dasturlar kutubxonasi uchun qulay qobiq sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik yuzlab yuqori malakali matematiklar va injener-texnik dasturchilar tajribasida, o'ziga xos laboratoriya sharoitida uning imkoniyatlari ancha kengaydi va hozirga kelib, ilmiy-texnikaviy dasturlash tili sifatida kompyuter algebrasi tizimlarining ilg'or vakillaridan biriga aylandi.

MATLAB tizimining integrallashgan muhiti(interfeysi) universal-interfaol rejimda ishlaydi. Bir tomondan, MATLAB tizimidan dasturlash tili sifatida foydalanib, hisoblash jarayonlarini o'ta tez va yuqori aniqlikda olish mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, virtual laboratoriya sifatida yuqoridagi tizimlarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, MATLAB dasturiy tizimi bilan Microsoft Office, Maple sistemasi va boshqa bir qancha dasturlarga bevosita bog'lash orqali shu dasturlarda ishchi varag'ida MATLABda mavjud buyruqlardan "jonli" ravishda foydalanish mimkin. Masalan Microsoft Office Excelda MATLAB buyruqlaridan foydalanish orqali undagi ishlarni osonlashtirish mumkin. Microsoft Office Wordda(Word+Notebook) esa MATLAB tizimi buyruqlaridan foydalanib, "jonli" elektron darsliklar, qo'llanmalar, prezentatsiyalar va turli ko'rinishdagi "jonli" elektron hujjatlar yaratish imkoniyatlari mavjud.



1-rasm. MATLAB tizimining asosiy oynasi







MATLAB tizimi interfeysi.

MATLAB tizimining asosiy oynasi quyidagicha ko'rinishda bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat:

	Sarlavha satri;	5.	Komandalar ishchi varag'i;
	Asosiy menyular satri;	6.	Oxirgi yozilgan komandalar royxati;
	Uskunalar paneli;	7.	Holat satri.

	Ishchi soha;	
--	--------------	--

Asosiy menyular satri quyidagi menyulardan iborat.

<p>File — fayllar bilan ishlash menyusi</p> 	<p>Edit — tahrirlash menyusi</p> 	<p>View — uskunalar panelini chiqarish va yopish menyusi</p> 
<p>Web — Internet manbalari menyusi</p> 	<p>Windows — oynalar bilan ishlash menyusi</p> 	<p>Help — ma'lumotnoma menyusi</p> 

Menyu buyruqlari:

Fayllar bilan ishlaydigan standart buyruqlarni o'z ichiga olgan File menyusining 1-bandi New buyrug'i bo'lib, unda M-file, Figure, Model, GUI bandlari mavjud.

New+M-file – yangi M-file yaratish

New+Figure – yangi figura(grafik oyna) yaratish

New+Model – yangi model yaratish

New+GUI – yangi FGI(Foydalanuvchining Grafikli Interfeysi)ni yaratish

...

Izoh: Qolgan menyu va menyu bandlaridagi buyruqlarini mustaqil o'rganish, Windows sistmasida ishlay oladigan foydalanuvchilar ixtiyoriga havola qilamiz.

MATLAB ning ishchi varag'i tom ma'noda uch qismga bo'linadi:

Buyruqlarni kiritish maydoni – buyruqlar satridan tashkil topgan. Har bir buyruq satri >> simvoli(bu simvol avtomatik tarzda buyruqlar satrining boshida bo'ladi va uni yozish shart emas) bilan boshlanadi;

Natijani chiqarish maydoni – kiritilgan buyruqlarni qayta ishlangandan so'ng hosil bo'lgan ma'lumotlar (analitik ifodalar, natijalar va xabarlar) ni o'z ichiga oladi;

Matnli izohlar maydoni - roy bergan xatoliklar yoki bajarilgan buyruqlarga izohlar, turli xarakterdagi xabarlar.

Buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi.

3. MATLAB dasturlash tili alifbosi va oddiy arifmetik amallar.

MATLAB dasturlash tilida boshqa dasturlash tillari kabi lotin alifbosining A dan Z gacha barcha katta va kichik harflari, 0 dan 9 gacha arab raqamlaridan foydalaniladi. Katta va kichik harflar, xuddi C++ dasturlash tilidagidek, ham o'zgaruvchi sifatida, ham ozgarmas sifatida bir-biridan farq qiladi. Lotin alifbosi harflaridan tashqari, klaviaturadagi barcha maxsus belgilardan foydalaniladi.

Buyruqlar Enter tugmasini bosish (bir marta) orqali amalga oshiriladi. O'zgaruvchi nomi nechta va qanaqa belgi yoki belgilardan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, lotin harflaridan boshlanib, 63 ta belgidan oshmasligi shart. Katta va kichik harflar bir-biridan farq qiladi. Agar buyruq o'zgaruvchi nomi yozilmay bajarilsa, buyruq natijasi maxsus ans(inglizcha answer-javob) o'zgaruvchisi orqali beriladi. Ishchi sohadagi o'zgaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni who yoki whos buyruqlari orqali ko'rish mumkin.

MATLAB da barcha ma'lumotlar matritsa yoki massiv ko'rinishida("MATLAB" so'zi inglizcha "Matrix Laboratory", yani "Matritsali Laboratoriya" so'zlarining qisqartirilgan ifodasidir) tasvirlanadi. Hattoki, skalyar o'zgaruvchilarni umumiy holda 1x1 o'lchovli massiv(matritsa) deb qarash qabul qilingan. Shuning uchun ham massiv va matritsalar ustida ishlash, MATLAB da samarali ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Massiv – bir turdagi ma'lumotlarning raqamlangan va tartiblangan to'plamidir. Massivning nomi bo'lishi shart. Massivlar o'lchovi yoki o'lchami bilan bir-biridan farq qiladi: bir o'lchovli, ikki o'lchovli, ko'p o'lchovli. Massiv elementlariga murojaat qilish indekslar orqali amalgam oshiriladi. MATLAB da massiv elementlarini raqamlash bir(1)dan boshlangani uchun indeksleri birga teng yoki katta bo'ladi.

MATLAB da arifmetik amallar yetarlicha kengaytirilgan, hamda matritsaviy va arifmetik amallarni o'z ichiga oladi. Quyida arifmetik va matritsaviy amallar keltirilgan:

1) o'zgarmlar

T. R	O'zgarmlar	O'zgarmlarning aytilishi
	pi	π soni
	i yoki j	mavhum son
	inf	cheksizlik
	NaN	$\frac{0}{0}$ O ko'rinishdagi aniqmaslik
	true	mantiqiy rost
	false	mantiqiy yolg'on

2) arifmetik amallar:

T. R	Arifmetik amal belgilari	Arifmetik amal belgilari aytilishi
	+	Qo'shish(skalyar yoki matritsaviy)
	-	Ayirish(skalyar yoki matritsaviy)
	*	Ko'paytirish(skalyar yoki matritsaviy)
	/	Bo'lish(skalyar)
	^	Darajaga ko'tarish(skalyar yoki matritsaviy)
	.*	Massiv mos elementlari buyicha ko'paytirish
	./	O'lchovlari bir xil massiv mos elementlari buyicha bo'lish
	.^	Massiv mos elementlari buyicha darajaga ko'tarish
	\	Matritsaviy chapdan o'ngga bo'lish
	.\	Massiv mos elementlari bo'yicha chapdan o'ngga bo'lish
	'	Qo'shma matritsani hisoblash
	.'	Transponerlash

MATLAB da matematik ifodalar ma'lum bir bajarilish tartibiga asosan bajariladi. Avval mantiqiy amallar, so'ngra arifmetik amallar: avval daraja, keyin ko'paytirish va bo'lish, undan keyin esa qo'shish va ayirish bajariladi. Agar ifodada qavslar bo'lsa, avval qavs ichidagi ifoda yuqoridagi tartibda bajariladi.

3) munosabat amallari:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
	== ; (x == u)	Teng
	~= ; (x ~= u)	Teng emas
	< ; (x < u)	Kichik
	> ; (x > u)	Katta
	<= ; (x <= u)	Kichik yoki teng
	>= ; (x >= u)	Katta yoki teng

4) mantiqiy amallar:

T. R	Operator(sintaksis)	Amal belgilari aytilishi
	& ; and (and (a, b))	va
	; or (or (a, b))	yoki
	~ ; not (not (a, b))	inkor
	xor (xor (a, b))	
	any (any (a))	
	all (all (a))	

Butun, ratsional va kompleks sonlar.

MATLABda sonlarni haqiqiy (o'zgarish diapozonlari [10-308; 10308] va [10-4950; 104950], double, real) va kompleks (complex) ko'rinishlarda tasvirlash mumkin. Kompleks sonlar algebraik shaklda yoziladi, ya'ni $z=x+iy$ va u buyruqlar satrida $>>z=x+i*y$ yoki $>>z=x+yi$ ko'rinishda (ushbu $>>z=x+iy$ buyruq xato hisoblanadi) bo'ladi.

Haqiqiy sonlar esa butun (integer) va ratsional sonlarga bo'linadi. Ratsional sonlar 3 xil ko'rinishda tasvirlanishi mumkin:

ratsional kasr ko'rinishida, masalan, $35/36$;

qo'zg'aluvchan vergulli (float) ko'rinishida, masalan: 4.5;

ko'rsatkichli shaklda, ya'ni $6,02 \cdot 10^{-19}$ sonni $6.02 \cdot 10^{-19}$ ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Yunon alfaviting harflarini MATLABda yozish uchun esa shu harfning nomini yozish tavsiya etiladi. Masalan, π ni hosil qilish uchun pi yozuvi yoziladi.

4. MATLAB buyruqlari. Standart funksiyalar

MATLABning standart buyruqlarining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

buyruq(p1, p2, ...) yoki buyruq(p1, p2, ...);

Bu yerda, buyruqning nomi, p1, p2, ... - uning parametrlari. Buyruq yozilgach natijni olish uchun (odatda MATLAB da buyruq oxirida nuqta vergul yoki ikki nuqta kabi belgilar qoyilmaydi) Enter tugmasini bosish (bir marta) yetarli. Har bir buyruq oxirida (;) belgisi bo'lishi, buyruq bajarilsada natijani ekranda namoyon etilmaslikni anglatadi va Enter tugmasi bosilganda jimlik qoidasiga asosan buyruq bajarilib, keyingi buyruqqa o'tiladi. Bunda natija EHM hotirasida qoladi.

MATLAB dasturi buyruqlarni help <buyruq nomi> buyruq'i bilan chaqirib olinishi mumkin. MATLABning asosiy amaliy buyruqlari maxsus kengaytirilgan paketlar(kutubxonalar)ida, yani Toolbox("Toolbox" inglizcha - "uskunalar qutisi" ma'nosini bildiradi)larida joylashgan bo'ladi.. Bu buyruqlarni MATLAB tizimi ma'lumotnomalaridan yoki help <toolbox nomi> buyruq'i bilan chaqirish mumkin. Masalan: Simvolli hisoblashlarni bajarish paketi buyruqlarini Symbolic Math Toolbox paketini chaqirish orqali ko'rish munker:

```
>> help Symbolic Math
```

```
Symbolic Math Toolbox.
```

```
Version 2.1.3 (R13) 28-Jun-2002
```

Calculus.

```
diff - Differentiate.
```

```
int - Integrate.
```

```
limit - Limit.
```

```
taylor - Taylor series.
```

```
jacobian - Jacobian matrix.
```

```
symsum - Summation of series.
```

```
...
```

Linear Algebra.

```
diag - Create or extract diagonals.
```

```
triu - Upper triangle.
```

```
tril - Lower triangle.
```

```
inv - Matrix inverse.
```

```
det - Determinant.
```

```
rank - Rank.
```

```
rref - Reduced row echelon form.
```

```
null - Basis for null space.
```

```
colspace - Basis for column space.
```

```
eig - Eigenvalues and eigenvectors.
```

```
svd - Singular values and singular vectors.
```

```
jordan - Jordan canonical (normal) form.
```

```
poly - Characteristic polynomial.
```

```
expm - Matrix exponential.
```

Simplification.

```
simplify - Simplify.
```

```
expand - Expand.
```

```
factor - Factor.
```

```
collect - Collect.
```

```
simple - Search for shortest form.
```

```
numden - Numerator and denominator.
```

```
horner - Nested polynomial representation.
```

```
subexpr - Rewrite in terms of subexpressions.
```

```
subs - Symbolic substitution.
```

Solution of Equations.

```
solve - Symbolic solution of algebraic equations.
```

```
dsolve - Symbolic solution of differential
```

```
equations.
```

```
finverse - Functional inverse.
```

```
compose - Functional composition.
```

Variable Precision Arithmetic.

```
vpa - Variable precision arithmetic.
```

```
digits - Set variable precision accuracy.
```

Integral Transforms.

```
fourier - Fourier transform.
```

```
laplace - Laplace transform.
```

```
ztrans - Z transform.
```

```
ifourier - Inverse Fourier transform.
```

```
ilaplace - Inverse Laplace transform.
```

```
iztrans - Inverse Z transform.
```

Conversions.

```
double - Convert symbolic matrix to double.
```

```
poly2sym - Coefficient vector to symbolic
```

```
polynomial.
```

```
sym2poly - Symbolic polynomial to coefficient
```

```
vector.
```

```
char - Convert sym object to string.
```

Basic Operations.

```
sym - Create symbolic object.
```

```
syms - Short-cut for constructing symbolic
```

```
objects.
```

```
findsym - Determine symbolic variables.
```

```
pretty - Pretty print a symbolic expression.
```

```
latex - LaTeX representation of a symbolic
```

```
expression.
```

```
ccode - C code representation of a symbolic
```

```
expression.
```

```
fortran - FORTRAN representation of a symbolic
```

```
expression.
```

```
...
```

```
Access to Maple. (Not available with Student Edition.)
```

```
maple - Access Maple kernel.
```

```
mfun - Numeric evaluation of Maple functions.
```

```
mhelp - Maple help.
```

procread - Install a Maple procedure. (Requires Extended Toolbox.)

Izoh: MATLAB tizimi ma'lumotnomasida barcha Toolboxlar, ularning buyruqlari va ularni ishlatishga doir ayrim ko'rsatma hamda namunaviy misollar berilgan bo'lib, foydalanuvchini o'ziga kerakli bilimlarni mustaqil egallashida muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda asosiy standart funksiyalar va ularning MATLABdagi yozilish qoidalari keltirilgan.

MATLABning standart funksiyalari			
Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda	Matematik yozuvda	MATLABdagi yozuvda
e^x	exp(x)	arcsinx	asin(x)
$\ln x$	log(x)	arccosx	acos(x)
$\lg x$	log10(x)	arctgx	atan(x)
$\log_2 x$	log2(x)	arcctgx	acot(x)
\sqrt{x}	sqrt(x)	shx	sinh(x)
$ x $	abs(x)	chx	cosh(x)
$\sin x$	sin(x)	thx	tanh(x)
$\cos x$	cos(x)	cthx	coth(x)
$\operatorname{tg} x$	tan(x)	arsch	acosh(x)
$\operatorname{ctg} x$	cot(x)	arseth	acoth(x)
$\sec x$	sec(x)	arssech	acsch(x)
$\operatorname{cosec} x$	csc(x)	arssech	asech(x)

Izoh: MATLABda bundan tashqari turli-tuman maxsus funksiyalarni qiymatlarini hisoblash uchun mo'ljallangan buyruqlar ham mavjud. Bu buyruqlarni hisoblashda MAPLE tizimining maxsus funksiyalaridan (MAPLE tizim yadrosida mavjud) foydalaniladi. Bu buyruqlarni >> help elfun va >> help mfunlist kabi buyruqlarini berish orqali batafsil ko'rish mumkin.

(%) – foiz belgisi izohlarni yozish uchun xizmat qiladi. Agar buyruqlar qisqa bo'lsa, ularni bir qatorga vergul bilan ajratgan holda yozib bajariladi. Agar buyruq yetarlicha uzun bo'lsa, u holda uch nuqta (...) qo'yilib, Enter ni bir marta bosish orqali keyingi qatordan davom ettiriladi va hk.

Masalan:

$$c = \sqrt{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}} + 3 \sqrt[3]{\frac{\sin(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}{\cos(\frac{4}{3}\pi x) + e^{0.1y}}}$$

ifodani $x = 0.2$ va $y = -3.9$ dag qiymatini hisoblaymiz:

```
>> x=0.2;
>> y=-3.9;
>> c=sqrt((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))+...
((sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y))/(cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y)))^(1/3)
c =
    2.0451
```

Dasturlashda shunday vaziyatlar bo'ladiki, bunda ifodani hisoblashda oraliq o'zgaruvchilarni kiritib (yoki ifodani qismlarga bo'lib) qadamma-qadam hisoblash mumkin. Yuqoridag misolni qaraymiz:

```
>> x=0.2;
>> y=-3.9;
>> a=sin(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);
>> b=cos(4/3*pi*x)+exp(0.1*y);
>> c=sqrt(a/b)+(a/b)^(1/3)
c =
    2.0451
```

O'zgaruvchi berilgan qiymatni o'zlashtirishi uchun = belgi qo'llaniladi.

5. MATLAB da matematik ifodalar ustida shakl almashtirishlar

MATLABda matematik ifodalar ustida shakl almashtirish jarayonida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

O'xshash hadlarni ixchamlash;

Ko'paytuvchilarga ajratish;

Qavslarni ochish;

Ratsional kasrlarni qisqartirish va shu kabilar

Bunday simvulli hisoblashlarni bajarishdan oldin ifodadagi o'zgaruvchilar syms yordamchi buyrug'i (syms inglizcha "symbols", ya'ni "simvollar" so'zining qisqa ifodasi) orqali e'lon qilinadi. Masalan:

```
>> syms x y z a b c d
```

Ifodalarda shakl almashtirishlar.

Ifodalarda qavslarni ochib, ularning hadlarini ixchamlash `expand(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi:

```
>> syms x y z a b c d e
```

```
>> P=(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
```

```
P =
```

```
(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
```

```
>> P1=expand(P)
```

```
P1 =
```

```
x^6-1
```

Ko'phadlarni ko'paytuvchilarga ajratish uchun esa `factor(<ifoda>)` buyrug'idan foydalanamiz. Masalan:

```
>> factor(P1)
```

```
ans =
```

```
(x+1)*(x-1)*(x^2-x+1)*(x^2+x+1)
```

```
>> factor(x^5-x^4-7*x^3+x^2+6*x)
```

```
ans =
```

```
x*(x-1)*(x-3)*(x+2)*(x+1)
```

Ifodalarni soddalashtirish `simplify(<ifoda>)` yoki `simple(<ifoda>)` buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Masalan:

```
>> P2=(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))
```

```
P2 =
```

```
(cos(x)-sin(x))*(cos(x)+sin(x))
```

```
>> simplify(P2)
```

```
ans =
```

```
2*cos(x)^2-1
```

Bundan tashqari, ifodalar ustida shakl almashtirishlarda kerak bo'ladigan `collect`, `numden`, `horner`, `subexpr`, `subs` kabi bir qator buyruqlari mavjud va uni mustaqil o'rganishni foydalanuvchiga qoldiramiz.

6. MATLAB da chiziqli avtomatik rostdlash sistemasini (ARS) strukturaviy o'zgartirish.

Uzatish funksiyasi deb, chiqish kattaligi $Y(s)$ ning Laplas tasviri kirish kattaligi $X(s)$ ning Laplas tasviriga boshlang'ich shartlar 0 ga teng bo'lgandagi nisbatiga aytiladi.

$$W(S) = \left. \frac{Y(S)}{X(S)} \right|_{t=0}$$


$$W(S) = \frac{b_0 S^{m-1} + b_1 S^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 S^n + a_1 S^{n-1} + \dots + a_n}$$

Uzatish funksiyasining umumiy ko'rinishi: $W(S) =$

MATLAB dasturida uzatish funksiyasi aynan shunday ko'rinishda kiritiladi. Zaruriy shart $n > m$ bo'lib, bu sistemaning fizik amalga oshirish sharti hisoblanadi.


1.2. Strukturalarni o'zgartirish qoidalari:

Sistema zvenolarining ketma – ket bog'lanishi.



$$W_{um} = W_1 \cdot W_2 \cdot \dots \cdot W_n$$


Sistema zvenolarining parallel bog'lanishi.



$$W_{um} = W_1 + W_2 + \dots + W_n$$


Sistema zvenolarining teskari bog'lanishi

a) musbat va manfiy teskari bog'lanishli strukturalar




$$W_{um} = \frac{W_1}{1 \mp W_1 W_2}$$


Tugunlarni yelemntlararo ko'chirish berilgan struktur sxemasi




yekivalent struktur sxema



Summatorni yelemntlararo ko'chirish berilgan struktur sxema



yekivalent struktur sxema



MATLAB dasturining asosiy oynasi yekranda hosil bo'lgandan so'ng, Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buni quyidagi uchta usuldan biri yordamida amalga oshirish mumkin:

MATLAB dasturi asosiy sahifasining uskunalar panelidagi Simulink tugmasi bosish orqali;


MATLAB asosiy sahifasining buyruqlar qatoriga simulink buyrug'ini yozish va Enter klavishasini bosish orqali;


File menyusidagi Open... punktini bajarib, modellar fayli (.mdl-fayl) ni ochish orqali.

Oxirgi variant tayyor modellar ustida hisoblash amallarini bajarish uchun qulay hisoblanadi, ammo bu usulda qo'shimcha bloklar kiritish mumkin yemas. Birinchi va ikkinchi usullarni qo'llash natijasida Simulink kutubxonasi bo'limlari ochiladi (1.2 -rasm).

Model strukturasi tuzish.


Simulink muhitida model tuzish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

File/New/Model buyrug'i yordamida yoki uskunalar panelidagi  tugmani qo'llash yordamida yangi model faylini tuzish (bu yerda va keyinchalik, «/» belgisi yordamida ketma-ket bajarish uchun tanlash lozim bo'lgan dastur menyus punktlari ko'rsatiladi). (1.3. -rasm)



1.3.- rasm. Model tuzish oynasi.

Model oynasiga bloklarni qo'yish. Buning uchun mos keluvchi kutubxona bo'limini ochish kerak (Masalan, Sources – Istochniki). Keyin yesa kursor bilan kerakli blok tanlanadi va sichqonchanning chap tugmachasini bosib quyib yubormagan holda, blokni tuzilgan sahifaga «ko'chirib o'tkaziladi». 1.4-rasmda bloklardan tashkil topgan model sahifasi keltirilgan.




1.4- rasm. Bloklar joylashtirilgan model oynasi.

Blokni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan blok tanlanadi (kursor bilan uning rasmini ko'rsatish va sichqonchanning chap tugmachasini bosish orqali), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishi bosiladi.

Blok o'lchamlarini o'zgartirish uchun o'zgartirilishi lozim bo'lgan blokni tanlash kerak, sichqoncha bilan blok burchaklaridan biri belgilanadi va chap tugmachasini bosgan holda blok o'lchamlari o'zgartiriladi (bu holda kursor ikki tomonga qaragan strelka ko'rinishiga yega bo'ladi).


Agar yehtiyoji bo'lsa, dastur tomonidan o'rnatilgan parametrlarni o'zgartirish mumkin. Buning uchun kursor yordamida tanlangan blokda sichqonchanning chap tugmachasini ikki marta bosish kerak. Natijada, ushbu blok parametrlarini tahrir qilish sahifasi ochiladi. Sonli parametrlarni kiritish jarayonida butun sonlar vergul bilan yemas, balki nuqta bilan ajratiladi. O'zgartirishlar kiritilgandan so'ng sahifani OK tugmasini bosib yopiladi. 1.5- rasmda uzatish funksiyasini modellashtiruvchi blok va ushbu blok parametrlarini tahrirlovchi sahifa ko'rinishi keltirilgan.



1.5.-rasm. Uzatish funksiyasi bloki va berilgan blok parametrlarini tahrirlash.

Bu oynadagi Numerator qatoriga uzatish funksiyasini suratidagi ko'pxadni koyeffitsiyentlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi. Denominator qatoriga uzatish funksiyasini maxrajidagi ko'pxadni koyeffitsiyentlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi.

Kutubxonadan kerakli barcha bloklarni sxemada joylashtirgandan so'ng sxema yelementlarini bog'lashni bajarish zarur.



1.6.-rasm. Bloklar o'rtasida bog'lanish bajarilgan model.

Bloklarni bog'lash uchun kursor bilan blokning «chiqish»ini belgilash, so'ngra sichqonchani chap tugmachasini bosgan holda chiziqni (liniyani) keyingi blok kirishiga keltirish kerak. Shundan so'nggina klavishani qo'yib yuborish mumkin. Tarmoqlanish nuqtasini hosil qilish uchun kursorni ulanish chizig'ida kerak bo'lgan tugunga olib kelish va sichqonchani o'ng klavishasini bosgan holda chiziqni tortish zarur. Chiziqni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan chiziqni tanlash talab yetiladi (bloklar ustida bajarilgani kabi), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishasini bosish lozim. 1.6- rasmda bloklar o'rtasida bog'lash amali bajarilgan model sxemasi keltilgan.


Hisoblash sxemasini tuzgandan so'ng uni oynadagi File/Save As... menyu punktini tanlab, hamda fayl nomi va papkani ko'rsatib, diskda fayl ko'rinishida saqlash lozim. Shuni inobatga olish kerakki, fayl nomi 32 simvoldan oshmasligi, xarfdan boshlanishi hamda kirill va maxsus simvollaridan tashkil topmagan bo'lishi kerak. Shu talablar fayl yo'li uchun ham ahamiyatli (fayl saqlanadigan papkalarga). Sxemani qayta tahrirlash jarayonlarida saqlash uchun File/Save menyu punktidan foydalanish yetarli. Simulink qism dasturini qayta ishga tushirganda sxemani yuklash kutubxona nazorat qiluvchi sahifadagi yoki MATLAB asosiy sahifasidagi File/Open menyu punkti yordamida amalga oshiriladi.

7. Dinamik sistemalarning vaqt xarakteristikalarini tadqiq yetish

Asosiy tipik kirish signallari:

- pog'onali signal (funksiya);
- impulsi signal (funksiya);
- garmonik signal (funksiya).


Sistema (zveno)larning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasiga o'tkinchi jarayon yoki o'tish funksiyasi deyiladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.



to'tk – o'tkinchi jarayon davomiyligi – chiqish signali turg'unlashgunga bo'lgan vaqt.
 $T = \tau$ – vaqt doimiysi.

Bunda, $T = \tau$.
$$h(t) = k(1 - 0,37) \cdot 1(t) = 0,63k$$

Sistema (zveno)larning birlik impulsi ta'sirga bo'lgan reaksiyasi impulsi o'tkinchi jarayon yoki vazn funksiyasi deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilandi.



$$x(t) = A \cdot \delta(t); \quad A = \text{const};$$


$$\delta(t) = \begin{cases} 0, & \text{булса } t \geq 0 \\ \infty, & \text{булса } t = 0 \end{cases} \quad \int_0^{\infty} \delta(t) dt = 1. \quad A \rightarrow \infty; \quad \Delta t \rightarrow 0$$

O'tkinchi va impulsli o'tkinchi funksiyalar jarayonning vaqt xarakteristikalarini hosil qiladi – bu signal kattaligi o'zgarishning vaqtga bog'liqligidir.

Sistema (zveno) larning garmonik ta'sirga bo'lgan reaksiyasi chastotaviy xarakteristika deyiladi.

O'tkinchi jarayon quyidagicha bo'lishi mumkin:

Monoton;
Aperiodik;
Tebranuvchan.




MATLAB dasturi asosiy sahifasi ochilgandan keyin Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buning uchun 1 – tajriba ishida ko'rsatilgan uchta usulning biridan foydalanamiz.

Modelning o'tkinchi xarakteristikasini olish.

Sistemaning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi $h(t)$ – o'tish funksiyasini olish. Modelning kirishiga birlik pog'onali ta'sir hosil qilib beruvchi blok (Step) qo'yiladi va chiqishda shu funksiyaning grafiini ko'rsatuvchi (Scope) bloki qo'yiladi.

Sistemani ishga tushirish uchun Simulink sahifasi uskunalar panelidagi (Start) tugmasi bosiladi. O'tkinchi jarayon grafigini ko'rish uchun yesa Scope bloki ustiga kursor keltirilib, sichqonchanning chap tugmachasi ikki marta tez bosiladi. Yopiq sistema o'tish funksiyasini olish uchun modelda teskari bog'lanish zanjiri amalga oshiriladi va ikkinchi punkt takrorlanadi (2.1-rasm).




2.1-rasm.

Sistemaning vazn funksiyasini olish.


Buning uchun Simulink LTI-Viewer qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Simulink-modeli sahifasida Tools\Linear Analysis... komandasini bajarilganda Model_Inputs_and_Outputs sahifasi hamda Simulink LTI-Viewer bo'sh sahifasi ochiladi (2.2-rasm).




2.2-rasm. Model_Inputs_and_Outputs sahifasi.

2. Sistema kirishiga Input Point bloki va chiqishiga Output Point blokini o'rnatiladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Input Point bloki va Output Point bloki o'rnatilgan model.

3. LTI Viewer sahifasida Simulink\Get Linearized Model komandasi bajariladi.



2.4-rasm.. LTI Viewer sahifasi.

Bunda yekranda sistemaning birlik pog'onali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika hosil buladi. Sitemaning vazn funksiyasini chikarish uchun LTI Viewer sahifasida sichqonchanning chap klavishasini bosiladi unda xarakteristikani uzgartirish darchasi paydo buladi. U yerdan Impulse punkti tanlaniladi (2.4-rasm).

2.3. Masalaning qo'yilishi.


1. O'tkinchi jarayon xarakteristikalarini olish usullari va grafiklarini o'zgartirish imkoniyatlari bilan tanishish.
2. Tipik dinamik zvenolar vaqt xarakteristikalarini tadqiq qilish.

2.4. Nazariy qism.

Asosiy tipik kirish signallari:

- pog'onali signal (funksiya);
- impulslı signal (funksiya);
- garmonik signal (funksiya).

Sistema (zveno)larning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasiga o'tkinchi jarayon yoki o'tish funksiyasi deyiladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.




$$L\{A \cdot 1(t)\} = A \frac{1}{p}$$

$t_{o'rk}$ – o'tkinchi jarayon davomiyligi – chiqish signali turg'unlashgunga bo'lgan vaqt.

$T = \tau$ – vaqt doimiysi.

Bunda, $T = \tau \cdot h(t) = k(1 - 0,37) \cdot 1(t) = 0,63k$.

Sistema (zveno)larning birlik impulslı ta'sirga bo'lgan reaksiyasi impulslı o'tkinchi jarayon yoki vazn funksiyasi deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilandi.




O'tkinchi va impulslı o'tkinchi funksiyalar jarayonning vaqt xarakteristikalarini hosil qiladi – bu signal kattaligi o'zgarishning vaqtga bog'liqligidir.

Sistema (zveno) larning garmonik ta'sirga bo'lgan reaksiyasi chastotaviy xarakteristika deyiladi.

O'tkinchi jarayon quyidagicha bo'lishi mumkin:

4. Monoton;
5. Aperiodik;
6. Tebranuvchan.



Pog'onali ta'sirda rostlanish sifati quyidagi parametrlar bo'yicha aniqlanadi:

- t_p – rostlanish vaqti yoki o'tkinchi jarayon vaqti (yo'l qo'yilishi mumkin xatolik zonasi 2Δ ga o'tgungacha bo'lgan vaqt).

$$|h(t) - h_{\infty}(t)| \leq \Delta$$

$$\sigma\% = \frac{h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)}{h_{\max}(t)} \cdot 100\%$$

Qayta rostlash o'rnatilgan qiymatdan o'tkinchi jarayon grafigining maksimal og'ishini xarakterlaydi; kichik va o'rta quvvatli sistemalar uchun yo'l qo'yilgan qiymat

$$\sigma\% = (10 \div 20)\%$$

$$\sigma\% = (30 \div 40)\% \text{ -- yuqori quvvatli sistemalar uchun}$$


$\sigma^0\%$ - odatda 17% dan ko'p emas.

- o'sib borish vaqti t_0 – o'rnatilgan qiymat bilan o'tkinchi jarayon egri chizig'i og'ishining birinchi kesishish nuqtasi absissasi;
- t_{\max} – birinchi maksimum qiymatga erishish vaqti;
- chastota va tebranish davri

$$\omega = \frac{2\pi}{T}; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}$$

- so'nish dekrementi o'tkinchi jarayonning so'nish tezligini xarakterlaydi.

$$\chi\% = \frac{h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)}{h_{\min}(t) - h_{\infty}(t)} \cdot 100\%$$




MATLAB dasturi asosiy sahifasi ochilgandan keyin Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buning uchun 6- tajriba ishida ko'rsatilgan uchta usulning biridan foydalanamiz.

Modelning o'tkinchi xarakteristikasini olish.

1. Sistemani birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi $h(t)$ – o'tish funksiyasini olish. Modelning kirishiga birlik pog'onali ta'sir hosil qilib beruvchi blok (Step) qo'yiladi va chiqishda shu funksiyani ko'rsatuvchi (Scope) bloki qo'yiladi.
2. Sistemani ishga tushirish uchun Simulink sahifasi uskunalar panelidagi (Start) tugmasi bosiladi. O'tkinchi jarayon grafigini ko'rish uchun esa Scope bloki ustiga kursor keltirilib, sichqonchani chap tugmachasi ikki marta tez bosiladi.

Yopiq sistema o'tish funksiyasini olish uchun modelda teskari bog'lanish zanjiri amalga oshiriladi va ikkinchi punkt takrorlanadi (2.1-rasm).




2.1-rasm.

Sistemaning vazn funksiyasini olish.


Buning uchun Simulink LTI-Viewer qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Simulink-modeli sahifasida Tools\Linear Analysis... komandasini bajarilganda Model_Inputs_and_Outputs sahifasi hamda Simulink LTI-Viewer bo'sh sahifasi ochiladi (2.2-rasm).




2.2-rasm. Model_Inputs_and_Outputs sahifasi.

2. Sistema kirishiga Input Point bloki va chiqishiga Output Point bloki o'rnatiladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Input Point bloki va Output Point bloki o'rnatilgan model.

3. LTI Viewer sahifasida Simulink\Get Linearized Model komandasi bajariladi.




2.4-rasm.. LTI Viewer sahifasi.

Bunda ekranda sistemaning birlik pog'onali signalga bo'lgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika hosil bo'ladi. Sistemaning vazn funksiyasini chiqarish uchun LTI Viewer sahifasida sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi va unda xarakteristikani o'zgartirish darchasi paydo bo'ladi. U yerdan Impulse punkti tanlaniladi (2.4-rasm).

2.6. Ishni bajarish tartibi.

1. MATLAB dasturi ishga tushiriladi.
2. Simulink qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant(Koeffitsiyentlar 2-jadvaldan olinadi) bo'yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemani o'tkinchi jarayon xarakteristikasini olish uchun Scope bloki ochiladi so'ngra uskunalar panelidagi Start tugmachasi bosiladi.
5. Sistemaning impulsli signalga bo'lgan reaksiyasini olish uchun Simulink LTI-Viewer sahifasi ochiladi.
6. Sistema kirishiga Input Point va chiqishiga Output Point bloklari o'rnatiladi.
7. LTI Viewer sahifasida Simulink\Get Linearized Model komandasi bajariladi.
8. Hosil bo'lgan oynada sichqoncha yordamida Impulse punkti tanlaniladi.
9. Modelning parametrlarini o'zgartiriladi va o'zgartirilgan model xarakteristikalari olinib, oldingi olingan xarakteristikalar bilan solishtirilib analiz qilinadi.
10. Xarakteristikalar bosmaga chiqariladi.



Коэффициентлар жадвали

Вариант	Коэффициентлар											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1.	1,5	2,5	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5
2.	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
3.	2,5	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5
4.	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
5.	3,5	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5
6.	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
7.	4,5	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5
8.	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
9.	5,5	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5
10.	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
11.	6,5	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5
12.	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
13.	7,5	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5
14.	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
15.	8,5	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5	19,5
16.	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
17.	9,5	10,5	11,5	12,5	13,5	14,5	15,5	16,5	17,5	18,5	19,5	20,5
18.	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21

Ishdan maqsad: MATLAB muhiti grafikasi elementlari bilan ishlash, 2 va 3 o'lchovli funksiya grafiklarini chizish ustida amallar bajarib tajriba ko'nikmalarni mustahkamlash.

Jihozlanish: Pentium tipidagi shaxsiy EHM, MATLAB dasturi.

MATLAB da ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun yuqori darajali grafik imkoniyatlar mavjud. Barcha grafiklar, menyulari va uskunalar paneliga ega alohida grafik oynada tasvirlanadi. Bunda grafiklarni oynadagi menyular va uskunalar paneli elementlari orqali sayqallashtirish, kerakli aniqlikni oshirish hamda foydalanuvchi talabiga ko'ra o'zgartirish mumkin.

1. Ikki o'lchovli grafika.

MATLAB da ikki o'lchovli grafiklarni chizishda asosan quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

- loglog, polar, stairs, area, pcolor, line, pie, plot, semilogx, comet, bar, fill, colormap, ribbon, pie3, strips, semilogy, stem, barh, patch, rectangle, scatter, errorbar, imagesc va h.k.;

Chizilgan grafiklar va grafik oynalarni loyihalash va boshqarishda grafik oyna menu va uskunalar paneli elementlari hamda quyidagi buyruqlar orqali amalgam oshiriladi:

- grid, axis, hold, figure, shg, clf, subplot va h.k.;


Odatda bir o'zgaruvchili funksiya grafiklarini chizishda plot buyrug'i va uning turli xil ko'rinishlaridan foydalaniladi.

Qisqa ko'rinishi	Bajarilishi
>> x=[a:h:b]; >> y=f(x); >> plot(x,y)	Bunda dastlab berilgan h qadam bilan bo'laklarga bo'lingan oraliq kiritiladi, keyin funksiya kiritiladi, undan keyin plot buyrug'i kiritiladi.

1-TOPSHIRIQ.


$y = e^{-x} \sin(4x)$ funksiya grafigini [-2; 3] oraliqda chizamiz:

```
>> x=[-2:0.05:3];
>> y=exp(-x).*sin(4*x);
>> plot(x,y)
```



2-TOPSHIRIQ

```
>>x1=[-pi:0.01:2*pi];
>>y1=exp(-0.1*x1).*sin(x1).^2;
>>x2=[-2*pi:0.01:pi];
>>y2=exp(-0.2*x2).*sin(x2).^2;
>> plot(x1,y1,x2,y2)
```




3-TOPSHIRIQ

$$y(x) = \begin{cases} \sin x & -4\pi \leq x \leq -\pi \\ 3\left(\frac{x}{\pi} + 1\right)^2 & -\pi < x \leq 0 \\ 3e^{-x} & 0 < x \leq 5 \end{cases}$$

funksiya grafigini chizamiz:

```
>> x1=[-4*pi:pi/10:-pi];
>> y1=sin(x1);
>> x2=[-pi:pi/30:0];
>> y2=3*(x2/pi+1).^2;
>> x3=[0:0.02:5];
>> y3=3*exp(-x3);
>> plot(x1,y1,x2,y2,x3,y3)
```




4-TOPSHIRIQ

Parametrlı funksiyalar grafigini chizamiz: $x(t) = \cos^3 t$, $y(t) = \sin^3 t$, $t \in [0, 2\pi]$.

```
>> t=[0:pi/20:2*pi];
>> x=cos(t).^3;
```

```
>> y=sin(t).^3;
>> plot(x,y)
```




2. Uch o'lchovli grafika.

MATLAB da uch o'lchovli grafiklarni chizishda asosan quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

- bar3, plot3, mesh, surf, sphere, cylinder, bar3h, contour, meshgrid, fill3, ellipsoid, logo va h.k.;


Odatda ko'p o'zgaruvchili funksiya grafiklarini chizishda mesh buyrug'i va uning turli xil ko'rinishlaridan foydalaniladi. Misol:

```
>>[X,Y]=meshgrid(-1:0.1:1, 0:0.1:2);
>> Z = 4*sin(2*pi*X).*cos(1.5*
    pi*Y).*(1-X.^2).*Y.*(1-Y);
>> mesh(X,Y,Z)
```




Fazoda geometrik jismlarni tasvirlashda sphere, cylinder, bar3h, ellipsoid kabi bir qator buyruqlardan foydalaniladi.

```
>> sphere
```



```
>> cylinder
```



NAZORAT TOPSHIRIQLARI

4. Dekart koordinatalar sistemasida quyidagi elementar funksiyalar grafiklarini yasang:

1. $f(x) = \sin x$, $g(x) = \sin^2 x$, $x \in [-2\pi, 3\pi]$.
2. $u(x) = 0.01x^2$, $v(x) = e^{-|x|}$, $x \in [-0.2, 9.4]$.
3. $f(x) = \sin x^2$, $g(x) = \cos x^2$, $x \in [-\pi, \pi]$.
4. $u(x) = x/20$, $v(x) = e^x$, $x \in [-2, 2]$.
5. $f(x) = x^3 + 2x^2 + 1$, $g(x) = (x-1)^4$, $x \in [-1, 1]$.
6. $u(x) = \sqrt{x}$, $v(x) = e^{-x^2}$, $x \in [0, 1]$.

7. $f(x) = \ln x$; $g(x) = x \ln x$; $x \in [0.2, 10]$.
8. $u(x) = x^{1/3}$; $v(x) = \sqrt{x}$; $x \in [0, 8]$.
9. $f(x) = |2x|^3$; $g(x) = |2x|^5$; $x \in [-0.5, 0.5]$.
10. $u(x) = \sqrt{|x|}$; $v(x) = x^{1/5}$; $x \in [-0.6, 0.5]$.
11. $f(x) = x^2$; $g(x) = x^3$; $x \in [-1, 1]$.
12. $u(x) = x^4$; $v(x) = x^5$; $x \in [-1, 1]$.
13. $f(x) = \arcsin x$; $g(x) = \arccos x$; $x \in [-1, 1]$.
14. $u(x) = \operatorname{arctg} x$; $v(x) = \operatorname{arctg} 3x$; $x \in [-1, 1]$.
15. $f(x) = \operatorname{sh} x$; $g(x) = \operatorname{ch} x$; $x \in [-1, 1]$.
16. $u(x) = e^x$; $v(x) = e^{-x}$; $x \in [-0.6, 0.6]$.
17. $f(x) = \frac{\sin x}{x}$; $g(x) = e^{-x} \cos x$; $x \in [0.01, 2\pi]$.
18. $u(x) = \sin(\ln(x+1))$; $v(x) = \cos(\ln(x+1))$; $x \in [0, 2\pi]$.
19. $f(x) = x^x$; $g(x) = x^{x^x}$; $x \in [0.1, 1]$.
20. $u(x) = \frac{1}{1+x}$; $v(x) = \frac{1}{1+\frac{1}{1+x}}$; $x \in [0, 1]$.

5. Dekart koordinatalar sistemasida quyidagi funksiyalar grafiklarini yasang:

1. $f(x) = \begin{cases} -1, & -3 \leq x \leq -1 \\ x, & -1 < x \leq 1 \\ e^{1-x}, & 1 < x \leq 3 \end{cases}$ 2. $f(x) = \begin{cases} \sqrt{x}, & 0 \leq x \leq 1 \\ 1, & 1 < x \leq 3 \\ (x-4)^2, & 3 < x \leq 5 \end{cases}$
3. $f(x) = \begin{cases} \ln x, & 1 \leq x \leq e \\ x/e, & e < x \leq 9 \\ 9e^{8-x}, & 9 < x \leq 12 \end{cases}$ 4. $f(x) = \begin{cases} \sin x, & -2\pi \leq x \leq 0 \\ -x^3, & 0 < x \leq 1 \\ \cos \pi x, & 1 < x \leq 3\pi \end{cases}$
5. $f(x) = \begin{cases} \arcsin x - 1, & 0 \leq x \leq 1 \\ \frac{\pi}{2} - x, & 1 < x \leq \frac{\pi}{2} \\ \cos x, & \frac{\pi}{2} < x \leq \pi \end{cases}$ 6. $f(x) = \begin{cases} |x|, & -2 \leq x \leq 1 \\ \sin \frac{\pi}{2} x, & 1 < x \leq 2 \\ (2-x)^3, & 2 < x \leq 3 \end{cases}$
7. $f(x) = \begin{cases} (x-1)^2, & -2 \leq x \leq 1 \\ \cos \frac{\pi}{2} x, & 1 < x \leq 3 \\ 1 - e^{3-x}, & 3 < x \leq 8 \end{cases}$ 8. $f(x) = \begin{cases} e^x, & -2 \leq x \leq -1 \\ \frac{|x|}{e}, & -1 < x \leq 1 \\ e^{-x}, & 1 < x \leq 2 \end{cases}$
9. $f(x) = \begin{cases} e^{x+1}, & -2 \leq x \leq -1 \\ x^2, & -1 < x \leq 1 \\ (2-x)^3, & 1 < x \leq 2 \end{cases}$ 10. $f(x) = \begin{cases} x^2 \log_2 x, & 1 \leq x \leq 2 \\ x^3/2, & 2 < x \leq 3 \\ x^x/2, & 3 < x \leq 3.5 \end{cases}$

6. Fazoda quyidagi funksiyalar grafiklarini yasang:

1) $z(x, y) = \sin x \cdot e^{-3y}$ $x \in [0, 2\pi]$ $y \in [0, 1]$

- 2) $z(x,y) = \sin^2 x \cdot \ln y \quad x \in [0, 2\pi] \quad y \in [1, 10]$
- 3) $z(x,y) = \sin^2(x-2y) \cdot e^{-|y|} \quad x \in [0, \pi] \quad y \in [-1, 1]$
- 4) $z(x,y) = \frac{x^2 y^2 + 2xy - 3}{x^2 + y^2 + 1} \quad x \in [-2, 2] \quad y \in [-1, 1]$
- 5) $z(x,y) = \frac{\sin xy}{x} \quad x \in [0.1, 5] \quad y \in [-\pi, \pi]$
- 6) $z(x,y) = (\sin x^2 + \cos y^2)^{xy} \quad x \in [-1, 1] \quad y \in [-1, 1]$
- 7) $z(x,y) = \arctan(x+y)(\arccos x + \arcsin y) \quad x \in [-1, 1] \quad y \in [-1, 1]$
- 8) $z(x,y) = (1+xy)(3-x)(4-y) \quad x \in [0, 3] \quad y \in [0, 4]$
- 9) $z(x,y) = e^{-|x|} (x^5 + y^4) \sin(xy) \quad x \in [-2, 2] \quad y \in [-3, 3]$
- 10) $z(x,y) = (y^2 - 3) \sin \frac{x}{|y|+1} \quad x \in [-2\pi, 2\pi] \quad y \in [-3, 3]$

1. MATLAB da chiziqli avtomatik rostdlash sistemasini (ARS) strukturaviy o'zgartirish.

Uzatish funksiyasi deb, chiqish kattaligi $Y(s)$ ning Laplas tasviri kirish kattaligi $X(s)$ ning Laplas tasviriga boshlang'ich shartlar 0 ga teng bo'lgandagi nisbatiga aytiladi.


$$W(S) = \left. \frac{Y(S)}{X(S)} \right|_{t=0}$$

Uzatish funksiyasining umumiy ko'rinishi:
$$W(S) = \frac{b_0 S^{m-1} + b_1 S^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 S^n + a_1 S^{n-1} + \dots + a_n}$$

MATLAB dasturida uzatish funksiyasi aynan shunday ko'rinishda kiritiladi. Zaruriy shart $n > m$ bo'lib, bu sistemaning fizik amalga oshirish sharti hisoblanadi.


1.2. Strukturalarni o'zgartirish qoidalari:

6. Sistema zvenolarining ketma – ket bog'lanishi.



$$W_{um} = W_1 \cdot W_2 \cdot \dots \cdot W_n$$


7. Sistema zvenolarining parallel bog'lanishi.



$$W_{um} = W_1 + W_2 + \dots + W_n$$





8. Sistema zvenolarining teskari bog'lanishi

a) musbat va manfiy teskari bog'lanishli strukturalar





$$W_{um} = \frac{W_1}{1 \mp W_1 W_2}$$



9. Tugunlarni elementlararo ko'chirish



10. Summatorni elementlararo ko'chirish
berilgan struktur sxema



ekvivalent struktur sxema




MATLAB dasturining asosiy oynasi ekranda hosil bo'lgandan so'ng, Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buni quyidagi uchta usuldan biri yordamida amalga oshirish mumkin:


- MATLAB dasturi asosiy sahifasining uskunalar panelidagi Simulink tugmasi bosish orqali;
- MATLAB asosiy sahifasining buyruqlar qatoriga simulink buyrug'ini yozish va Enter klavishasini bosish orqali;
- File menyusidagi Open... punktini bajarib, modellar fayli (.mdl-fayl) ni ochish orqali.

Oxirgi variant tayyor modellar ustida hisoblash amallarini bajarish uchun qulay hisoblanadi, ammo bu usulda qo'shimcha bloklar kiritish mumkin emas. Birinchi va ikkinchi usullarni qo'llash natijasida Simulink kutubxonasi bo'limlari ochiladi (1.2 -rasm).

Model strukturasi tuzish.


Simulink muhitida model tuzish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

7. File/New/Model buyrug'i yordamida yoki uskunalar panelidagi  tugmani qo'llash yordamida yangi model faylini tuzish (bu yerda va keyinchalik, «/» belgisi yordamida ketma-ket bajarish uchun tanlash lozim bo'lgan dastur menyusidagi punktlari ko'rsatiladi). (1.3. -rasm)



1.3.- rasm. Model tuzish oynasi.

8. Model oynasiga bloklarni qo'yish. Buning uchun mos keluvchi kutubxona bo'limini ochish kerak (Masalan, Sources – Istochniki). Keyin esa kursor bilan kerakli blok tanlanadi va sichqonchani chap tugmachasini bosib quyib yubormagan holda, blokni tuzilgan sahifaga «ko'chirib o'tkaziladi». 1.4-rasmda bloklardan tashkil topgan model sahifasi keltirilgan.




9.

1.4- rasm. Bloklar joylashtirilgan model oynasi.

Blokni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan blok tanlanadi (kursor bilan uning rasmini ko'rsatish va sichqonchani chap tugmachasini bosish orqali), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishi bosiladi.

Blok o'lchamlarini o'zgartirish uchun o'zgartirilishi lozim bo'lgan blokni tanlash kerak, sichqoncha bilan blok burchaklaridan biri belgilanadi va chap tugmachasini bosgan holda blok o'lchamlari o'zgartiriladi (bu holda kursor ikki tomonga qaragan strelka ko'rinishiga ega bo'ladi).


- Agar ehtiyoji bo'lsa, dastur tomonidan o'rnatilgan parametrlarni o'zgartirish mumkin. Buning uchun kursor yordamida tanlangan blokda sichqonchani chap tugmachasini ikki marta bosish kerak. Natijada, ushbu blok parametrlarini tahrir qilish sahifasi ochiladi. Sonli parametrlarni kiritish jarayonida butun sonlar vergul bilan emas, balki nuqta bilan ajratiladi. O'zgartirishlar kiritilgandan so'ng sahifani OK tugmasini bosib yopiladi. 1.5- rasmda uzatish funksiyasini modellashtiruvchi blok va ushbu blok parametrlarini tahrirlovchi sahifa ko'rinishi keltirilgan.



1.5.-rasm. Uzatish funksiyasi bloki va berilgan blok parametrlarini tahrirlash.

Bu oynadagi Numerator qatoriga uzatish funksiyasini suratidagi ko'pxadni koeffitsientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi. Denominator qatoriga uzatish funksiyasini maxrajidagi ko'pxadni koeffitsientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi.

- Kutubxonadan kerakli barcha bloklarni sxemada joylashtirgandan so'ng sxema elementlarini bog'lashni bajarish zarur.



1.6.-rasm. Bloklar o'rtasida bog'lanish bajarilgan model.

Bloklarni bog'lash uchun kursor bilan blokning «chiqish»ini belgilash, so'ngra sichqonchani chap tugmachasini bosgan holda chiziqni (liniyani) keyingi blok kirishiga keltirish kerak. SHundan so'nggina klavishani qo'yib yuborish mumkin. Tarmoqlanish nuqtasini hosil qilish uchun kursorni ulanish chizig'ida kerak bo'lgan tugunga olib kelish va sichqonchani o'ng klavishasini bosgan holda chiziqni tortish zarur. Chiziqni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan chiziqni tanlash talab etiladi (bloklar ustida bajarilgani kabi), so'ngra klaviaturadagi Delete klavishasini bosish lozim. 1.6- rasmda bloklar o'rtasida bog'lash amali bajarilgan model sxemasi keltilgan.

- Hisoblash sxemasini tuzgandan so'ng uni oynadagi File/Save As... menyu punktini tanlab, hamda fayl nomi va papkani ko'rsatib, diskda fayl ko'rinishida saqlash lozim. Shuni inobatga olish kerakki, fayl nomi 32 simvoldan oshmasligi, xarfdan boshlanishi hamda kirill va maxsus simvollaridan tashkil topmagan bo'lishi kerak. Shu talablar fayl yo'li uchun ham ahamiyatli (fayl saqlanadigan papkalariga). Sxemani qayta tahrirlash jarayonlarida saqlash uchun File/Save menyu punktidan foydalanish yetarli. Simulink qism dasturini qayta ishga tushirganda sxemani yuklash kutubxona nazorat qiluvchi sahifadagi yoki MATLAB asosiy sahifasidagi File/Open menyu punkti yordamida amalga oshiriladi.


2. Dinamik sistemalarning vaqt xarakteristikalarini tadqiq etish

Asosiy tipik kirish signallari:

- pog'onali signal (funksiya);

- impulsli signal (funktsiya);
- garmonik signal (funktsiya).

Sistema (zveno)larning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasiga o'tkinchi jarayon yoki o'tish funksiyasi deyiladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.




$$L\{A \cdot 1(t)\} = A \frac{1}{p}$$

$t_{o'ik}$ – o'tkinchi jarayon davomiyligi – chiqish signali turg'unlashgunga bo'lgan vaqt.

$T = \tau$ – vaqt doimiysi.

$$\text{Bunda, } T = \tau \cdot h(t) = k(1 - 0,37) \cdot 1(t) = 0,63k$$

Sistema (zveno)larning birlik impulsli ta'sirga bo'lgan reaksiyasi impulsli o'tkinchi jarayon yoki vazn funksiyasi deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilandi.




$$\delta(t) = \begin{cases} 0, & \text{булса } t \geq 0 \\ \infty, & \text{булса } t = 0 \end{cases} \quad \int_0^{\infty} \delta(t) dt = 1. \quad A \rightarrow \infty; \Delta t \rightarrow 0$$

O'tkinchi va impulsli o'tkinchi funksiyalar jarayonning vaqt xarakteristikalarini hosil qiladi – bu signal kattaligi o'zgarishning vaqtga bog'liqligidir.

Sistema (zveno) larning garmonik ta'sirga bo'lgan reaksiyasi chastotaviy xarakteristika deyiladi.

O'tkinchi jarayon quyidagicha bo'lishi mumkin:

7. Monoton;
8. Aperiodik;
9. Tebranuvchan.




MATLAB dasturi asosiy sahifasi ochilgandan keyin Simulink qism dasturini ishga tushirish kerak. Buning uchun 1 – tajriba ishida ko'rsatilgan uchta usulning biridan foydalanamiz.

Modelning o'tkinchi xarakteristikasini olish.

3. Sistemaning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi $h(t)$ – o'tish funksiyasini olish. Modelning kirishiga birlik pog'onali ta'sir hosil qilib beruvchi blok (Step) qo'yiladi va chiqishda shu funksiyaning grafiini ko'rsatuvchi (Scope) bloki qo'yiladi.

4. Sistemani ishga tushirish uchun Simulink sahifasi uskunalar panelidagi (Start) tugmasi bosiladi. O'tkinchi jarayon grafigini ko'rish uchun esa Scope bloki ustiga kursor keltirilib, sichqonchani chap tugmachasi ikki marta tez bosiladi.
- Yopiq sistema o'tish funksiyasini olish uchun modelda teskari bog'lanish zanjiri amalga oshiriladi va ikkinchi punkt takrorlanadi (2.1-rasm).




2.1-rasm.

Sistemani vazn funksiyasini olish.


Buning uchun Simulink LTI-Viewer qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Simulink-modeli sahifasida Tools\Linear Analysis... komandasini bajarilganda Model_Inputs_and_Outputs sahifasi hamda Simulink LTI-Viewer bo'sh sahifasi ochiladi (2.2-rasm).




2.2-rasm. Model_Inputs_and_Outputs sahifasi.

2. Sistema kirishiga Input Point bloki va chiqishiga Output Point blokini o'rnatiladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Input Point bloki va Output Point bloki o'rnatilgan model.

3. LTI Viewer sahifasida Simulink\Get Linearized Model komandasi bajariladi.



2.4-rasm.. LTI Viewer sahifasi.

Bunda ekranda sistemaning birlik pogonali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika hosil buladi. Sitemaning vazn funksiyasini chikarish uchun LTI Viewer sahifasida sichqonchani chap klavishasini bosiladi unda xarakteristikani uzgartirish darchasi paydo buladi. U erdan Impulse punkti tanlaniladi (2.4-rasm).

NAZORAT SAVOLLARI

1. MATLAB sistemasi qanday masalalarni yechishga mo'ljallangan?
2. MATLAB oynasining asosiy elementlarini tushuntiring?
3. MATLABning asosiy menyu bandleri vazifalari qanday?
4. Asosiy matematik o'zgarmlar MATLABda qanday tasvirlanadi?
5. MATLABda ratsional sonlar qanday ko'rinishda beriladi?
6. MATLAB buyruqlari qanday maxsus belgilar bilan tugaydi ?
7. factor, expand, simplify, collect buyruqlarining vazifalarini tushuntiring.
8. Uzatish funksiyasini hamda nollari va qutblarini aniqlang.
9. Uzatish funksiyasini fizik amalga oshirish shartini ko'rsating.
10. Ketma-ket, parallel va teskari bog'langan zvenolarning uzatish funksiyasini hisoblash formulalarini keltiring.
11. Tugunlarni va summatorni yelementlararo ko'chirish qoidalari.
12. Berk sistema uzatish funksiyasi va xatolik signalini hisoblash formulalarini keltiring va ta'rif baring..
13. Uzatish funksiyasini hamda nollari va qutblarini aniqlang.
14. Uzatish funksiyasini fizik amalga oshirish shartini ko'rsating.

15. Ketma-ket, parallel va teskari bog'langan zvenolarning uzatish funksiyasini hisoblash formulalarini keltiring.
16. Tugunlarni va summatorni elementlararo ko'chirish qoidalari.
Berk sistema uzatish funksiyasi va xatolik signalini hisoblash formulalarini keltiring va ta'rif baring..

1-Topshiriq. Simulink paketida quyidagi model struktur sxemasini tuzing va sistemaning vaqt xarakteristikalarini oling.

1. Qanday buyruqlar bilan tekislikda va fazoda grafiklarni yasash mumkin? Bu buyruqlarning parametrlari haqida gapiring.
2. Oshkormas ko'rinishda berilgan funksiyalarning grafiklari qaysi buyruqlar yordamida yasaladi? Ularning parametrlarini yozing
4. plot va mesh buyrug'i nima maqsadda ishlatiladi?
5. Berilgan tengsizliklar sistemasi orqali aniqlanadigan ikki o'lchovli soha qanday buyruq bilan yasaladi?
6. Fazoviy sirtlar va egri chiziqlarning grafiklari qanday buyruq bilan yasaladi?
7. bar3 va plot3 buyruqlarining imkoniyatlari haqida so'zlab bering.

3- TAJRIBA ISHI.

AUTOCAD TIZIMI BILAN TANISHISH. AUTOCAD BUYRUQLARI BILAN TANISHISH. KO'RINISHLARNI VA CHIZMALARNI SOZLASH. AUTO CADNING ASOSIY CHIZMA CHIZISH BUYRUQLARI BILAN TANISHISH. LOYIHADA SIMVOLLAR VA SHTRIXLARNI QO'SHISH. YOZUVLAR VA O'LCHAMLARNI QO'SHISH. VARAQLAR KOMPONOVKASI VA BOSMAGA CHIQRISH. OBYEKTLARNI QURISH VA TAHRIRLASH. AVTOMATLASHTIRISHDA FOYDALANILADIGAN FUNKSIONAL SXEMALARDAGI SODDA BOSHQARUV KONTURLARINI QURISH (2 soat)

Reja:


1. AutoCAD tizimi haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Foydalanuvchi interfeysi. Uskunalar paneli.
3. AutoCADda chizmalarni boshqarish.
4. AutoCAD tizimida chizmalar chizish usullari.
5. Chizma parametrlarini rostdash.
6. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida sodda chizmalar yaratish.
7. Ob'yektlarni ajratish.
8. Ob'yektlar xossalarini o'zgartirish.
9. Muharrirlash komandalari.
10. Ob'yektlar forma(shakl)larini o'zgartirish komandalari.


AutoCAD tizimida grafik dasturlarning elementlarini ularga mos bo'lgan tayyor buyruqlar paketidan foydalanib berilgan o'lchamlarini komp'yuterga kiritib, bevosita muloqotlar ketma-ketligi asosida tasvirlar bajariladi. Bunday buyruqlar tarkibiga loyihalash ishlarini avtomatlashtirish uchun qo'shimcha buyruqlar ham kiritiladi.

3. AutoCADda chizmalarni boshqarish.

Yangi chizmalar yaratishdan oldin mavjud chizmalarni xotiraga yuklash, ushbu chizmani boshqa nom bilan saqlash va AutoCADda ishni yakunlash bilan tanishamiz.

Mavjud chizmani ochish uchun quyidagi usullardan biri qo'llanadi:

Standart uskunalar panelidagi  (Open-Otkrit) tugmani bosish yordamida; File menyu bo'limining Open (File-Open) komandasi yordamida; Buyruqlar oynasiga Open komandasini kiritish orqali; Ctrl va O klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+O) bosish orqali. Natijada Select File (Vibor fayla) muloqat oynasi ochiladi (1-rasm).




2.1-rasm.


Ochilgan muloqat oynasidan tegishli fayl tanlanadi, uni xotiraga yuklamasdan oldin chizmaning ko'rinishini oynaning(Prosmotr) qismida ko'zdan kechirish mumkin, buning uchun tanlangan fayl ustida kursor tugmasini bosish etarli.

Tanlangan faylni xotiraga yuklash uchun fayl nomi ustida kursorni ikki marta bosiladi yoki faylni ajratib keyin Open tugmasi bosiladi, natijada tanlangan chizma ekranda namayon bo'ladi.

Chizmani saqlashning bir nechta usullari mavjud:

- Standart uskunalar panelidagi  (Save-Soxranit) tugmani bosish yordamida; File menyu bo'limining Save (File- Save) komandasi yordamida; Buyruqlar oynasiga Save komandasini kiritish orqali; Ctrl va S klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+S) bosish orqali.

Faylni saqlashda sistema chizmani avtomatik ravishda DrawingN nom bilan saqlaydi, bu erda N joriy ish seansidagi chizma nomeri. Chizmani boshqa biror nom bilan saqlash uchun Menyu bo'limining Save Drawing As (Soxraneniye cherteja) bandini tanlaymiz, natijada faylni saqlash muloqat oynasi ochiladi(2-rasm).



2.2-rasm.

File name (Imya fayla) satriga chizma uchun tanlagan nomni kiritamiz va Save(Soxranit) tugmasini bosamiz, natijada fayl tashqi xotirada saqlanadi.

AutoCAD dasturidan chiqishning quyidagi usullari mavjud:

File- Exit(Fayl-Vixod);

Alt+F4 yoki Ctrl +Q;

Komandalar oynasiga QUIT (Pokinut) yoki EXIT (VIXOD) buyruqlari yordamida;


AutoCAD dasturining tizimli tugmasini yopish orqali.

4. AutoCAD tizimida chizmalar yaratish usullari.

2.1. Shablon yordamida chizma yaratish.

AutoCAD dasturida har qanday chizma shablon (template) asosida yaratiladi. Chizma tayyorlash jarayonida ushbu shablonlardan foydalanish mumkin, bu loyihalash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Yangi chizma yaratishning bir nechta usullari mavjud:


- Standart uskunalar panelidagi  (New-Sozdat) tugmani bosish yordamida;

File menyu bo'limining New (File- New) komandasi yordamida;

Buyruqlar oynasiga New (Sozdat) komandasini kiritish orqali;

Ctrl va N klavishlarni bir vaqtda (Ctrl+N) bosish orqali.

Natijada Select template (Vibor shablona) muloqat oynasi ochiladi(3-rasm).




2.3-rasm.

Yangi chizma yaratish uchun taqdim etilgan shablonlar royxatidan keraklisi tanlab olinadi va chizma sohasiga yuklandi.

5. Chizma parametrlarini rostdash.

3.1. Yangi qatlamlar yaratish.

AutoCADda yaratiladigan chizmalar qatlamlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Har bir qatlam umumiy chizmani bir qismini tashkil qiladi. Qatlamlar tizimini yaratish/rostdash uchun Format\Layer(Format/Sloy...) komandasi va Layer & Linetype Properties(Menedjer Svoystv Sloya) muloqat oynasidan foydalaniladi(4-rasm).



2.4-rasm.

Muloqat oynasida quyidagi komandalardan foydalanish imkoniyati mavjud:

- New(Noviy) – yangi qatlam yaratish;
- Delete(Udalit) _ mavjud qatlamni yo'qotish.

Yangi qatlam yaratilayotganda yoki muloqat panelining Details(Podobnosti) blokida mavjud bo'lgan parametrlarni o'zgartirishda quyidagilarni ko'rsatish zarur:


- qatlam nomini(Name-Imya);
- qatlamning joriy rangi (Color-Svet);
- qatlam chizig'ining joriy tipi(Linetype-Tip Linii);
- qatlam xarakteristikasi.

Details blokida qatlamning quyidagi xarakteristikasi ko'rsatiladi:

- qatlam qo'shilgan(On); qatlam ko'rinmas holatda(o'chrilgan);
 - muzlatilgan-zamorozhen (Freeze in all viewports); muzlatilgan qatlam ko'rinmas holatda va undan foydalanish mumkin emas ya'ni uni taxrirlab bo'lmaydi;
 - qatlam yopilgan(Lock); yopilgan qatlam ko'rinarli holatda lekin uni taxrirlab bo'lmaydi.
- Qatlam bir-biriga bog'lik bo'lmagan holda qo'shilish/o'chrilish, taxrirlanishi mumkin. Tayin vaqtda faqat bitta qatlam-joriy qatlam bilan ishlash mumkin. Joriy qatlamni rostdlash (nastroyka) jarayonida tanlash mumkin. Buning uchun muloqat panelining Current tugmasidan foydalaniladi.


Tahrirlash bosqichida qatlam xarakteristikalarini o'zgartirish uchun ob'ektlarning xossalar satridan foydalaniladi. Hossalar satrida qatlamlar ro'xati joylashgan bo'lib, bunda joriy qatlam rang bilan ajralib turadi. Kerakli qatlamni joriy qatlam qilish uchun uni kursor yordamida tanlash kerak.

3.2. Ob'ektning joriy rangini rostdlash.




2.5-rasm.

3.3. Chiziqning joriy tipini rostdlash.




2.6-rasm.

3.4. Chiziqning joriy qalinligini rostdash.



2.7-rasm.

3.5. O'lchov birligini rostdash.




2.8-rasm.

6. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida soda chizmalar yaratish.


4.1. Ekranda AutoCAD dasturida biror kesma chizish buyrug'i quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1. "Liniya"- kesma chizish tugmasi yuklangach, muloqotlar darchasida "Boshlang'ich nuqtani kiriting" so'rovi paydo bo'ladi (9-rasm).



2.9-rasm.


Unga javoban kesmani dastlabki nuqtasining (x1,y1) koordinatalarini terib yoki “Sichqon” yordamida kursor nishoni bilan ixtiyoriy (x1i,y1i) koordinatalar kiritiladi. Shunda navbatdagi, “Keyingi nuqtani kiriting” so’rovi paydo bo’ladi (10-rasm).



2.10-rasm

2. Bu so’rovga ham dastlabki nuqtaning koordinatalarini kiritgan kabi, (x2,y2) yoki (x2i,y2i) koordinatalari kiritiladi va ekranda kesma paydo bo’ladi (11-rasm).

Muloqotlar darchasida yana ikkinchi to’g’ri chiziqni chizish uchun navbatdagi nuqtasini kiritishni so’raydi. Bunday nuqtalarni ketma-ket kiritib, ko’plab kesmalarni hosil qilish mumkin. Kesma chizish buyrug’dan chiqish uchun “Enter” yoki “Esc” tugmasini ketma-ket ikki marta yuklash kerak.




2.11-rasm

Ikkinchi va uchunchi kesmalarni o’tkazgach, keyingi so’rovda, qavs ichida “Close”-“Zamkni” – “Birlashtir” yoki “Undo”- “Otmenni” – “Bekor qil” qo’shimcha buyruqlari paydo bo’ladi (12-rasm).

“Close”-“Zamkni” – “Birlashtir” so’zining bosh harfini “C” ni terib, “Enter” yuklansa, oxirgi kesma uchi birinchi kesmaning boshlang’ich nuqtasi bilan birlashib qoladi. “Undo”- “Otmenni” – “Bekor qil” so’zining bosh harfini “U”ni terib, “Enter” bilan qayd etilsa, oxirgi chizilgan kesma ekrandan yo’qoladi. Bunday amallarni ketma-ket bajarib, bir buyruqda chizilgan kesmalarni birin – ketin ekrandan o’chrish ham mumkin.

Ekranda tasvirlangan chizmalarni va kesmalarni yo’qotish uchun ularni bitta-bitta kursor bilan “Sichqon” yordamida ajratib olinadi va “Delete” yoki “Enter” tugmasi bosiladi.



2.12-rasm

Agar ekranda chiziqlar ko’p bo’lsa, kursorni ekranning biror burchagiga keltirib, “Sichqon”ni chap tugmasi bosilib, uni ikkinchi qarama-qarshi burchagiga diagonal chiziq boylab suriladi. Natijada kattalashib boruvchi to’g’ri to’rtburchak paydo bo’ladi. “Sichqon” tugmasini ikkinchi maratoba yuklab, barcha chiziqlar yoki tasvirlar ajratiladi, ular shtrix chiziqlar ko’rinishida, ko’k rangda tasvirlanib qoladi.


“Enter” yoki “Delete” tugmasi bosilib, barcha chiziqlar ekrandan yo’qotiladi. Bunda hosil bo’ladigan ajratish to’g’ri to’rtburchaklari o’ng tomondan boshlansa, ular shtrix chiziq bilan tasvirlanib, uning sohasiga biror uchi kirib qolgan chiziqlarni ham ekrandan yo’qotish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Agar u chap tomondan ochilsa, to’g’ri to’rtburchak tutash chiziqlar bilan tasvirlanib, u faqat shu to’rtburchak sohasida hamma nuqtalari bilan joylashgan chiziqlarnigina ekrandan yo’qatadi.

4.2. Ekranda kesmani yangi vaziyatga keltirish amali va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo’ladi Kesma ajratiladi: kursorning “+” nishoni “Sichqon” yordamida kesmaga keltiriladi va yuklanadi.

Kursorni kesmaning biror uchidagi kvadrat nishoncha bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chiriladi va qayd etiladi (13-rasm). Natijada kesma yangi vaziyatga kelib qoladi.


Agar kesma o'rtasida joylashgan kvadrat nishonni kursor bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chirilib qayd etilsa, kesmsning yangi vaziyati, dastlabki berilgan vaziyatga parallel holda tasvirlanib qoladi.




2.13-rasm


4.3. Kesmaga rang berish buyrug'i va foydalanish algoritmi quyidagich bo'ladi

Kesma ajratiladi:

 Birinchi "ByLayer" (po sloyu) rang tugmasi yuklanadi: Shunda standart ranglar royxatini taklif qiluvchi darcha paydo bo'ladi (14-rasm). Agar ulardan bo'lak boshqa rang tanlash kerak bo'lsa, "Drugoye" tugmasi yuklanadi va boshqa ranglarni o'ziga jamlagan "Rang tanlash" darchasi paydo bo'lib, unda jamlangan turli xildagi ranglar taklif qilinadi (15-rasm).



2.14-rasm





2.15-rasm

Bu darchadan tanlangan rangni kursor yordamida yuklanadi va ketma-ket ikkita marta "Ok" tugmasi yuklanib, uni standart ranglar royxatiga o'tkaziladi. Shunda "ByLayer" o'rnida yangi rang nomerini yozuvi paydo bo'ladi.

So'ngra "Esc" tugmasini ikki marta ketma-ket yuklansa, kesma chizig'i yangi rangda tasvirlanib qoladi. Agar rang tugmasidagi yozuv yangi rang yozuvi bilan qoldirilsa, keyingi chiziladigan kesmalar va chiziqlar tanlangan rangda chiziladi. Bu rangdan chiqish uchun u yuklanadi va ranglar royxatidan "ByLayer" tugmasi yuklanadi.


4.4. Kesmani chiziq turlariga muvofiq chizish buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

1.  Ikkinchi "ByLayer" (Tipi linii) chiziq turlari tugmasi yuklanadi. Bu buyruqdagi chiziq turlarini royxati taklif etiladi (16-rasm). Agar chiziqlarning boshqa turlari kerak bo'lsa, ro'xatning eng pastida joylashgan "Drugoye" tugmasi yuklanadi.



2.16-rasm

Shunda ekranda “Chiziq turini menedjeri”ning darchasi paydo bo’ladi. Undagi yuqori o’ng tomonda joylashgan “Zagruzit” qushimcha buyrug’i yuklanadi. Natijada darcha o’rtasida kompyuterga kiritilgan chiziq turlarining nomi va tasviri taklif etiladi (17-rasm).



2.17-rasm


2. Undan istalgan chiziq turini, masalan, “DoshdOOT” yoki “Doshdoot2” sichqon bilan yuklanadi va “Ok” tugmasi bosiladi. Shunda derazani dastlabgi ko’rinishi paydo bo’ladi va yana undagi “Ok” tugmasi yuklanadi.


3. Kesma ajratiladi.

4. “ByLayer” – chiziq turlari tugmasi yuklanadi va royxatdan chiziq turi tanlanib yuklanadi va ekrandagi ajratilgan kesma tanlangan chiziq turida chizilib qoladi.

4.5.Chiziqni yo’g’onlashtirish algoritmi buyrug’i va undan foydalanish algoritmi

Kesma ajratiladi;

 Uchinchi “ByLayer” (po sloyu) chiziq yo’g’onligi – “Veslin” tugmasi yuklanadi: kompyuterga kiritilgan yog’onliklar royxatining darchasi paydo bo’ladi (18-rasm) ulardan birortasi tanlab yuklnadi;




2.18-rasm

Ekranda chiziqning yo’g’onligini aniqlash uchun holatlarni boshqarish qatoridagi “Veslin” tugmasi yuklanadi. Shunda kesma chizig’i tanlab olingan yo’g’onlikda tasvirlanib qoladi. Agar tanlab olingan yo’g’onlik qiymati uchinchi “ByLayer” so’zi o’rnida yozilgan bo’lsa keyingi, chiziladigan chiziqlar yo’g’onligi tanlab olingan yo’g’onlikda chiziladi. Bu yo’g’onlikdan chiqish uchun tanlab olingan yo’g’onlik yuklanadi va royxatdan “ByLayer” so’zi yuklanadi. Natijada ekrandagi chiziqlar kompyuterga o’rnatilgan standart yo’g’onlikga o’tib qoladi.

7. Ob’ektlarni ajratish.

Muharrirlash komandalari mavjud ob'yektlarning forma(shakl)larini, joylashish holatini, rangini, chiziq tipi kabi va boshqa xarakteristikalarini o'zgartirishga mo'ljallangan. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: nisbatan soda bo'lgan muharrirlash komandalari (nusxa olish, o'ektni burish, ob'ektni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va h.k.z.) va ob'ektlar ustida murakkam o'zgartirishlar bajaradigan (chiziqnlarni tutashtirish-sopryajenie, tirajirovanie va boshqalar) komandalar. Muharrirlash komandalari O'zgartirish (Izmenit) menyusida jamlangan \Modify\.



4.1-rasm

1. "Steret"- tanlangan ob'ektni o'chirish tugmasi;
2. "Kopirovat obyekt"- ob'ektdan nusxa olib ko'chirish tugmasi;
3. "Otrajeniye"- ob'ektga simmetrik tasvir yasash tugmasi;
4. "Sdvig"- tanlangan ob'ektni siljitish tugmasi;
5. "Massiv"- ob'ektning tasvirini ko'paytirib tasvirlash tugmasi;
6. "Peremestit"- tanlangan ob'ektni ko'chirish tugmasi;
7. "Vrashat"- ob'ektni biror burchakka aylantirish (burash) tugmasi;
8. "Masshtab"- ob'ektning tasvirlarini va o'lchamlarini o'zgartirish tugmasi;
9. "Rastyajeniye"- tanlangan ob'ektni uzaytirish tugmasi;
10. "Obrezka"- ob'ektning ortiqcha qismini kesib tashlash buyrug'ining tugmasi;
11. "Rasshireniye"- tanlangan ob'ektni kengaytirish tugmasi;
12. "Prervat v tochke"- ob'ektni nuqtada uzish tugmasi;
13. "Prervat"- ob'ektni nuqtalar oralig'ida uzish tugmasi;
14. "Faska"- burchak hosil qilib kesishuvchi chiziqnlarning burchagi faskasini olish tugmasi;
15. "Obod"- ob'ektlardagi burchaklarni aylana yoyi yordamida yumoloqlash tugmasi;
16. "Vzorvat(Razorvat)"- ob'ektlarni birlashtiruv qismlarini uzib olib yo'qotish tugmasi

Muharrirlash komandalarini ishga tushirishning nisbatan qulay usuli bu Modify (O'zgartirish/Izmenit) uskunalar paneli hisoblanadi.

6. Ob'ektlar xossalarini o'zgartirish.

Ob'ektlarni ajratish uchun barcha boshqa komandalar nafaol bo'lish kerak. Videlyat obyektini mojno togda, kogda ni odna drugaya komanda ne aktivna. AutoCAD ob'ektlarni ajratish pejimida yoki pejimida emasligini komandalar satrini holatidan aniqlash mumkin. Komanda satrida faqat buyruqlarni kiritish taklifi bo'lish kerak(Command:).

Ajratish uchun ob'ekt konturida sichqoncha chap tugmasini bosish kerak. Ikkinchi va undan keyingi ob'ektlar ham shunday tarzda ajratiladi. Bunda oldin ajratilgan ob'ektlardan, ajratilganlik holati bekor qilinmaydi.

Bundan tashqari ob'ektlar guruhini ramkaga olish orqali ham bajarish mumkin. Drugoy sposob videleniya gruppi obyektov - eto videleniye ramkoy. Dlya etogo neobxodimo v rejime videleniya ukazat mishyu koordinati dvux uglov pryamougolnika. Vse obyekt, polnostyu popavshiy v ramku, budut videleni.

Ob'ektlardan ajratilganlikni bekor qilish ESC tugmasini bosish orqali bajariladi.

Diqqat! Agar muharrirlash komandasi ishga tushirilgan bo'lsayu, biroq ajratilgan ob'ektlar bo'lmasa, u holda AutoCAD oldin kerakli ob'ektlarni ajratishni taklif qiladi. Bunday xolda komanda ENTER tugmasini bosgandan keyin o'z ishini boshlaydi.

Sichqoncha yordamida ob'ektlarni tezkor o'zgartirish.

Muharrirlashning eng muhim komandalarida biri, ob'ektlarni yo'qotish komandasini hisoblanadi. Ajratilgan ob'ekt DELETE tugmasini bosish bilan yo'qatiladi. DELETE tugmasi \Modify\Erase komandasini vazifasini bajaruvchi tezkor klavisha hisoblanadi.

Ektranda tasvirlangan chizmalarni va kesmalarni yo'qotish uchun ularni bitta-bitta kursor bilan "Sichqon" yordamida ajratib olinadi va "Delete" yoki "Enter" tugmasi bosiladi.


Agar ektranda chiziqlar ko'p bo'lsa, kursorni ekranning biror burchagiga keltirib, "Sichqon"ni chap tugmasi bosilib, uni ikkinchi qarama-qarshi burchagiga diogonal chiziq boylab suriladi. Natijada kattalashtirib boruvchi to'gri to'rtburchak paydo bo'ladi. "Sichqon" tugmasini ikkinchi maratoba yuklab, barcha chiziqlar yoki tasvirlar ajratiladi, ular shtrix chiziqlar ko'rinishida, ko'k rangda tasvirlanib qoladi.

"Enter" yoki "Delete" tugmasi bosilib, barcha chiziqlar ektrandan yo'qotiladi. Bunda hosil bo'ladigan ajratish to'gri to'rtburchaklari o'ng tomondan boshlansa, ular shtrix chiziq bilan tasvirlanib, uning sohasiga biror uchi kirib qolgan chiziqlarni ham ektrandan yo'qotish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar u chap tomondan ochilsa, to'gri to'rtburchak tutash chiziqlar bilan tasvirlanib, u faqat shu to'rtburchak sohasida hamma nuqtalari bilan joylashgan chiziqlariga ektrandan yo'qatadi.

Ob'ekt ajratilgandan keyin sichqoncha yordamida uning shaklini o'zgartirish mumkin. Buning uchun ob'ekt(kesma) ajratiladi: ya'ni, kursorning "+" nishoni "Sichqon" yordamida kesmaga keltiriladi va yuklanadi. Kursorni kesmaning(ob'ekt konturi) biror uchidagi kvadrat nishoncha bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chiriladi va qayd etiladi (4.2-rasm). Natijada kesma(ob'ekt konturi) yangi vaziyatga kelib qoladi.

Agar kesma(ob'ekt konturi) o'rtasida joylashgan kvadrat nishonni kursor bilan bog'lab, istalgan joyga ko'chirilib qayd etilsa, kesmasining yangi vaziyati, dastlabki berilgan vaziyatga parallel holda tasvirlanib qoladi.




4.2-rasm.

Amalda yuqorida bajarilgan amallar \Modify\Stretch komandalarni ishga tushishiga olib keladi. Bitta ajratilgab ob'ekt uchun \Modify\Move komandalar bajariladi. Demak ob'ekt holatini ob'ekt konturidagi markaziy markerni sichqoncha bilan ushlab sudrash orqali o'zgartiriladi.

Chizmadagi har qanday ob'ektning parametrlarini \Modify\Properties komandalari yordamida o'zgartirish mumkin:

\Modify\Properties (Svoystva obyekt/Obyektning xususiyati) paneli




4.3-rasm.

1. "Menedjer svoystv sloya"- qatlam xossalari menedjeri;
2. "Sozdat sloy"- ekranda qatlam yaratish;
3. "Sdelat sloy obyektu tekushim"-ob'ekt qatlamini joriy qatlamga aylantirish;
4. "Predidushiy sloy"- dastlabki (oldingi) qatlam;
5. "Sveta"- tasvirdagi chiziqlarga rang berish;
6. "Tipi liney"- tasvirdagi chiziqlarga tip berish;
7. "Tolshina linii"- tasvirdagi chiziqlarga yo'g'onlik berish;

Modify muloqat panelida, ajratilgan ob'ektning barcha asosiy parametrlari o'zgartirish uchun imkoniyat mavjud. Har bir ob'ekt tipi uchun muloqat paneli ko'rinishi individual bo'ladi. Misol tariqasida Modify Text paneli ko'rinishini ko'rib chiqamiz (4.4-rasm).

Properties bloki chizmadagi ixtiyoriy ob'ektlarni xossalarni muharrirlashda bir xil tipli bo'ladi. Bu erda ob'ektning rangi (Color), qatlami (Layer), chiziqlar tipi (Linetype) o'zgaradi, shuningdek chiziqlarning qalinligi (Thickness) va chiziqning umumiy masshtab koeffitsienti o'zgaradi (Linetype scale).


Text blokida matn satrini muharrirlash mumkin. Bundan tashqari, matn stilini rostdashda o'rnatilgan diyarli barcha parametrlarni o'zgartirish imkoniyati mavjud: jumladan, qo'llanilayotgan stilni (Style), balandligini (Height), enini (Width factor), simvollar og'ishini (Obliquing), satr burilishini (Rotation), tekislash turini (Justify) va boshqalar.



4.4-rasm.

Origin bloki ham barcha ob'ektlarning xossalarni muharrirlashda tipik hisoblanadi. Bu yerda ob'ektning joylashish nuqtalari koordinatalari ko'rsatiladi. Nuqta koordinatalarini klaviatura yordamida

(maydon X, Y, Z) yoki sichqoncha yordamida, Pick Point tugmani bosish orqali kiritish mumkin. 4.5-rasmda kesma parametrlarini muharrirlashga mo'ljallangan Modify Line muloqat paneli ko'rsatilgan. Uni Modify Text muloqat panelidan farqi kesma uchi koordinatasi bilan ishlashga mo'ljallangan To Point blokidir(4.4-rasm).



4.5-rasm

6. Muharrirlash komandalari;

Muharrirlash komandasini muharrirlashga mo'ljallangan ob'ektni ajratishdan oldin yoki keyin ham ishga tushirish mumkin. Shunga ko'ra muharrirlash qadamlari ketma-ketligiga turlicha bo'ladi. Quyida ob'ekt ajratilmagan hol uchun muharrirlash komandalar tavsifi keltirilgan. Agar oldindan ob'ekt ajratilgan bo'lsa, u xolda komandalarni bajarilishi vaqtida ob'ektni tanlash bosqichi qatnashmaydi.

Quyidagi muharrirlash komandalaridan foydalanish mumkin:

Ob'ektlarni o'chirish

\Modify\Erase

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

O'chiriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi; ENTER(Delete) tugmasi bosiladi.

Ob'ektdan nusxa olish

\Modify\Copy

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Nusxa olinadigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi; ENTER tugmasi bosiladi.

<Base point or displacement\Multiple>

oldin tayanch nuqtani koordinatasi ko'rsatiladi, so'ngra uning yangi o'rni ko'rsatiladi; M – to'lamiy nusxalash rejimi.

Izoh: to'plamiy nusxa olishda bir yo'la ob'ektning bir nechta nusxasi olinadi, ish ENTER tugmani bosish bilan yakunlanadi.

Ko'zgu li akslantirish

\Modify\Mirror

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Ko'zgu li akslanishi quriladigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi;

ENTER tugmani bosish bilan yakunlanadi.

First point of mirror line

birinchi nuqtani koordinatasi ko'rsatilsin,

Second point

unga nisbatan ko'zgu li akslanadigan chiziqning ikkinchi nuqtasini koordinatasi ko'rsatilsin.

Delete old objects? <N>

Y – agar original ob'ekt o'chirilsa; N – agar ob'ekt o'chirilmasa.

O'xshash ob'ektni chizish

\Modify\Offset

Komanda satridagi so'rov:

Command: Offset distance or Through

o'xshash ob'ekt uchun siljish(smesheniye) ko'rsatiladi (odatda klaviatura orqali);

Select object to offset

original sifatida faqat bitta ob'ekt tanlanadi; agar ob'ekt tanlangan bo'lmasa, u xolda ENTER bosiladi, komanda o'z ishini yakunlaydi.

Side of offset?

sichqon yordamida originalga nisbatan o'xshash ob'ektlar quriladigan yo'nalish ko'rsatiladi.

Ob'ektlarni ko'chirish

\Modify\Move

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

K'chiriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi;

ENTER tugmasi bosiladi.

Base point or displacement

oldin tayanch nuqtani koordinatalari ko'rsatiladi;

Second point of displacement

tayanch nuqtani yangi joydagi koordinatalari ko'rsatiladi.

Ob'ektlarni burish

\Modify\Rotate

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Buriladigan ob'ektlar ketma-ket sichqoncha bilan belgilab chiqiladi;

ENTER tugmasi bosiladi.

Base point

tayanch nuqtaning koordinatalari ko'rsatiladi -burilish markazi ko'rsatiladi;

<Rotation angle>\Reference

burilish burchagi ko'rsatiladi(graduslarda); R – havoladan foydalanib burilish.

7. Masshtabni o'zgartirish

\Modify\Scale

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Masshtablanadigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi; ENTER tugmasi bosiladi.

Base point tayanch nuqtaning holati ko'rsatiladi.

<Scale factor>\Reference masshtab koeffitsienti ko'rsatiladi (1 sootvetstvuet 100%); R – qiyosiy masshtablashtirish.

2. Ob'ektlar forma(shakl)larini o'zgartirish komandalari.

\Modify, menyuda mujassamlashgan komandalar guruhi ob'ertladning forma va o'lchamlarini murakkab o'zgartirishga mo'ljallangan. Ushbu komandalarni bajarishda taxrirlanadigan ob'ektlarni oldindan tanlash shart emas.

Quyidagi komandalardan foydalanish mumkin:

Ko'paytirish(Tirajirovaniye)

\Modify\Array

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select objects

Ko'paytiriladigan ob'ektlar ketma-ket tanlanadi; ENTER bosiladi.

Rectangular or Polar array (<R>/P)

R – to'g'riburchakli to'r boyicha ko'paytirish pejimini tanlash; P – aylana konturi boyicha ko'paytirish pejimini tanlash.

To'g'riburchakli to'r boyicha joylashtirish rejimi tanlanganda, quyidagi amallar bajariladi:

Number of rows

to'g'riburchakli to'rni satrlar soni ko'rsatiladi,

Number of columns

to'g'riburchakli to'rni ustunlar soni ko'rsatiladi,

Unit cell or distance between rows

to'r satrlari orasidagi masofa, quyidan yuqoriga yunalish musbat hisoblanadi,

Distance between columns

to'r ustunlari orasidagi masofa, chapdan o'ngga yunalish musbat hisoblanadi.

Aylana boylab joylashtirish rejimini tanlanganda quyidagi amallar bajariladi:

Base<Specify center point of array> aylanani markaziy nuqtasi ko'rsatiladi,

Number of items originalni ham hisobga olganda tirajdagi elementlar soni,


Angle to fill <360> tirajlanayotgan ob'ektlar bilan to'ldirish uchun yoy burchagi ko'rsatiladi; burchak ngraduslarda beriladi.

Rotate objects as they are copied? Y - burish bajariladi; N – burish bajarilmaydi.

Izoh: ajratilgan ob'ektlarni ko'paytirish (tirajirovaniye) tanlangan kontur boyicha bajariladi (to'g'riburchakli to'r yoki aylana boyicha). 4.6-rasmda aylanalarni to'g'riburchakli to'r boyicha va to'rtburchaklarni aylana yoyi boyicha ko'paytirish amallari natijalari keltirilgan.



4.6-rasm



4.7-rasm.

Ob'ektning biror qismini berilgan chegara boyicha qirqish

`\Modify\Trim`

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select cutting edges

"kesuvchi" ob'ekt tanlanadi va ENTER tugmasi bosiladi.

Select object to trim

"kesiluvchi" ob'ekt tanlanadi va ENTER tugmasi bosiladi.

Izoh: ob'ekt bir vaqtning o'zida kesuvchi hamda kesiluvchi bo'lishi mumkin.

4.7.-rasmda Trim amalini bajarilish natijasi keltirilgan.

Ob'ektning tarkibiy qismlarga ajratish

`\Modify\Break`

Komanda satridagi so'rov:

Command: Select object

Qismlarga bo'lish uchun ob'ekt tanlash; ob'ekt tanlangan nuqta, uzish nuqtasi hisoblanadi.

Enter second point (or F for first point)

ikkinchi nuqtaning koordinatasini kiritish zarur; agar birinchi va ikkinchi nuqtalarni koordinatalari ustma – ust tushmasa,

ob'ektning nuqtalar orasida yotgan qismi olib tashlanadi(4.8-rasm); F – birinchi uzilish nuqtani tanlashni takrorlash.

Ko'rsatilgan chegaragacha ob'ektning cho'zish

`\Modify\Extend`

Komanda satridagi so'rov:


Command: Select boundary edge

vibor obyektga, do granitsi katorogo neobxodimo vityanut drugoy obyekt.

Select object to extend

vibor toy chasti obyektga, kotoraya doljna bit vityanuta. Komanda zavershayetsya povtornim najatiyem ENTER.

Izoh: komandu udobno ispolzovat dlya tochnogo sopryajeniya obyektov. Na ris. 4.9 priveden rezultat primeneniya komandi.



4.8-rasm.



4.9-rasm.

Faskalarni yo'qotish (ikkita kesishuvchi kesmalarni kesish)

`\Modify\Chamfer`

Komanda satridagi so'rov:

Command: Polyline\Distance\Angle\Trim\<Select first line>

birinchi chiziqni ko'rsatish; D – birinchi va ikkinchi chiziqlar faskalar uzunligi ; P – poliliniyani kesish burchaklari.

Second line

ikkinchi chiziqni ko'rsating.

Agar D variant tanlangan bo'lsa:

Enter first chamfer distance

birinchi chiziq bo'cha faska uzunligi beriladi,

Enter second chamfer distance

ikkinchi chiziq bo'cha faska uzunligi beriladi.

Agar P variant tanlangan bo'lsa:

Select 2D polyline

sichqon bilan poliliniya tanlanadi.

Izoh: komandalar odatda ikki bosqichda bajariladi. Birinchi ishga tushganda faskalar o'lchamlari qoyiladi. Ikkinchi ishga marta tushirilganda burchaklardan faskalar olib tashlanadi. Poliliniyalar oldindan `\Draw\Polyline` komanda bilan yaratiladi. 4.10-rasmida Chamfer komanda ishi natijalari keltirilgan.

Bir ob'ektdan boshqasiga silliq o'tishni (skrugleniya) bajarish `\Modify\Fillet`

Komanda satridagi so'rov:

Command: Polyline\Radius\:\Select first object

silliq o'tishni bajarish uchun birinchi ob'ektning ko'rsatish; R – dumoloqlanish radiusini ko'rsatish; P – poliliniyani dumoloqlanishi.

Select second object

silliq o'tishni bajarish uchun ikkinchi ob'ektning ko'rsatish.

Agar R variant tanlangan bo'lsa:

Enter fillet radius

dumoloqlanish radiusi beriladi.

Agar P variant tanlangan bo'lsa:

Select 2D polyline

burchaklarni dumoloqlash uchun sichqon bilan poliliniya tanlanadi.

Izoh: Ushbu komanda ham ikki bosqichda bajariladi. Birinchi marta ishga tushirilganda dumoloqlanish radiusi

tayinlanadi. Ikkinchi marta ishga tushirilganda esa aynan dumoloqlashtirish amalgam oshiriladi. Poliliniyalar oldindan \Draw\Polyline komanda bilan yaratilgan bo'lishi lozim. 4.11-rasmda ikki kesmada silliq o'tishni qurish natijasi keltirilgan.



NAZORAT SAVOLLARI:

1. AutoCAD tizimi haqida umumiy ma'lumotlar aytib bering.
2. Foydalanuvchi interfeysi. Uskunalar paneli. bayon qiling.
3. Obyektning xususiyati paneli.
4. O'zgartirish" paneli.
5. AutoCADda chizmalarni boshqarish;
6. AutoCAD tizimida chizmalar chizish usullari;
7. Chizma parametrlarini rostdash;
8. Ekranda AutoCAD dasturi yordamida soda chizmalar yaratish.
9. Ob'ektlarni ajratish;
10. Ob'ektlar xossalarini o'zgartirish;
11. Muharrirlash komandalari;
12. Ob'ektlar forma(shakl)larini o'zgartirish komandalari.

4-TAJRIBA ISHI.
SCADA SISTEMASIDAGI JARAYONLARNI TEKSHIRISH. TRACE MODE DASTURIY PAKETIDA
MNEMOSXEMALAR TUZISH, PROYEKT VA KANALLAR YARATISH
(4 soat)

Reja:

1. SCADA ning qisqacha tarixi.
2. Zamonaviy SCADA tizimlarining asosiy tamoyillari
3. SCADA texnik ta'minoti
4. SCADA dasturiy ta'minoti
5. SCADA va mahalliy tarmoq


[Practical SCADA for Industry.pdf](#)

1. SCADA ning qisqacha tarixi

Ushbu qo'llanma SCADA tizimlarining asosiy tushunchalari va amaliy masalalarini atroflicha o'rganish uchun mo'ljallangan. Asosiy e'tibor SCADA tizimlarining amaliy jihatlari qaratilgan. Qo'llanmada formula va tavsilotlar asosiy tushuncha va ta'riflardan keltirib chiqarilgan.

Bu bobda SCADA sohasida ishlatiladigan asosiy tamoyillar va terminlar bilan tanishtiriladi. Qo'llanmada asosiy fanlarning qisqacha maznuni ham yoritilgan.

SCADA (supervisory control and data acquisition – nazorat qilish va ma'lumot olish) dastlab ham nazorat tizimlari hisoblangan. Birinchi SCADA tizimlari o'lchash asboblari panellari, chiroqlar va tasmali ovoz yozish sxemalari orqali ma'lumot olish uchun foydalanilgan. Bunda operator turli nazorat tugmalari orqali qo'lda nazorat qilgan. Ushbu qurilmalar zavodlar, korxonalar va elektr ishlab chiqarish stansiyalarida ma'lumot olish hamda nazorat qilish uchun qo'llanilgan va hamon qo'llanmoqda. Quyidagi rasmda panel tizimi uchun sezgir element tasvirlangan.



1.1-rasm. 4-20 mA yoki kuchlanishga mo'ljallangan panel uchun sezgir elementlar.

Sezgir element SCADA tizimi panellari uchun quyidagi afzalliklarga ega:

- U oddiy hamda hech qanday CPU, RAM, ROM va boshqa dasturiy ta'minotlar zarur emas.
- Sezgir elementlar bevosita paneldagi o'lchash asboblari, chiroqlar va kalitlar bilan bog'langan.
- Unda tugma yoki indekatorlardek oddiy qurilmalarni kiritish oson va arzonidir (ko'p hollarda).

Sezgir element tizimlari uchun to'g'ri panelning noqulayliklari quyidagicha:

- Yuzlab sezgir elementlar o'rnatilgandan keyin noqulay sim o'ramlari paydo bo'ladi
- Ma'lumotlar turi va miqdori minimal va elementardir
- Tizim rivojlantirilgan sari qo'shimcha sezgir elementlarni o'rnatish qiyinlashadi
- Tizimni qayta konfiguratsiya qilish nihoyatda qiyindir
- Real ma'lumotlar yordamida simulyatsiya qilishning imkoni yo'q
- Ma'lumotlar omborini boshqarish qiyindir
- Sistema o'chganda ma'lumotlar monitoringi yoki ogohlantirish signallari bo'lmaydi
- O'lchash natijalari va tavsilotlarini 24 soat davomida uzluksiz nazorat qilishga to'g'ri keladi


2. Zamonaviy SCADA tizimlarining asosiy tamoyillari

Zamonaviy ishlab chiqarish va sanoatlashgan jarayonlarda, tog'-kon sanoatida, xalq xo'jaligi va maishiy xizmat sohasida, dam olish va xavfsizlik masalalarida telemetriya ko'pincha uzoq masofada joylashgan uskunalar va tizimlarni bir-biri bilan bog'lash uchun zarurdir. Bu masofa bir metrdan minglab kilometrgacha bo'lishi mumkin. Telemetriya– buyruqlar va dasturlarni yuborish uchun ishlatiladi va monitoring qilingan ma'lumotni olis masofalardan qabul qilib oladi.

SCADA – telemetriya kombinatsiyalari va ma'lumot olishni anglatadi. SCADA barcha to'plangan ma'lumotlarni o'z ichiga olib, ularni markaziy saytga yuboradi hamda zaruriy tahlil va nazoratni amalga oshiradi, so'ngra ma'lumotlar bir necha operator ekranlari yoki diplaylarida namoyon bo'ladi. Zaruriy nazorat signallari keyin jarayonga uzatiladi.

Ma'lumotlarni to'plash, ularni mantiqiy tahlil qilish dastlabki kunlardan sanoat tizimlari va nazorat qilishda qo'llanilgan. Shu jumladan, CPU va bir qator elektron qurilmalar kirib kelishi bilan ishlab chiqaruvchilar mantiqiy elementlarda raqamli elektronika qo'lga keldi. PLC yoki DMK (dasturlashtiriladigan mantiqiy kontroller) sanoatda hali hamon keng qo'llaniladigan nazorat tizimlaridan biridir. Zavod va korxonalarda nazorat qilish va tekshirish uskunalarini rivojlanishi bilan PLC lar bir necha qismlarga bo'linib, bu tizimlar yanada aqilliroq va kichikroq o'lchaga ega bo'ldi. PLC (programmable logic controller yoki DMK–dasturlashtiriladigan mantiqiy kontroller) va DCS (distributed control

systems yoki TNT–taqsimlangan nazorat tizimi) quyida ko'rsatilgandek foydalaniladi.



1.2-rasm. Kompyuterning DMK (dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrolleri) va TNT (taqsimlangan nazorat tizimi) tarmoq va sezgir elementlari bilan.


PLC / DCS SCADA tizimi afzalliklari:

- kompyuter yozib olib va ulkan miqdordagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin
- foydalanuvchi talab qilgan ma'lumotlar istalgan tarzda ko'rsatilishi mumkin
- keng maydondagi minglab sezgir elementlar tizimiga ulanishi mumkin
- operator tizimiga real ma'lumotlar kiritishi mumkin
- Ko'plab ma'lumotlar RTU lardan to'planiladi
- ma'lumotlarni nafaqat saytda, balki istalgan joydan ko'rish mumkin

Kamchiliklari:

- Tizim sezgir element panellari uchun murakkabroqdir
- Bunday turli boshqarish usullariga ega bo'lgan tizim tahlilchilar va dasturchilarni talab qiladi
- Minglab sezgir elementlar bo'lishi bilan ko'plab simlarni taqsimlashga to'g'ri keladi
- Operator faqat PLC ni ko'rishi mumkin

Bugungi kunda kichikroq va aqilliroq bo'lgan sistemalarga talab o'smoqda va sezgir elementlar DMK va TNT ning ma'lumotlari bilan ta'minlanmoqda. Bu qurilmalar IED (intelligent electronic devices) yoki IEQ (intelektual elektron qurilma) deyiladi. IED lar Profibus, Devicenet yoki Foundation Fieldbus kabi aloqa kanallari bilan kompyuterga bog'lanadi. Ushbu qurilmalar ma'lumot olish, boshqa qurilmalar bilan muloqot o'rnatish hamda dasturning umumiy qismi bilan ishlash uchun yetarli intellektga egadir. Bunday aqilli sezgir elementlarning har biri bortlarida qo'shimcha bir necha qo'shimcha sezgir elementlarga ega. Odatda, IED analog kirish sezgir elementini, analog chiqishni, PID nazoratini, aloqa tizimini va dasturiy xotirani bitta qurilmaga birlashtiradi.



1.3-rasm. IEQ (intelektual elektron qurilma)dan tarmoqda foydalanuvchi kompyuter.

IED aloqa tizimi uchun kompyuterning qulayliklari quyidagilar:

- Uzatish simlari tejaladi
- Operator sezgir element qatlamini ko'ra olishi mumkin
- Qurilma haqidagi istalgan ma'lumot olinishi mumkin ya'ni u o'rnatilgan tartib raqami, model raqamlari hamda kim tomonidan berilganligi
- Barcha qurilmalarni ulash va o'rnatish, shuningdek, sozlash hamda qayta joylashtirish osondir
- Ma'lumot olish tizimlari uchun kichikroq qurilmalar kamroq jismoniy mehnatni talab qiladi

IED aloqa tizimi uchun kompyuterning noqulayliklari quyidagilar:

- Murakkab tizimlar malakali ishchi-xodimlarni talab qiladi
- Sezgir elementlarning narxi qimmatdir (ammo ularning o'rnini PLC lar to'ldiradi)
- IED lar aloqa tizimlariga ko'proq tayanadi

3. SCADA texnik ta'minoti

SCADA tizimi RTU (remote terminal units) masofaviy terminal uskunalaridan iborat bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish va ularni aloqa tizimi hisoblangan master stansiya qaytarishni ta'minlaydi. Master stansiya olingan ma'lumotlarni ko'rsatadi va operator uchun masofadan boshqarishni amalga oshirishga imkon beradi.

Zavodni boshqarish va jarayonni optimallashtirish uchun ma'lumotlar aniq va o'z vaqtida bo'lishi kerak. Boshqa afzalliklari tejamkorlik, samaradorlik va eng muhimi xavfsiz boshqarishdan iborat. Bunday natijalar avtomatlashtirilmagan tizimlar bilan taqqoslaganda kam xarajatlidir.

SCADA tizimlarini yanada komplekslashtirishning muhim 5 xil darajasi yoki ierarxiyasi mavjud:

- Yo'nalish darajasi asbobsozlik va nazorat qilish qurilmalari
- Safarbar etilgan terminallar va RTU lar
- Aloqa tizimi
- Master stantsiyani (lar)
- Tijorat ma'lumotlarni ishlab chiqish bo'limining kompyuter tizimi

RTU interfeysning har bir chekka qismida yo'nalish analogi va raqamli sezgir element bilan ta'minlangan.


Aloqa tizimlari master stansiya va masofaviy maydon o'rtasidagi muloqot uchun yo'lak vazifasini bajaradi. Bu aloqa tizimi simli, optik tolali, radio to'lqinli, telefon liniyasi, mikroto'lqinli va hatto sun'iy yo'ldoshli bo'lishi mumkin. Muayyan protokollar va xatoliklarni aniqlash ma'lumotlarni samarali va optimal uzatish uchun foydalaniladi.

Master stantsiya ma'lumotlarni turli RTU lardan yig'adi va odatda, u ma'lumotlarni ko'rsatish hamda masofaviy nazorat uchun operator interfeysi bilan ta'minlangan. Ulkan telemetriya sistemalarida, Sub-masterlar ma'lumotlarni bir-biridan olis masofadan master stantsiyaga qaytarilgani kabi to'playdi.

4. SCADA dasturiy ta'minoti

SCADA tizimlarining dasturiy ta'minoti ikki guruhga bo'linadi: mulikiy va ochiq. Korxonalar o'zlarining texnik ta'minotini ma'lum qilish uchun mulikiy dasturiy ta'minotini rivojlantiryapti. Bunday tizimlar "o'zgarish kaliti" sifatida sotiladi. Ushbu tizim bilan asosiy muammo shundaki, tizimni yetkazib beruvchiga o'ta ishoniladi. Ochiq dasturiy ta'minot tizimlari sistemaning qobiliyati orqali mashhuti keltirgan. Sistema qobiliyati ba'zi tizimlarda turli xil ishlab chiqarish asboblari bir-biri bilan bog'laydi.

SCADA tizimlari uchun dasturlar bozorida ochiq dasturiy paketlarning faqat ikki turi mavjud: Citect va Wonderware. Ba'zi paketlar bugungi kunda SCADA tizimi doirasida integratsiyalashgan boshqarishni o'z ichiga oladi. SCADA tizimining umumiy komponentlari quyidagi diagrammada ko'rsatilgan.



1.4-rasm. Oddiy SCADA sistemasi.

SCADA dasturiy ta'minot asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- Foydalanuvchi interfeysi
- Grafik tasvirlar
- Signallar
- Yo'nalishlar
- RTU (va PLC) interfeysi
- O'lchov birligi
- Ma'lumotlarga kirish
- Ma'lumotlar bazasi
- Tarmoq
- Xatolikka bardoshlilik
- Mijoz /taqsimlangan jarayon serveri

SCADA uchun aloqa yo'li


Garchi, IED tizimlar uchun kompyuterda foydalaniladigan simlar miqdori kamaytirilgan bo'lsada, odatda, umumiy SCADA tizimlarida ko'plab simlar mavjud. Bu simlar asosiy muammo bo'lgan elektr shovqinli ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Qo'shimcha signal va shovqinlar muloqot tizimi ma'lumotlarini loyihalash va o'rnatish hamda elektr signallarini bartaraf etish uchun muhim omildir. Shovqin tasodifiy hosil bo'luvchi nomaqbul signal (yoki to'sqinlik signali) va haqiqiy signal sifatida ta'riflanadi. Bunday shovqinlar simlar va kabellarning ichida har xil usullarda hosil bo'ladi.

Tizimning boshidan kamroq shovqinga ega bo'lishi dizaynning salohiyatiga bog'liq. SCADA tizimlari tabiatan shovqinga moyil bo'lganligi uchun odatda ularda kichik kuchlanish foydalaniladi.

Deyarli barcha tizimlarda burama qatlamli himoyalangan cat5 simlari eng ko'p qo'llaniladi. Yaxshi simlardan foydalanish va to'g'ri o'rnatish usullari orqali tizimda shovqin bo'lmasligiga kafolat beradi.

Optik tolali kabellar kam shovqinligi uchun tobora keng qo'llanmoqda. Bugungi kunda ba'zi sanoat maydonlarida plastik tolali kabellar keng qo'llangan bo'lsada, optik tolali kabellar tobora keng miqyosda ishlatilmoqda.



1.5-rasm. Optik tolali kabellar.


Kelajakda ma'lumotlar almashinish radio to'lqinlar, optik tolali kabellar va ba'zi ko'z ilg'amas sistemalar o'rtasida amalga oshiriladi. Simlar elektronikaning quvvat talabini va quvvat bilan ta'minlanish darajasini minimal ko'rsatkichga yetkazib, hatto quvvat uchun talabni ham kamaytiradi.

5. SCADA va mahalliy tarmoq

Mahalliy tarmoq (MT yoki LAN) barcha ma'lumotlar va resurslarni o'zaro almashinishini ta'minlaydi. SCADA tarmog'ida ma'lumot almashinishi uchun barcha tugunlarni faollashtirish va ular oraliq uzatkichlar orqali o'zaro ulangan bo'lishi kerak. Ulanish usullari tarmoq texnologiyasida o'rganiladi. Tugunlarni taqsimlash uchun oraliq uzatkichlar kerak, chunki bu yo'l bilan orqali ma'lumotlarni belgilangan jo'natuvchiga xalaqitlarsiz o'tishiga imkon beradi.

LAN – kompyuterlar, fayl-serverlari, terminallar, ish stantsiyalari, hamda boshqa intellektual asbob-uskunalar o'rtasidagi muloqot yo'lagidir va u orqali qurilmalar va ko'rsatkichlardan ma'lumot olinadi. LAN tarmoqdagi butun stantsiya o'rtasida to'liq bog'lanishni o'rnatib, bir necha foydalanuvchiga qurilmalar uchun ma'lumot taqsimlashga imkon beradi. Odatda, LAN mahalliy guruh binolarida joylashgan xususiy egalari tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi.

Bugungi kunda Ethernet arzonligi va foydalanishga osonligi uchun LAN (mahalliy tarmoq) keng qo'llaniladi. LAN ga SCADA tarmog'ining bog'lanishi uchun tizimga kirish huquqi kompaniya tomonidan beriladigan to'g'ri dasturiy ta'mimot va uning ruxsatnomasi zarur. Axborot ma'lumotlar omboriga to'langandan buyon foydalanuvchi barcha ma'lumotlarni o'qishi kamaydi. Muammoli jihatlardan biri albatta xavfsizlik masalasidir, ammo uni hal qilsa bo'ladi.



1.6-rasm. SCADA sistemasida ma'lumotlarni Ethernet tarmog'i orqali yuborish.

1.7 SCADA tizimlarida modemdan foydalanish



1.7-rasm. Kompyuterdan RTU ga modemdan foydalanish.

